

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2024-8/2

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i>	<i>Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobidinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.</i>
---	---

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№8/2 (117), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 128 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA
IQTISODIYOT FANLARI

Abdurasulov R.X. Real sektor korxonalarining investitsion layihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining ahamiyatini oshirish	4
Avezov M. Innovatsion yondashuvlar asosida mintaqani kompleks rivojlantirish tamoyillari	6
Bekmirzayev M.A. Namangan viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari	9
Davletov J.M. Qoraqalpog'iston Respublikasida paxta-to'qimachilik klasterlari tizimini rivojlantirish istiqbollari	14
Komilov D.R. Etnografik turizmni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan foydalanish	17
Kuliev N.X. Tijorat banklari xodimlarini rag'batlantirishda xorij tajribasidan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	20
Kurbanova M.L. Toshkent shahar hokimligiga avtotransport xizmatini ko'rsatishning tashkiliy holatini baholash	24
Mardiyev A.Dj. Ipoteka krediti tushunchasi, ipoteka krediti bo'yicha ilmiy nazariy qarashlar	29
Matrizayev S. O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmni rivojlantirish istiqbollari	31
Mayliyeva S.S. Osiyo mamlakatlari kambag'allik darajasini pasaytirish istiqbollaridan samarali foydalanish	34
Mirzayeva L. Jahon mehmonxona brendlari va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	37
Qurbanova O.T. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish salohiyatidan foydalanish xususiyatlari	41
Raximov M.S. Raqamli iqtisodiyotda korxonalarni boshqarishga asoslangan innovatsiyalar	43
Taspanova A.K., Sagiyeva M.O., Erimbetova U.M. Qoraqalpog'iston Respublikasida paxta-to'qimachilik sanoatini klasterlash tizimi - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omili sifatida	46
Toshtemirov Sh.T. Aholining real daromadlarini shakllantirish dinamikasi	51
To'rayev Sh.Sh., Ibadullayev S.S. Aloqa korxonalarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning ob'ektiv zarurligi va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar	55
Yarmatov Sh. Mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillari	61
Zikrillayev N.N. Konchilik sanoati korxonalari investitsion jozibadorligini oshirishning ahamiyati	64
Zokirova B. Hududlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda raqamli transformatsiya	69
Адилъчаев К.Р. Мамлакатда қимматли қоғозлар бозорининг ҳудудий ва тармоқлар ривожланишидаги роли	72
Атаджанова Ф.С. Особенности инвестиционного процесса в жилищном строительстве в современных условиях	78
Исмоилова Ш.М. Методы совершенствования управления инвестиционными проектами в промышленных предприятиях	84
Йулдашева Д.У. Ўзбекистонда туризмни ривожланишига таъсир этувчи омилларнинг эконометрик таҳлили	86
Маткаримов А.М. Хорижий давлатларда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш ва бошқариш тенденциялари таҳлили	92
Сафаров Ш.С. Мамлакат олий таълим тизимида ўқув жараёнини ташкил этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари	96
Толипов А.К. Особенности передового зарубежного опыта государственной поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства	100
Усмонов М.М. Конкурентоспособность промышленных предприятий и факторы влияющие на неё	106
Усубжонов З. Қурилиш материаллари саноатига инвестициялар жалб қилиниши ривожланиш истиқболлари	109
Халикова М.К. Декомпозиционная модель стратегического развития регионального туризм	111
Халикова М.К. Моделирование процессов интерактивных услуг многофакторного туризма	117

UO'K 336.71

**REAL SEKTOR KORXONALARINING INVESTITSION LAYIHALARINI
MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATINI OSHIRISH*****R.X.Abdurasulov, talaba, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent***

Annotatsiya. *Maqolada real sektor korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining ahamiyati, bank kreditlarining iqtisodiyotdagi o'rni, hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan berilayotgan investitsiya kreditlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *real sektor korxonalari, investitsiya loyihasi, investitsiya krediti, bank krediti, kredit riski, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish.*

Аннотация. *В статье проанализировано значение банковских кредитов для финансирования инвестиционных проектов предприятий реального сектора, роль банковских кредитов в экономике, инвестиционные кредиты, выдаваемые в настоящее время коммерческими банками.*

Ключевые слова: *предприятия реального сектора, инвестиционный проект, инвестиционный кредит, банковский кредит, кредитный риск, финансирование инвестиционной деятельности.*

Abstract. *The article analyzes the importance of bank loans in financing investment projects of enterprises of the real sector, the role of bank loans in the economy, investment loans, which are currently being developed by commercial banks.*

Key words: *real sector enterprises, investment project, investment loan, bank loan, credit risk, financing of investment activities.*

Kirish. Bugun O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining yanada rivojlanishi ko'p jihatdan sarmoyaga bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Shu bois, hozirgi vaqtda respublikamiz iqtisodiyotida real sektor korxonalari faoliyatini moliyalashtirish, ularning faoliyatiga tijorat banklari kreditlarini yanada keng jalb etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday iqtisodiy faol korxonada o'z moliyaviy resurslari hisobidan investitsiya loyihasini moliyalashtirishga doim ham qurbi yetmaydi. Bunday hollarda real sektor korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbai tijorat banklarining kreditlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotning real sektori faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan bank tizimining, xususan, bank kreditlash tizimining sifatiga bog'liq. Iqtisodiy barqarorlik rivojlanayotgan sharoitda bank krediti respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishning eng muhim omiliga aylanishi kerak. U qo'shimcha resurslar ko'rinishidagi kuchli yukni ko'tarib, korxonada va tashkilotlarga ularni oldindan jamg'arishsiz ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradi, bu esa tijorat banklarining kreditlari har bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadigan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bank kreditlari hisobidan iqtisodiyotning real sektori korxonalari faoliyatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik ta'minlash bilan bog'liq investitsiya xarajatlari moliyalashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Raqobat kuchayib borayotgan bugungi sharoitda tijorat banklarining kreditlash faoliyati, xususan, real sektor korxonalarini kreditlash bo'yicha operatsiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu operatsiyalar banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lishidan tashqari, bank strategiyasini ishlab chiqishda ularning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Tijorat banklarining real sektori korxonalarini kreditlash amaliyotini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari qator xorijiy va mahalliy olimlar, iqtisodchilar tomonidan olib borildi. T. Bobaqulovning ta'kidlashicha, iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarda moliyaviy ta'minlanish darajasining pastligi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosini yanada chuqurlashtiradi. Bu ularning pul oqimining zaiflashishiga olib keladi va tijorat banklarining investitsiya kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga

to'sqinlik qiladi [1]. Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning real sektori turlicha ta'riflanadi va quyida ularning bir nechtasini ko'rishimiz mumkin. Xususan, biz quyidagi ta'riflarni taqdim etamiz:

– iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiy atama bo'lib, uning muayyan hududdagi faoliyati kichik, o'rta va yirik (sanoat) korxonalarini birlashtirib, iqtisodiy sohada mahsulot ishlab chiqarishga qaratilganligining iqtisodiy ta'rifiga ega bo'lmagan;


– iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning moddiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, moddiy ne'matlar yaratuvchi va xizmat ko'rsatish sohasini o'z ichiga olgan tarmog'idir. Real sektor moliyaviy, kredit va birja faoliyatini o'z ichiga olmaydi;

– iqtisodiyotning real sektori to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishni, daromadlarni shakllantirishni va byudjetga daromadlar oqimini ta'minlovchi iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohasi, mahsulot ishlab chiqarish sohasi uning iqtisodiy atamasi bilan sinonimdir. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning real sektori xomashyo, mehnat va kapitaldan ajratilmagan xizmatlar, mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalardan tashkil topgan iqtisodiy sohadir. Iqtisodiyot real sektorining samarali faoliyat yuritishida moliya sektori muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar: Jahonda integratsiyalashuv va globalashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldiga qator yangi vazifalarni qo'yimoqda. Milliy iqtisodiyotning jahon bozorida o'z o'rnini topishi, ya'ni ma'lum bir pozitsiyani egallashi uchun real sektor korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish muammolarini doimiy ravishda hal etish zarur. Bu muammolarni birinchi navbatda tijorat banklari kreditlari hisobidan hal qilish mumkin. Respublikamizda tijorat banklari korxonalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi asosiy investitsiya instituti hisoblanadi. 2022 yilda tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar (9 oy). Jami 141 325,1 milliard so'm kreditlar ajratildi.


2023 yilda tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar (9 oy). Jami 141 325,1 milliard so'm kreditlar ajratildi.



2022 yilning 9 oyi davomida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning taqsimlanishi 141325,1 mlrd.so'm:

- sanoatga -40763,4 mlrd.so'm;
- qishloq xo'jaligiga -11256,8 mlrd.so'm;
- qurilish ishlariga -5781,0 mlrd.so'm;
- savdo va umumiy ovqatlanishda 22169,4 mlrd.so'm;
- transport va aloqa sohasiga 4828,3 mlrd.so'm;
- jismoniy shaxslarga -44853,5 mlrd.so'm;
- boshqa tarmoqlarga -11672,8 mlrd.

Tijorat banklari tomonidan 2023-yil uchun ajratilgan kreditlar (9 oy) maqsadlarga mo'ljallangan. Jami 141 325,1 milliard so'm kreditlar ajratildi.



Maqsadli (9 oy) tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarni tahlil qilsak, shuni aytish mumkinki, 39 foizi aylanma mablag'larni to'ldirishga, 21 foizi asosiy vositalarni sotib olishga, 6 foizi yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya qilishga, boshqa sohalar uchun dam olish. So'nggi yillarda bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar kreditlarning iqtisodiyotdagi rolini oshirishda muhim rol o'ynadi, buning natijasida bank kreditlarining umumiy hajmi 2 barobar, kapital hajmi esa 1,6 barobar oshdi.

Munozara. Yuqoridagilardan kelib chiqib, real sektor korxonalari faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining rolini oshirish masalalari yuzasidan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, real sektor korxonalari faoliyatining shaffofligini va axborotning ochiqqligini ta'minlash zarur. Binobarin, real sektor korxonalarini tijorat banklari tomonidan bevosita moliyalashtirish alohida ahamiyatga ega. Ikkinchidan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining eksport salohiyatini oshirish zarur, chunki bu jihat kreditlarni o'z vaqtida qaytarish imkonini beradi. Bu ham kreditlash jarayonini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga real iqtisodiyot va bank sektori o'rtasidagi o'zaro muvozanatni ta'minlash orqali erishiladi. Bank tizimida to'plangan mablag'lar real sektor korxonalarini moliyalashtirish va ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratishga yo'naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobaqulov T.I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash yo'lidagi muammolar va ularning hal qilish. Ifd ilmiy avto olish uchun fayl dissertatsiyalari. –T.: 2008. –13-b.
2. Xasanov R., Asatullayev X., Suvonqulov A., Xakimov X. Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2013, 192-b.
3. Xidirov, N. (2020) "Sanoat korxonalarini investitsion faoliyatni moliyalashtirishning xususiyatlari", Xalqaro moliya va buxgalteriya hisobi: jild. 2020: Iss. 1, 31-modda. <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss1/31>
4. Xotamjon, Qobulov dotsent (2020 y.) "Hudud daromadlari potentsialini oshirishning investitsiya faktori masalalari haqida".
5. https://cbu.uz/oz/press_center/news/269986/

UO'K 332.12(075)

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

M. Avezov, doktorant, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotatsiya. Maqolada innovatsion yondashuvlar asosida mintaqani kompleks rivojlantirish tamoyillari tahlil qilingan. Mintaqada istiqbolli dasturlar va samaradorlik tamoyillari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mintaqa, innovatsion yondashuv, kompleks rivojlanish, samaradorlik, strategiya, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В статье анализируются принципы комплексного развития региона на основе инновационных подходов. В регионе разработаны предложения по перспективным

программам и принципам эффективности.

Ключевые слова: *Регион, инновационный подход, комплексное развитие, эффективность, стратегия, цифровая экономика.*

Abstract. *The article analyzes the principles of comprehensive development of the region based on innovative approaches. Proposals for promising programs and efficiency principles have been developed in the region.*

Key words: *Region, innovative approach, integrated development, efficiency, strategy, digital economy.*

Jahonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida innovatsion mexanizmlar roli oshib bormoqda. Innovatsiyalar hozirgi zamon jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy va muhim omil hisoblanib, ayniqsa, mintaqalar kesimida innovatsion rivojlanishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda “Raqamli iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 7 foizga yetgan. Jumladan, AQSH yiliga 400 milliard AQSH dollaridan ko‘proq qiymatdagi raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. 2025-yilgacha AQSH sanoat sohasini raqamlashtirishdan qo‘shimcha 20 trln. AQSH dollar hajmida daromad olishi kutilmoqda”[1]. Bu esa Innovatsion yondashuvlar asosida mintaqani rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

“O‘zbekiston 2030” rivojlanish strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan oqilona va samarali foydalanishga strategiyaning 60-maqsadida “Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta‘minlash darajasini oshirish” belgilangan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni shu yilning 1-martda Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida viloyat shahar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish vazifasi topshirildi[3].

Shu munosabat bilan innovatsion yondashuvlar asosida hududlarni kompleks rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish, mintaqada barqaror o‘shishni ta‘minlash modeldan foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar ijodkorlik, samaradorlik va raqobatbardoshlikni rag‘batlantirish orqali integratsiyalashgan iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar yangi sanoat tarmoqlari, mahsulot va xizmatlarni yaratishga, shuningdek, mavjud jarayonlar va texnologiyalarni modernizatsiyalashga olib keladi. Innovatsiyalarni qo‘llash orqali mintaqalar tez o‘zgaruvchan global iqtisodiyotda o‘shish va barqaror rivojlanishga erishadilar.

Ko‘pgina mamlakatlar iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun innovatsion va kompleks rivojlanish strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Shulardan, Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Finlyandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlar ilmiy tadqiqot va ishlanmalar, ta‘lim, infratuzilma va tadbirkorlikka innovatsiyalar jalb qilish uchun katta sarmoya kiritganlar. Bu mamlakatlar innovatsiyalarga strategik e‘tibor barqaror iqtisodiy rivojlanish va global miqyosda raqobatbardoshlik ustunliklariga qanday erishish mumkinligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, kompleks iqtisodiy rivojlanish va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unligi bugungi globallashuv jarayonida barqaror rivojlanishni ta‘minlaydigan muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.


O‘zbekistonda intellektual salohiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnikani rivojlantirishning ustuvor muammolarini hal yetishga yo‘naltirish uchun innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik yondashuvlarini belgilab olish, shuningdek, jahon xo‘jaligi globallashib borayotgan bir sharoitda mazkur jarayonlarni samarali tashkil etishga yordam beruvchi omillarni yaratish talab yetiladi[4]. Ma‘lumki, bunday omillar ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash va modernizatsiya qilish, jahon bozorlariga chiqish yo‘lida hal qiluvchi dastak bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, turli mamlakatlarni mintaqada innovatsion siyosatni shakllantirish tajribalari va ularni amalga oshirish tashkiliy mexanizmlarini o‘rganish, bunda ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini ham e‘tiborga olish, dolzarb ahamiyat kasb yetib

bormoqda.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining samarali mexanizmlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mamlakatimizning innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, yeng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq”[5]. Innovatsion rivojlanishning jozibadorligi (jamiyat va shaxsning innovatsiyalardan foydalanish orqali rivojlanishi) yeng muhim muammolarni, birinchi navbatda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi hal yetish imkoniyatlari va vositalari doirasini kengaytirish hisoblanadi.

Ustuvor maqsadlardan biri mamlakatimizni Global innovatsion indeks reytingida 2030 yilga borib 50 o‘ringa olib chiqish ko‘zlangan. Mintaqalarda ilmiy salohiyatga ega kadrlarni ko‘paytirish va ulardan foydalanish, kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ilm fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish va uni takomillashtirishni jadallik bilan rivojlantirish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Mana shunday dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli ravishda hal yetish innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish samaradorligini ta‘minlaydi, bu yesa o‘z navbatida, mintaqa iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish va uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi(1-rasm).



1-rasm.Mintaqadagi innovatsion yondashuvlar turlari

Manba: Muallif ishlanmasi


Shuningdek, mintaqani kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari qatoriga mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish kiradi.Tadqiqotlar natijasida mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqildi(2-rasm).

- **Maqsadga yo‘naltirilganlik:** Bu tamoyil mintaqani rivojlantirish uchun aniq va aniq maqsadlarni belgilash muhimligini ta’kidlaydi. Aniq yo‘nalish va maqsadga ega bo‘lgan holda, ushbu maqsadlarga erishish uchun resurslarni samarali taqsimlash va rivojlanishning yanada samarali natijalariga olib kelishi mumkin.

- **Istiqbolli dasturlar:** Bu tamoyil mintaqada sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan dastur va tashabbuslarni aniqlash va ustuvorliklarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Muvaffaqiyat va ta’sir uchun yuqori potensialni taklif qiluvchi dasturlarga e’tibor qaratish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun resurslardan samaraliroq foydalanish mumkin.

- **Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish:** Bu tamoyil mintaqada iqtisodiyotida innovatsiya va

ijodkorlikni rag'batlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Tadbirkorlik, tadqiqot va ishlanmalar hamda texnologiyalarni joriy yetishni rag'batlantirish orqali mintaqalar global muammolarga chidamli va jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan dinamik iqtisodiyotni yaratishi mumkin.



2-rasm. Mintaqani kompleks rivojlantirish tamoyillari

Manba: Muallif ishlanmasi

- **Davomiylik tamoyili:** Bu tamoyil vaqt o'tishi bilan mintaqaviy rivojlanish yo'lida izchil sa'y-harakatlarni davom ettirish muhimligini ta'kidlaydi. Barqaror rivojlanish uchun infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa muhim tarmoqlarga uzoq muddatli investitsiyalar va doimiy investitsiyalar davom yetishi ta'minlanadi.

- **Tarmoq va hududiy manfaatlarining uyg'unligi:** Bu tamoyil mintaqadagi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat idoralari, xususiy sektor kompaniyalari, notijorat tashkilotlari va jamoat guruhlari o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish zarurligini ta'kidlaydi. Manfaatlarni uyg'unlashtirish va umumiy maqsadlar yo'lida birgalikda ishlash orqali mintaqalar mojarolardan qochishlari va o'zaro manfaatlar uchun resurslarni maksimal darajada oshirishlari mumkin.

- **Samaradorlik tamoyillari:** Bu tamoyil minimal chiqindilar bilan maksimal natijalarga erishish uchun resurslarni taqsimlash va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan. Mintaqaviy rivojlanish tashabbuslarida iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni baholashga ustuvor ahamiyat berish orqali hududlar barqaror o'sish va farovonlikni ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/digital-europe-realizing-the-continents-potential>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
3. Xorazmdagi imkoniyatlar va ularni ishga solish bo'yicha vazifalar muhokamasi/ 01.03.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7064>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni. – Toshkent, 2018 yil 21-sentabr. <http://press-servis.uz>.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2021y. 237-bet.

UDK: 334.732.6

NAMANGAN VILOYATIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

M.A. Bekmirzayev, PhD, dots., o'quv ishlari bo'yicha prorektor, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda, xususan Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish, uni barqaror rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, viloyatda

qishloq xo'jaligini rivojlanishi holati va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar keltirilgan holda, kelgusida uni barqaror rivojlantirish istiqbollari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, barqaror, mahsulot, innovatsiya, ishlab chiqarish, istiqbol.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие аграрного сектора в нашей стране, в частности в Наманганской области, факторы, влияющие на его устойчивое развитие, состояние развития сельского хозяйства в регионе, а также основные экономические показатели. Была представлена положительная работа, проводимая в сфере развития сельского хозяйства, и описаны перспективы его устойчивого развития в будущем.

Ключевые слова: экономика, сельское хозяйство, устойчивое развитие, продукт, инновации, производство, перспектива.

Abstract. The development of the agricultural sector in our country, particularly in the Namangan region, the factors influencing its sustainable development, the state of agricultural development in the region, and the main economic indicators have been analyzed in this article. The positive work carried out in the field of agricultural development was presented, and the prospects for its sustainable development in the future were described.

Key words: economy, agriculture, sustainable, product, innovation, production, perspective.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning bosh maqsadi sifatida yer munosabatlarini takomillashtirish, unga egalik qilish va undan samarali foydalanishdan ishlab chiqaruvchilar moddiy manfaatdorligini hal qilishga qaratildi. Tarmoqda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xo'jaliklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilib, O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Butun dunyoda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga juda katta ahamiyat berib kelinmoqda. Chunki ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda qishshoqlar shu qadar ko'pki, ular kundalik yegulik ovqatga ham ega emas, ochlikdan azob chekmoqda, ya'ni oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi faqat ichki o'zini o'zi to'liq oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan cheklanib qolmay, oziq-ovqat importini ham e'tiborga oladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, davlat tomonidan qishloq xo'jaligini har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar, rivojlanish bosqichlari va muntazam uzluksiz rivojlantirish g'oyalari, nazariy va uslubiy asoslari xorijlik olimlardan E.Kasl, M.Byekyer, J.Pretty, P.C.Kesavan, M.S.Swaminathan, R.Costanza, C.B.Floria, R.A.Cramb, C.Leeuwis va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Bu borada MDH davlatlari olimlaridan: N.P.Makarov, A.A.Nikitina, S.G.Xanmagomedov, A.A.Afinogenova, N.A.Yakovenko, I.G.Ushachev, A.G.Papsov, N.K.Dolgushkin, A.F.Serkov, V.V.Maslova, V.S.Chekalin va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mahalliy olimlarimizdan O'zbekiston sharoitida agrobiznes tarmoqlarini isloh qilish va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha A.M.Jo'rayev, Ch.Murodov, T.Sh.Shodiyev, O'.A.Saydahmedov, U.A.Nazarova, T.X.Farmonov, U.V.G'afurov, A.A.Radjabov, F.T.Egamberdiyev, O'.P.Umurzoqov va boshqalar chuqur ilmiy izlanishlar olib borganlar [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda qishloq xo'jaligini tarmoqlari faoliyatini rivojlantirish jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, guruhlash, taqqoslash, statistik tahlil, omilli tahlil, ekspert-baholash, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tarkibida ham yuz bermoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida qishloq xo'jaligi sub'yektlarining asosiy shakllari davlat xo'jaligi, jamoa xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaliklari hisoblanar edi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan mulkiy islohotlar natijasida davlat mulki tugatilib, xususiy, jamoa, hissadorlik yoki xorij sarmoyasi bilan shakllanadigan mulklar yuzaga keldi. Qishloq xo'jaligida mulk "davlat mulki" va "jamoa mulki" (davlat, shirkat va jamoa xo'jaliklari) shaklidan "xususiy mulk" (dehqon va fermer xo'jaliklari) shakliga o'tkazildi (qorako'chilikka ixtisoslashtirilgan shirkat xo'jaliklari va ilmiy-tadqiqot institutlarining tajriba xo'jaliklaridan tashqari).

Jamoa mulki bo'lgan bog' va tokzorlar, chorva fermalari va mollari, texnikalar hamda boshqa mol-mulklar xususiylashtirilib, xususiy mulklarni himoya qilish va ularning rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Alohida ta'kidlash joizki, iste'mol tarkibida sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi bir necha barobar oshdi. Hozirgi vaqtda ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobidan aholining barcha asosiy iste'mol mahsulotlari bo'yicha ehtiyoji deyarli to'liq ta'minlanmoqda.

Mamlakat aholisining ko'payib borayotgani, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida qishloq xo'jaligi ekini maydonlarining qisqarib borishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish masalasini yildan-yilga keskinlashtirib bormoqda. Shu sababli, qishloq xo'jaligini istiqbolda rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlariga jiddiy e'tibor qaratish hamda agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish lozim.

2023-yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 6 foizga o'sgan. 2023-yil yakunlari bilan sanoat 6 foizga, qurilish ishlari 6,4 foizga va qishloq xo'jaligi 4,1 foizga o'sdi.

Namangan viloyatida 2023-yil yakuni bilan 32,8 trln. so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 foizga o'sishga erishildi. Qishloq xo'jaligi sohasida viloyat iqtisodiyotining respublikadagi ulushi 7,4 foizni tashkil etgan. Viloyatda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari aholi jon boshiga nisbatan 10,8 mln.so'mni tashkil etib, o'tgan yil mos davriga nisbatan 116,1 foiz o'sish kuzatilgan. Xususan, Yangiqo'rg'on (22,1 mln.so'm), Namangan (14,4 mln.so'm), Mingbuloq (16,4 mln.so'm) tumanlarida o'sish kuzatilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda chorvachilik mahsulotlarining ulushi 43,6 foizni, dehqonchilik mahsulotlari ulushi esa 56,4 foizni tashkil etgan. Mahsulot kesimida, 758,2 ming tonna don va dukkakli don ekini (5,4 % o'sishga erishilgan), 336,9 ming tonna kartoshka (o'sish 4,4 %), 989,4 ming tonna sabzavot (o'sish 4,0 %), 134,4 ming tonna poliz (o'sish 4,9 %) hamda 366,7 ming tonna meva mahsulotlari (o'sish 5,8 %) yetishtirilgan.

Shuningdek, tanlovlar orqali qishloq xo'jaligi yerlarining 9,0 ming gektari 36,1 mingta dehqon xo'jaligiga (o'rtacha 25 sotixdan) ajratilgan. Ushbu yer maydonidan Namangan viloyati sharoitida 35,3 ming gektar maydonlarda yiliga 2 martadan ko'p hosil olish imkoniyatiga ega. Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va agro logistika xizmatlari rivojlanib bormoqda. Jumladan, kichik va yirik bo'lgan jami 59 ming tonna quvvatga ega bo'lgan 13 ta zamonaviy agrologistika markazlari va jami 110,9 ming tonnalik sig'imga ega bo'lgan 140 ta (111 ta, 95,1 ming tonnalik sovitkichli sig'imlar hamda 37 ta 15,8 ming tonnalik oddiy) sovitkichli va oddiy omborxonalar faoliyat olib bormoqda. Joriy yilda quvvati 21 400 tonna bo'lgan 5 ta sovitkichli omborxonalar ishga tushirilgan.

Namangan viloyatida 2022-2023 yillar davomida 25 983 gektar, shundan 25 892 gektar qishloq xo'jaligiga mo'lajallangan yer maydonlari 96 390 nafar fermer va dehqon xo'jaliklariga ochiq elektron tanlov hamda 90,3 gektar noqishloq xo'jaligi yerlari elektron onlayn-auksion orqali 1 046 ta tadbirkorlik sub'yektlariga ajratib berilgan.

Tanlovlar orqali 2022-2023 yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlarining 16 787 gektari 96 294 nafar dehqon xo'jaliklariga (o'rtacha 17 sotixdan), 9 105 gektari 96 nafar fermer xo'jaliklariga (o'rtacha 95 gektardan) ajratilgan.

Dehqon xo'jaliklariga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlarining qariyb 28,7 foiziga (4 826 ga) yuqori daromadli, 71,3 foiziga (11 960 ga) past daromadli ekinlar ekilgan, ya'ni, yer maydonlarining 28,7 foiziga yuqori daromadli sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari ekilib, bir gektar maydondan 72,4 mln.so'm daromad olinishiga erishilgan bo'lsa, qolgan 71,3 foiziga g'alla, dukkakli don, moyli ekin, makkajo'xori va boshqa ekinlar ekilib, gektariga atigi 17 mln.so'm daromad olingan xolos.

Viloyatda 2024-yilda qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha 106,1 ming ga asosiy maydonlarda, shundan, 68,2 ming ga sabzavot, 5,7 ming ga poliz va 32,2 ming ga kartoshka ekilib, shundan, 3,3 ming ga (1,2 ming ga pomidor, 480 ga bodring, 1,2 ming ga piyoz, 385 ga shirin qalampir, 169 ga brokoli) intensiv usulda sabzavot ekinlari ekiladi. 480 gektar mevali bog' va 9,1 ming ga uzumzor barpo etiladi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 19,3 mln dona jumladan, fermer xo'jaliklari dala chetlarida ixota barpo qilishga 6,7 ming dona, bog', tok va yangi tutzorlar barpo qilishga 12,6 mln dona ko'chatlar ekiladi. Mavjud 534 gektar ko'p yillik daraxtzorlar xatlovdan o'tkazilib, past rentabelli, eskirgan, siyraklashib ochiq maydonga aylangan bog' va uzumzorlar o'rnida yangi intensiv bog'-tokzorlar barpo qilish hisobiga "yashil hududlar" ko'paytiriladi.

Aholiga eksportbop sabzavot ekinlarini ekish uchun joriy yil mart oyidan 1,1 ming ga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari elektron onlayn-auksionga chiqariladi.

Viloyatda 166,2 mlrd so'mlik 435 ta qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilinadi va texnika ta'minoti 84 foizdan 86 foizga yetkaziladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalari doirasida 135,1 mingta ish o'rinlari yaratiladi. Jumladan, agroklaster va fermer xo'jaliklarida 17,5 mingta, yer ajratish hisobiga 11,4 mingta, takroriy ekinda 23,5 mingta, tomorqada 16,4 mingta, pillachilikda 63,4 mingta, suv xo'jaligi ob'yektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan 2,8 mingta [3].

Istiqbolda Namangan viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha 6 ta asosiy yo'nalishlar bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi:

1. Chorvachilik. Viloyatda 2024-yilda yangi loyihalar hisobidan chet davlatlarida olib kelish xisobiga qoramollar (39 ta qoramolchilik loyihalari 6 ming 981 bosh) soni 800 ming boshga, qo'y va echkilar (2 ta qo'y-echkichilik loyihalari 800 bosh) soni 885 ming boshga, parrandalar (15 ta parrandachilik loyihalari 1,4 mln bosh) soni 7,9 mln boshga yetkazish belgilangan bo'lib, 2023 yilga nisbatan qoramol bosh soni 20 ming boshga (2.5%), qo'y va echkilar 33 ming bosh (3,4%), parrandalar 854 ming bosh (11.0%)ga ko'paytiriladi. 125 ming boshdan ortiq sigir va tanalar sun'iy urug'lantiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish 2024-yilda go'sht 185 ming tonna, sut ishlab chiqarish 805 ming tonna, tuxum 680 mln.dona yetishtirilib, 2023 yilga nisbatan go'sht 9 ming tonnaga (4.8%), sut ishlab chiqarish 61 ming tonnaga (8.2%), tuxum yetishtirish 4 mln. donaga (0.6%) ko'paytiriladi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda umumiy qiymati 315,5 mlrd.so'mlik 41 ta loyiha tashabbuskorlari tomonidan 6,9 ming bosh qaramol va 800 bosh qo'y-echkilar Yevropa va Osiyo davlatlaridan olib kelinadi va loyihalar ishga tushish xisobiga 1 078 nafar ishsiz aholi bandligi ta'minlanadi. Bundan tashqari, Halqaro tiklanish taraqqiyot banki hamda Fransiya taraqqiyot agentliklari bilan uzoq muddatli kreditlar ajratilishi hisobiga 15 ta tashabbuskorlarga umumiy qiymati 7,6 mln AQSH dollari miqdorida 13 ta loyiha bo'yicha jami 1205 bosh chetdan naslli qoramollar sotib olish bo'yicha kredit mablag'larini rasmiylashtirish ishlari ham olib borilmoqda.

2. Parrandachilik. Parrandachilik bo'yicha barcha toifa xo'jaliklarida 2024-yilda parrandalar bosh soni 7 mln 863 ming boshga (2023-yilga nisbatan (10.81%), tuxum yetishtirish 680 mln donaga (2023-yilga nisbatan 0.6%), parranda go'shti yetishtirish 53,7 ming tonnaga (2023-yilga nisbatan 6,5%) ko'paytirishga erishiladi.

Bunda, mavjud parrandachilik sub'yektlari 74 tani tashkil etib, shundan 40 ta go'sht yo'nalishidagi va 34 ta tuxum yo'nalishidagi sub'yektlar faoliyatini kengaytirish hamda umumiy qiymati 253 mlrd. 500 mln.so'mlik 15 ta loyihalarni ishga tushurib, parrandalar bosh sonini qo'shimcha 1 mln 455 ming boshga yetkaziladi hamda ushbu loyixalarda 310 nafar aholi bandligi ta'minlanadi.

3. Baliqchilik. Viloyatda 2023-yilda 326 ta baliqchilik xo'jaliklarida 6 ming 564 gektar suv havzalari mavjud. 2023-yilda 116.4 mlrd so'mlik 13 ta loyiha ishga tushirilib, 279 ta yangi ish o'rni

yaratildi. Baliq chavoqlari yetishtirishga ixtisoslashgan 35 ga (quvvati 11 mln dona) maydonda reproduktor havzalar ishga tushirildi. Shuningdek, 117 gektar sun'iy suv havzalari intensivlashtirildi. Natijada, suv havzalaridan 15 ming 434 tonna baliq ovlanib, 105,8 foizga o'sgan. Natijada, 2024-yilda baliq yetishtirish 90 ming tonnaga yetkaziladi.

2024-yilda 4,2 ming ga sun'iy suv havzalari intensivlashtiriladi, 940 ta xonadonda 1,2 ming tonna baliq yetishtirish yo'lga qo'yilishi natijasida barcha toifa xo'jaliklarida baliq yetishtirishni 105,0 ming tonnaga yetkaziladi. 2023-yilga nisbatan 90 ming tonnadan ortiq baliq yetishtirishga erishiladi. Bunda, joriy yilda 120,0 mln dona lichinka ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 3 ta (quvvati 120 mln dona) inkubatsiya sexlari ishga tushiriladi.

Baliq chavoqlari yetishtirishga ixtisoslashgan 30,0 gektar maydonda quvvati 16 mln dona bo'lgan reproduktor xavzalar ishga tushiriladi. Baliqchilik yo'nalishida yillik ishlab chiqarish quvvati 1 142 tonna umumiy qiymati 197,5 mlrd so'mlik jami 10 ta loyihalar ustida ish olib borilmoqda, bu loyihada ham 235 nafar aholi bandligi ta'minlanadi.

4. Asalarichilik. Asalarichilik bo'yicha barcha toifa xo'jaliklarida 2024-yilda asal ishlab chiqarishni 6036 tonnaga oshirib, 2023-yilga nisbatan 4817 tonnaga o'sishga erishiladi. Bunda, asalari oilalari soni 242 ming donaga ko'paytiriladi, 2023-yilga nisbatan 6055 taga yoki (103 foiz)ga o'sishga erishiladi. Mahalliy sharoitda ko'paytirilgan ona arilar oilalari sonini 384,6 ming donani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 16 ming donaga yoki (4,3 foiz)ga o'sishga erishiladi. Asalarichilik yo'nalishida umumiy qiymati 340 mln.so'm bo'lgan jami 1 ta loyihalar ishlab chiqilib, asalari oilalari soni qo'shimcha 260 taga ko'paytiriladi.

5. Bog'dorchilik. Namangan viloyati jami 38 425 gektar bog'lar hamda 14 502 gektar uzumzorlar mavjud. Shundan, 22 867 gektar bog' va 10 070 gektar tokzorlar fermer va qishloq xo'jaligi korxonlarida, 15 557 gektar bog' va 4 432 gektar tokzoralar aholi tomorqalariga to'g'ri keladi. Mazkur maydonlardan joriy yil 370 576 tonna meva va 173 468 tonna uzum hosili olish rejalashtirildi.

Joriy yil davomida 122 gektar samarasiz bog' va 412 gektar samarasiz tokzorlar aniqlandi. Aniqlangan samarasiz bog' va tokzorlarning 156 gektar bog' va 378 gektar tokzorlar barpo etiladi. Jumladan, 69 gektar olma, 11 gektar nok, 8 gektar o'rik, 47 gektar shaftoli, 9 gektar yong'oq, 10 gektar bodom va 3 gektar xurmo kabi mevali ko'chat turlari hamda 61 gektar sanoatbop, 21 gektar kishmishbop va 296 gektar xo'raka uzum navlari ekish rejalashtirildi.

Viloyatda jami 480 gektar bog' va 10 701 gektar tokzorlar tashkil etish rejalashtirildi. Shundan 417 gektar bog' hamda 3 955 gektar tok bahor oylarida qolgan 63 gektar bog' va 6 744 gektar tok kuz oylarida barpo etish rejalashtirildi.

Barpo etiladigan 480 gektar bog'ning 64 gektar sug'oriladigan yer, 480 gektar eski bog'-tokzorlar o'rnida, 127 gektar lalmi, adir, yaylov yerlarda, 133 gektar foydalanishga kiritiladigan yerlar hisobiga to'g'ri keladi.

6. Qulupnaychilik. Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanida qulupnay yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Tumanda 64 ta mahalladan 14 tasining rivojlantirish bo'yicha asosiy drayveri qulupnaychilik hisoblanadi. Tumanda jami 1 161 gektar maydonga qulupnay ekilgan, shundan 20 ta fermer xo'jaliklari 595 gektar hamda 3065 ta xonadonlar 130 ga, tomorqa va dala maydonlarida 436 ga qulupnay yetishtirish bilan shug'ullanadi. 2023 yilda 55 ming tonna mahsulot yetishtirilgan. Misol uchun, "Istiqlol" mahallasida 476 xonadon bo'lib, shundan 310 ta xonadon 12.0 gektar maydonda qulupnay yetishtirish bilan shug'ullanadi. Bunda qulupnay asosan ochiq maydonlarga bir yilda 1 marta ekilib, o'rtacha 3 marta hosil olinadi. Tumandagi 125 ta xonadonda imtiyozli kredit asosida 4 sotixli issiqxona tashkil etish hisobiga bir yilda bir marta qulupnay ko'chati ekiladi hamda yil davomida 3 marta hosil olishga erishiladi. Natijada tuman bo'yicha 2000 tonna hosil olinadi.

Xulosa va takliflar. Natijalarga asoslanib, xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda, xususan Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Biroq, erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda tarmoqda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar ham mavjud. Kelgusida davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ekinlar navlarini to'g'ri joylashtirish, mahsulot sifati va ekinlar hosildorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligida yerdan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish;
- yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash;
- chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish;
- o'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish;
- qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish;
- agrar sohaga oid fanni rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi daromadlarini oshirish;
- global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, mahalliy resurslarni jalb etgan holda, import o'rmini bosuvchi tabiiy sof mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni
2. M.Bekmirzayev. Fermer xo'jaliklarini barqaror iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. "Namangan" nashriyoti, 2022 yil.
3. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <http://namstat.uz>

UO'K 33

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

J.M. Davletov, tadqiqotchi, Qoraqalpoq Davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpoq'iston Respublikasida paxta-to'qimachilik klasterlari tizimini rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi hududlarida klasterlar samaradorligi baholangan.

Kalit so'zlar: Mintaqa, klaster, paxta-to'qimachilik klasterlari, tarmoqlararo klaster, samaradorlik, agroklastar, klaster nazariyasi, innovatsion yondashuv qo'shilgan qiymat zanjiri.

Аннотация. В статье описаны перспективы развития системы хлопко-текстильных кластеров в Республике Каракалпакстан. Оценена эффективность кластеров в регионах Республики Узбекистан.


Ключевые слова: Регион, кластер, хлопково-текстильная промышленность, межотраслевой кластер, эффективность, агрокластер, теория кластера, инновационный подход.

Abstract. The article describes the prospects for the development of the system of cotton-textile clusters in the Republic of Karakalpakstan. The effectiveness of clusters in the regions of the Republic of Uzbekistan was evaluated.

Key words: Region, cluster, cotton-textile industry, intersectoral cluster, efficiency, agrocluster, cluster theory, innovative approach.

Jahonning ko'plab mamlakatlari, jumladan, AQSh, Xitoy, Hindiston, Bangladesh, Indoneziya va Pokiston kabi davlatlarda paxta-to'qimachilik klasterlarining faoliyatini yanada rivojlantirishga oid davlat siyosati bilan bog'liq holda mazkur masalalarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham kuchayib bormoqda. Paxta-to'qimachilik sohasidagi klasterlarning faoliyat tamoyillarini asoslash, moliyaviy faoliyatini tashkil etishdagi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, davlat tomonidan moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini joriy etish, paxta-to'qimachilik sohasidagi klasterlarining tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarida raqamli platformalardan foydalanish, klasterlar faoliyati moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning

uslubiy asoslarini takomillashtirish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.



1-rasm. O'zbekistonda Klasterlarning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Manba: Amaldagi tartiblarga ko'ra muallif tomonidan tuzilgan

Bugungi kunda O'zbekiston milliy iqtisodiyoti agrar sektorida samarali iqtisodiy xo'jalik yuritish shakllaridan biri sifatida klasterlik tizimida yuqori qo'shilgan qiymatni shakllantirish, paxtachilik sohasida iqtisodiy samarani ta'minlaydigan muhim omil ekanligi namoyon bo'lmoqda. 2017-yilda atigi ikkita paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 130 tadan oshgan, chigitni ekishdan tortib to tayyor mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlab kelayotgan va oraliq ishlab chiqarishda yuqori qo'shilgan qiymatni shakllantirib berayotgan klasterlik tizimini yanada rivojlantirish borasida qator vazifalar belgilanmoqda. Ayni paytda "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda"[1]. Bu esa paxta-to'qimachilik klasterlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini

yanada rivojlantirish bilan bog'liq hamda ularning faoliyatining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Paxta – to'qimachilik klasteri nafaqat yengil sanoatni, balki o'z yo'lida qishloq xo'jaligi, oziq – ovqat sanoati, farmasevtika, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish kabi o'nlab tarmoqlarni ham qamrab oladi. Paxta xomashyosini ishlab chiqarishning samarador usullarini izlash zarurati yana shu bilan izohlanadi-ki, O'zbekiston sharoitida yerning mahsuldorligi imkoniyatlaridan to'liq foydalanmagan. O'zbekiston va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning qishloq xo'jaligidagi ayrim ko'rsatkichlar taqqoslangan, bu yana bir bor o'z tasdig'ini topadi. Masalan, 16 million kishi istiqomat qiluvchi va 1,038 million gektar ekin maydonlari (uning ham 60 foizi dengiz yaqinida o'zlashtirilgan yerlar) bo'lgan Gollandiyada 131 milliard dollarlik qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilgani holda, 32 millionlik aholisi va 4,4 million gektarlik ekin maydonlariga ega O'zbekistonda esa, bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 13,2 milliard dollarni tashkil qiladi. O'zbekistonda paxta xomashyosining asosiy iste'molchisi to'qimachilik sanoati bo'lib, u respublikaning sanoat kompleksida muhim o'rin tutadi. Hech shubhasiz, to'qimachilikning rivojlanishi ham paxtachilik sohasining holatiga bevosita bog'liq. O'zbekiston to'qimachilik va yengil sanoati tizimida klasterlarni shakllantirish masalasi mamlakat miqyosida emas, balki mintaqalar – viloyatlardagi aniq iqtisodiy – ijtimoiy shart – sharoitlar asosida, klaster nazariyasining mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgani eng oqilona yo'llardan biridir.

Keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, respublikamizda klasterlar, jumladan, paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil qilish jarayoni esa, ma'lum bir vazirlik, hokimlik va klasterlar kengashlarining faoliyatini muvofiqlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda respublikamizda jami 632 ta klasterlar faoliyat olib bormoqda. Ularning 134 tasi yoki jami klasterlarning 21,2 foizini paxta-to'qimachilik sohasidagi klasterlar tashkil qiladi. Agar, klasterlarni tashkil qilingan 2017-yilda bor yo'g'i ularning soni ikki nafar bo'lgan bo'lsa (Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida ilk bor paxta-to'qimachilik klasterlari) 2018-yilda ularning soni 75 tani tashkil etgan, bugungi kelib ularning soni bir necha karraga oshdi. G'allachilik sohasida 200 ta klaster, mevasabzavotchilik sohasida 249 ta klaster, shuningdek, sholichilikda 41 ta hamda dorivorchilik sohasida esa 8 ta klasterlar faoliyat olib bormoqda.

1-jadval.

Respublika hududlarida klasterlar soni va ularning ixtisoslashuvi (2023-yil 1.07. holatiga) (mlrd so'm)

№	Hududlar (viloyatlar) nomi	Jami klasterlar		Shundan:									
				Paxta-to'qimachilik		G'allachilik		Meva-sabzavotchilik		Sholichilik		Dorivor o'simliklar	
		Soni	Birikirilgan yer maydoni (ga)	Soni	Birikirilgan yer maydoni (ga)	Soni	Birikirilgan yer maydoni (ga)	Soni	Birikirilgan yer maydoni (ga)	Soni	Birikirilgan yer maydoni (ga)	Soni	Birikirilgan yer maydoni (ga)
1	Qoraqalpog'iston Res.	72	124998	11	86791	28	20096	26	12084	7	6027	0	0
2	Andijon	59	120559	15	78991	8	24183	24	14864	12	2521	0	0
3	Buxoro	38	185144	11	99220	13	56218	12	29686	0	0	2	20
4	Jizzax	27	179009	6	77900	8	85581	13	15528	0	0	0	0
5	Qashqadaryo	77	293369	18	136036	28	139930	31	17403	0	0	0	0
6	Navoiy	21	67461	4	31655	8	31827	9	3979	0	0	0	0
7	Namangan	34	154258	7	63406	10	67750	17	20167	0	2935	0	0
8	Samarqand	51	195097	11	75356	18	95198	15	23157	1	0	6	1386
9	Surxondaryo	43	171746	11	72370	12	90800	19	8210	1	366	0	0
10	Sirdaryo	33	167446	9	75500	16	79605	6	2847	2	9494	0	0
11	Toshkent	59	203468	6	72161	15	103845	28	20823	10	6639	0	0
12	Farg'ona	78	205479	13	82080	31	95258	31	24723	3	3418	0	0
13	Xorazm	40	119272	12	82757	5	13800	18	12675	5	1004	0	0
Jami		632	218730	134	1034223	200	904091	249	206147	41	41440	8	1406

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

Hududlar iqtisodiyoti rivojlanishida klaster usulining asosiy afzalliklaridan biri – iqtisodiy omillar ta'siri kuchayishi va ma'muriy omillar rolining susayishidir. Eng muhimi klasterlar hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda katta rol o'ynab, ushbu yondashuv iqtisodiy

jihtadan ustuvor tarmoqlar va loyihalarni aniqlash imkonini berib kelmoqda. Klasterlik tizimi ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechish omilidir, sababi klaster usuli to'qimachilik sanoati rivojida muhim ahamiyatga egadir, shuningdek qishloq xo'jaligi uchun noqulay kelgan yillarda ham klasterning boshqa tashkilotlari hisobidan umumiy ish o'rni va ish haqi saqlab qolinishga erishish mumkin.

Paxta-to'qimachilik korxonalarida paxta xom ashyosini qayta ishlash jarayoni birinchi bosqichi bu paxta mahsulotini qabul qilib olish va uni dastlabki qayta ishlash asosida birlamchi mahsulotlar tola, chigit, boshqa mahsulotlar olish bo'yicha, paxta-to'qimachilik korxonasida paxta xom-ashyosini qayta ishlashning ikkinchi bosqichining oraliq va unda qiymatning o'zgarishini hamda bunda qo'shilgan qiymatning shakllanib borishini ko'rsatadi, paxtani to'liq qayta ishlash jarayonidagi oraliq uchinchi bosqich bu chigitni qayta ishlash jarayoni hisoblanadi, klasterlarda yetishtirilgan paxta xomashyosi hamda uni qayta ishlash orqali olish mumkin bo'lgan mahsulotlar bo'yicha to'rtinchi bosqichli jarayoni paxtani oddiy fermer xo'jaliklari doirasidagi qayta ishlashdan ko'ra, uni bir necha oraliq bosqichlarda qayta ishlanishi esa, o'rtacha 2,2 barobaridan ortiq holatda qiymati oshadi. Bu esa paxta-to'qimachilik korxonalarini tashkil qilinishi va ular asosida paxta xom-ashyosini qayta ishlash mexanizmlarining ham iqtisodiy jihatdan, ham yalpi qo'shilgan qiymatni milliy bozorda ko'paytirishning muhim omili ekanligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 -2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni. <https://www.uzembassy.by/news/2605?language=uz>

UO'K 338.48 + 379.81 + 39(069) + 902.2

ETNOGRAFIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MAVJUD IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH

(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

D.R.Komilov, tayanch doktorant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun mavjud tarixiy madaniy yodgorliklar va ular mavjud bo'lgan hududlar bo'yicha ma'lumot berilgan. Shuningdek, turizmning muhim yo'nalishlaridan entografik va ziyorat turizmni Xorazm viloyatida rivojlantirish yo'llari, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi va yangi turistik xizmat turlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'lar: etnografik turizm, ziyorat turizm, diversifikatsiya, strategiya, turizm resurslari, turizm sanoati, etnografik yodgorliklar.

Аннотация. В данной научной статье представлена информация об историко-культурных памятниках, доступных для развития туризма в Узбекистане и территориях, где они расположены. Также среди важных направлений туризма — пути развития этнографического и паломнического туризма в Хорезмской области. В связи с этим были проанализированы проводимые работы и представлены предложения и рекомендации по развитию новых видов туристических услуг.

Ключевые слова: этнографический туризм, паломнический туризм, диверсификация, стратегия, туристические ресурсы, туриндустрия, этнографические памятники.

Abstract. This scientific article provides information about historical and cultural monuments for the development of tourism in Uzbekistan and the territories where they are located. Also among the important areas of tourism are the ways of developing ethnographic and pilgrimage tourism in the Khorezm region. In this regard, the ongoing work was analyzed and proposals and recommendations for the development of new types of tourism services were presented.

Key words: ethnographic tourism, pilgrimage tourism, diversification, strategy, tourism resources, tourism industry, ethnographic monuments.

Kirish: Madaniy-ma'naviy merosning ko'pligi, boy va rang-barangligi hamda qadimiyligi bilan O'zbekiston dunyoda yetakchi o'rinlardan birida turadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda tarixiy

ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar, arxeologik, qurilish, me'morchilik obyektlari, xalq tasviriy va amaliy san'ati asarlari, muqaddas ziyoratgoh maskanlari xalqimizning madaniy meros namunalari sifatida asrab-avaylab kelinmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, turli xalqlar, elatlar va hududlarning urf-odatlarini, madaniyati va turmush tarzini o'rganishga bo'lgan harakat, intilishlar insonlarni sayohat qilishga undaydi. Ana shu omillar asosida etnografik turizm sohasi ham rivoj topib bormoqda. Masalan, turli xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi, milliy taomlari, kiyim-kechaklari, ro'zg'or buyumlari, madaniy-tarixiy obidalarini turizm sohasida eng ommalashgan xizmat ko'rsatish turlari sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Xalq folklori, dekorativ va amaliy san'atning turli sohalarini, xalq musiqasi, kiyimlari, uy-ro'zg'or buyumlarini, kishilarning ma'naviy va madaniy hayotini o'rganishda etnografik muzey turizmining roli va o'rni beqiyos kattadir. Shu sababli xalqning madaniy ko'rinishining etnografik muzeylarda va madaniy yodgorliklarda namoyish qilish sayyohlarda juda katta qiziqish uyg'otadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etnoturizm madaniy turizmni bir turi bo'lib alohida millatlar va xalqlarni bilish va ularni o'rganish madaniy va til almashinuvidir[1].

Rus olimlari N.B Moralev va E.Yu Ledovskix etnoturizmni sigment deb hisoblaydi va bu asosiy sayyohlarni jalb qilishda mahalliy aholi ishtirok etadigan, etnik turizm sohasi deb hisoblaydi[2].

Tadqiqotchilar Ch.B. Sunduev va L.V. Xishiktuev esa madaniy-ma'rifiy turizmning yo'nalishlaridan biri sifatida etnografikani aniqlaydi, bu sayyohni mahalliy aholi muhitiga cho'mdirishni anglatadi, sayyoh mahalliy milliy madaniyat bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi deb hisoblaydi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda turizm muhim strategik tarmoq sifatida alohida ahamiyatga ega va turizmning maxsus turlaridan etnografik va ziyorat turizmi bir biri bilan bog'liq hisoblanadi va hozirgi paytda eng rivojlanayotgan turizm yo'nalishlaridan bo'lib bormoqda. Shu jumladan shuni aytish mumkin-ki, hozirgi kunda Xorazm viloyatida ham etnografik ham ziyorat turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud.

Xorazm viloyatida turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilishga bo'lgan yondashuv, mavjud bo'lgan turmahsulotlarni jamlash targ'ib qilinishini o'z ichiga oladi. Mintaqada turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish strategiyasi ommaviy yoki maxsus turizmni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Ommaviy turizm- bir vaqtning o'zida ko'p sonli odamlar bilan boradigan joyga tashrif buyurilishini anglatadi[4]. Maxsus turizm odatda ma'lum konsepsiya yoki mavzuga e'tibor beradi(masalan, san'at, gastronomiya, sport va h.k). Maxsus turizm mahsulotlari, odatda kichikroq va ehtimol ko'proq ixtisoslashgan bozorlarni o'ziga jalb qiladi hamda kam sondagi infratuzilmani talab qiladi[5].

Turmahsulotning tematik sinergiyasi Xorazm viloyatining jozibador va diqqatga sazovor joylar o'rtasida o'zaro uyg'unlashuvi va bir birini to'ldirilishi bilan shakllantirilishi mumkin. Undan tashqari, birgalikda marketing faoliyatini amalga oshirish, mutaxassislarni o'qitish va chiptalarni sotish faoliyati kabi hamkorlikdagi ishlarni rivojlantirish mumkin. Turistik mahsulotlar va diqqatga sazovor joylar o'rtasida sinergiyani rivojlantirish nosog'lom raqobatni oldini olishga hamkorlikni yaxshilashga hamda ta'til mavsumini uzaytirishga va umumiy maqsad ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradi[6].

Xorazm viloyatida istiqomat qilayotgan qoraqalpoq, o'zbek, turkman va boshqa millatlarning yashash tarzi boy madaniyati o'ziga xos urf-odatlarini va an'analari, qishloq hayot tarzidan turizm maqsadlarida foydalanish orqali etnografik turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq qildik (1-jadval).

Xorazm hunarmandchilik maktabi, Yangiariq, Xonqa, Modir qishlog'i kulolchilik markazlari, Xorazm zargarlik san'ati, Hazarasp miniatyura va naqqoshlik usta-shogird ijod xonalari, Xorazm xalfachilik san'ati, Xorazm raqsi, Xiva ipak gilamlari to'qish ustaxonalari, Xiva qo'g'irchoq yasash

ustaxonalari, Xorazm zargarlik san'ati kabi resurslar Xorazm viloyatida etnografik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

Xorazm viloyatining etnografik turizm resurslari

Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati	“Jonli” etnografik muzeylar	Nomoddiy madaniy meros shakllari
1. Xorazm hunarmandchilik maktabi, Yangiariq, Xonqa Modir qishlog'I kulolchilik markazlari	“Avaz o'tar” uy muzeyi Hazorasp miniatyura va ustoz-shogird ijodxonasi “Qozixona” muzeyi “Ulli hovli” turistik majmuasi	Xorazm xalfachilik san'ati (to'y, sayl, aza marosimlarida xotin qizlar davrasida “xalfa”lar san'ati ijodi keng tarqalgan) Xorazm raqsi (“Chag'aloq”, “Norim-norim”, “Alikambar”, “Orazibon” “Mo'ri”, “Xo'bbimboy”, “Shirinnovot” o'yinlari, “Qayroq lazgisi”, “Loyiq”) Xorazm baxshichiligi; <i>Xalq o'yinlari (xalq milliy o'yinlari hisoblangan kurash) turli bayram va ommaviy tadbirlarda o'tkazilib kelinadi.</i>
2. Xiva suzani markazi		
3. Xiva ipak gilamlari to'qish ustaxonasi		
4. Xiva qo'g'irchoq yasash ustaxonalari		
5. Xorazm zargarlik san'ati		

Tadqiqot davomida Xorazm viloyati ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq qilindi. Xususan, bugungi kunda Xorazm viloyatida ham ushbu turizm turini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot jarayonida, Xorazm viloyati yangi turistik mahsulot sifatida ziyorat turizm marshrutlari shakllantirish maqsadida mavjud ichki resurslar aniqlandi(2.jadval).

2-jadval

Xorazm viloyatining ziyorat turizm resurslari

Xorazm viloyati	
Pahlovon Mahmud ziyoratgohi Yusuf Hamodoni ziyoratgohi Shayh Muxtor Valiy ziyoratgohi Vayangan bobo ziyoratgohi	Hazrati Eshon bobo majmuasi Sayid Olovuddin ziyoratgohi Bibixojar ziyoratgohi Shayx kabir ziyoratgohi

Tadqiqot natijasida 2-jadvalda keltirilgan Xorazm viloyatida joylashgan ziyorat turizm resurslari asosida yangi turizm marshruti shakllantirildi. Mazkur ziyoratgohlar atrofida uy mehmonxonalarini tashkil etish, ziyorat turizmi yo'nalishidagi turpaketlar uchun chegirmalar joriy etish, sayyohlarga elektron chipta xarid qilish tizimini joriy qilish, halol, kosher va vegan standartlari bo'yicha ovqatlanish shahobchalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, Xorazm viloyati ziyorat turizmi resurslari yordamida yangi turistik mahsulotlarni yaratish Xorazm viloyatiga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy turistlar oqimini ko'payishiga, mahalliy aholi uchun yangi ishchi o'rinlarini yaratilishiga, hududning eksport imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak turizm sanoatini rivojlanishi bir qancha muammolarni yechilishiga yordam beradi, xususan aholi daromadlarini oshishi xamda ishsizlikni kamaytirish kabilar shular jumlasidandir. Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqyosidagi bilamiz bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh ob'ektlariga aylantirish mumkin. Buning uchun muqaddas ziyoratgohlarni kengroq targ'ib qilishimiz va ular xaqida ko'proq ma'lumot yig'ishimiz kerak.

Shuningdek yuqoridagilardan kelib chiqib Xorazm viloyatida etnografik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mintaqada turli xildagi “jonli” etnografik muzeylar, etnografik yodgorliklarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va ularni asrab avaylash;

- mintaqadagi nomoddiy madaniy meros shakllari etnografik turizmni rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham ularni saqlash, chuqur o'rganish hamda etnografik turizmga ulardan samarali foydalanishni tizimli yo'lga qo'yish lozim;

- mintaqada taklif qilinayotgan etnografik turizm dasturlarida qabul qilinayotgan turistlarga xizmat ko'rsatishning asosiy texnologiyalari o'rganish;

- Xorazm viloyati oliy ta'lim muassasalarining turizm va mehmonxona ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga “Etnografik turizm” o'quv kursi sifatida kiritish;
- mintaqa turoperatorlar tomonidan ishlab chiqilayotgan turmarshrutlarga etnografik turizm obyektlarini kiritish va bozorga chiqarishni tashkil qilish;
- Xorazm viloyatida etnografik turistik resurslarini saqlash va asrab avaylashda hamda dunyo bo'yicha e'tirof qilinishida BTT, YuNESKO kabi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yana jonlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Биржаков М. Б. Введение в туризм / М. Б. Биржаков. – 9-е изд., перераб. и доп. – СПб.: Изд. дом Герда, 2007. – 576 с
2. Моралева, Н. В. Организация этнографического и аборигенного туризма: учебное пособие – М.: Библиотека коренных народов Севера, 2008. – 43 с
3. Сундуев Ч. Б. Этнотуризм как одно из направлений культурнопознавательного туризма // Ч. Б. Сундуев, Л. В. Хышиктуева // Вестник Бурятского государственного университета, 2009. – № 4. – С 53–56.
4. Vainikka V (2003). Rethinking Mass tourism. *Tourist studies*, 13(3) 268-286. DOI: 10.1177/1468797613498163 tou.sagepub.com
5. Novelli, M. (2005). *Niche tourism: Contemporary issue, trends and cases*. Oxford: Butterworth-Heineman
6. Weidenfeld A; Richard W. Butler; Allan M. Williams (2010). Clustering and compatibility between tourism attractions. , 12(1), 0–0. doi:10.1002/jtr.732

UO'K: 336.713

TIJORAT BANKLARI XODIMLARINI RAG'BATLANTIRISHDA XORIJ TAJIRIBASIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI (ATB “Tenge bank” misolida)

N.X.Kuliev, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada xodimlarga haq to'lashni tashkil etishning o'ziga xos tizimlari, bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish, mehnatga haq to'lashning yanada samarali shakllarini izlash, ATB “Tenge bank” misolida tijorat banklari xodimlarini rag'batlantirishda xorij tajribasidan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga doir tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mehnatga haq to'lash, bonuslar tizimi, inklyuziya dasturlari, xodimlarning qo'nimsizligi, karyera, treninglar, malaka oshirish, aksiyalar paketlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются уникальные системы организации оплаты труда сотрудников, изучение опыта стран с развитой рыночной экономикой, поиск более эффективных форм оплаты труда, социальные преимущества использования зарубежного опыта в мотивации сотрудников коммерческих банков. в случае АТБ «Тенге Банк» - приводятся аналитические данные по экономической сущности.

Ключевые слова: оплата труда, система премирования, инклюзивные программы, неудовлетворенность сотрудников, карьера, обучение, повышение квалификации, пакеты продвижения.

Abstract. This article considers unique systems of organization of employees' remuneration, study of experience of countries with developed market economy, search for more effective forms of remuneration, social advantages of using foreign experience in motivation of employees of commercial banks. in the case of ATB “Tenge Bank” - analytical data on economic essence are given.

Key words: remuneration, bonus system, inclusive programs, employee dissatisfaction, career, training, professional development, promotion packages.

Hozirgi vaqtda xodimlarga haq to'lashni tashkil etishning o'ziga xos tizimidan olingan ish haqi shakllari qo'llaniladi. Bozor sharoitida korxonalarining tashkiliy-huquqiy modellarida o'zgarishlar ro'y berdi, bozor islohotlarining boshlanishi munosabati bilan nisbatan yaqinda davlatimizda yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar paydo bo'ldi, shu sababli mehnatga haq to'lash shakllari va imkoniyatlari, uning modellarini shakllantirish, mehnat unumdorligini yuqori darajada rag'batlantirish hali o'z o'rniga ega emas. Bunday sharoitda bozor iqtisodiyoti rivojlangan

davlatlarning tajribasini o'rganish, mehnatga haq to'lashning yanada samarali shakllarini izlash zarurati tug'iladi.[1]

ATB "Tenge Bank" da xodimlarni rag'batlantirishda rivojlangan davlatlarning bir qator tijorat banklari tajribasidan foydalanilganligi tadqiqot jarayonida tahlil qilindi. (2020-2024 yillardagi tahlili). 2020-2024 yillarda ATB "Tenge Bank" xodimlarni rag'batlantirishda rivojlangan banklar tajribasidan keng foydalanmoqda.[2]

1. JPMorgan Chase & Co.

Tajriba. Performance-Based Bonuses. JPMorgan Chase banki xodimlariga natijalarga asoslangan bonuslar tizimini joriy etadi, bu xodimlarning yuqori natijalarga intilishini rag'batlantiradi. Career Development Programs. Xodimlar uchun karyera rivojlanishi va malaka oshirish dasturlari keng qo'llaniladi. JPMorgan Chase & Co tajribasining ATB "Tenge Bank" da qo'llanilishi. Bonuslar Tizimi. 2020-2024 yillarda Tenge Bank xodimlariga yil yakuni natijalariga asoslangan bonuslar tizimini joriy etdi, bu xodimlarni yuqori natijalarga erishishga undaydi. Malaka oshirish. Tenge Bank xodimlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etildi, bu ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

2. HSBC Holdings plc.

Tajriba. Flexible Working Arrangements. HSBC banki xodimlarga moslashuvchan ish vaqti va masofaviy ishlash imkoniyatini taqdim etadi. Health and Wellbeing Programs. Xodimlarning sog'lig'i va farovonligini ta'minlash uchun turli dasturlar joriy etiladi. HSBC Holdings plc tajribasining ATB "Tenge Bank" da qo'llanilishi. Moslashuvchan ish vaqti. 2020-2024 yillarda Tenge Bank xodimlari uchun moslashuvchan ish vaqti va masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Sog'liqni saqlash dasturlari. Xodimlar uchun sog'liqni saqlash sug'urtasi va farovonlik dasturlari joriy etildi.

3. Goldman Sachs Group, Inc.

Tajriba. Employee Stock Options. Goldman Sachs banki xodimlarga kompaniya aksiyalarini sotib olish imkoniyatini beradi, bu ularni kompaniya muvaffaqiyatiga qiziqtiradi. Diversity and inclusion programs. Bankda xilma-xillik va inklyuziya dasturlari keng qo'llaniladi. Goldman Sachs Group, Inc ning ATB "Tenge Bank" da qo'llanilishi. Aksiyalar paketlari. 2020-2024 yillarda Tenge Bank xodimlariga kompaniya aksiyalarini sotib olish imkoniyatini taqdim etdi, bu ularni bank muvaffaqiyatiga bevosita qiziqtiradi. Xilma-xillik va inklyuziya. Tenge Bank xodimlar orasida xilma-xillik va inklyuziya dasturlarini qo'llab-quvvatladi, bu esa ish muhitining yanada qulay va do'stona bo'lishini ta'minladi.

4. Wells Fargo & Company.

Tajriba. Recognition programs: Wells Fargo banki xodimlarning yutuqlarini tan olish va mukofotlash dasturlarini amalga oshiradi. Work-Life Balance. Xodimlarning ish va hayot balansini ta'minlash uchun turli tadbirlar va dasturlar qo'llaniladi. Wells Fargo & Company ni tajribasining ATB "Tenge Bank" da qo'llanilishi. Mukofotlash dasturlari. 2020-2024 yillarda Tenge Bank xodimlarining yutuqlarini tan olish va mukofotlash dasturlarini joriy etdi, bu ularni yanada yuqori natijalarga intilishiga rag'batlantirdi. Ish va hayot balansini. Xodimlar uchun ish va hayot balansini ta'minlash maqsadida turli tadbirlar va qulay sharoitlar yaratildi.

2020-2024 yillarda ATB "Tenge Bank" xodimlarni rag'batlantirishda rivojlangan banklar, jumladan JPMorgan Chase, HSBC, Goldman Sachs va Wells Fargo tajribalaridan keng foydalandi. Bu tajribalar bankning xodimlar siyosatini yanada rivojlantirish, ularning motivatsiyasini oshirish va bankka sodiqliklarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada, Tenge Bank xodimlari uchun raqobatbardosh maosh va bonuslar, moslashuvchan ish sharoitlari, sog'liqni saqlash va farovonlik dasturlari, malaka oshirish imkoniyatlari va xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash kabi samarali rag'batlantirish usullari joriy etildi.

Tadqiqot jarayonida "Tenge Bank" ATB misolida xodimlarning qo'nimsizligi darajasining 2020-2024 yillardagi tahlili[2] ni amalga oshirdik. Xodimlarning qo'nimsizligi darajasi (turnover rate) tashkilotning xodimlarni ushlab qolish qobiliyatini va mehnat sharoitlarini baholashda muhim ko'rsatkichdir. Bu tahlil xodimlarning qo'nimsizligi sabablarini aniqlash va uni kamaytirish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Quyida 2020-2024 yillardagi "Tenge Bank" ATB ning xodimlarning qo'nimsizligi darajasi tahlili keltirilgan.

"Tenge Bank" ATB xodimlar qo'nimsizligi darajasi tahlili (ATB "Tenge bank" misolida muallif ishlanmasi):

1-jadval

Qo'nimsizlik darajasining asosiy ko'rsatkichlari

Yil	Xodimlar soni (yil boshida)	Ishdan bo'shaganlar Soni	Qo'nimsizlik darajasi (%)
2020	1,000	100	10%
2021	1,050	110	10.48%
2022	1,100	105	9.55%
2023	1,150	115	10%
2024	1,200	120	10%

Manba: ATB "Tenge bank" misolida muallif ishlanmasi

Tahlil jarayonida qo'nimsizlik sabablari aniqlandi. Maosh va rag'batlantirish. Xodimlar maosh va bonuslarning yetarli emasligi sababli ishdan chiqishi mumkin. Tenge Bank raqobatbardosh maosh va bonus tizimini joriy etishga harakat qiladi, ammo bu har doim ham yetarli bo'lmasligi mumkin. Ish sharoitlari. Ish muhitining qulay emasligi, masalan, ish vaqti, ish yuki va boshqa mehnat sharoitlari qo'nimsizlikka olib kelishi mumkin. Bankning qulay ish sharoitlari yaratishdagi sa'y-harakatlari ham xodimlarning turli ehtiyojlarini qondirishga yetarli bo'lmasligi mumkin. Karyera rivojlanishi. Xodimlar uchun karyera imkoniyatlarining cheklanganligi ham qo'nimsizlikning bir sababidir. Tenge Bank xodimlarining kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun treninglar va malaka oshirish dasturlarini taklif qiladi, ammo karyera yo'llarining cheklanganligi sababli ayrim xodimlar bankni tark etishi mumkin.

Raqobatchilar takliflari. Boshqa banklar va moliyaviy institutlarning raqobatbardosh takliflari xodimlarni jalb qilishi mumkin. Bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun Tenge Bank o'zining rag'batlantirish va ish sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilashga intiladi. Qo'nimsizlikni kamaytirish strategiyalari. Maosh va rag'batlantirishni oshirish, xodimlar uchun raqobatbardosh maosh va bonuslar tizimini yanada yaxshilash jarayonida natijalarga asoslangan rag'batlantirish tizimlarini kengaytirish, ish sharoitlarini yaxshilashdan iborat. Ish vaqti va ish yukini optimallashtirish jarayonida masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytiriladi, karyera rivojlanishi imkoniyatlarini oshiriladi. Xodimlar uchun aniq karyera yo'llarini belgilash va ko'tarilish imkoniyatlarini oshirish jarayonida esa ko'proq treninglar, seminarlarga qatnashish imkoniyatlarini taqdim etiladi. Xodimlararo munosabatlarni mustahkamlash uchun xodimlar o'rtasida jamoaviy ruhni oshirish uchun jamoaviy tadbirlar va treninglar tashkil etish. Hamda xodimlar fikr-mulohazalarini inobatga olish va ular bilan doimiy muloqot qilish muhim hisoblanadi.

"Tenge Bank" ATB ning 2020-2024 yillarda xodimlar qo'nimsizligi darajasi o'rtacha 10% atrofida bo'lib, bu bankning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun doimiy ravishda xodimlar siyosatini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Qo'nimsizlik darajasini kamaytirish uchun bank maosh va rag'batlantirish tizimini yaxshilash, ish sharoitlarini qulay qilish, karyera rivojlanishi imkoniyatlarini oshirish va xodimlararo munosabatlarni mustahkamlashga e'tibor qaratishi lozim. Bu orqali bank xodimlarni ushlab qolish va ularning ishga bo'lgan qiziqishini oshirishga erishishi mumkin.

"Tenge Bank" ATB misolida xodimlarni rag'batlantirish tizimini baholash va tahlil qilish (2020-2024 yillar misolida) jarayoni quyidagicha bo'lgan. Tadqiqot ishida ATB "Tenge Bank"ning 2020-2024 yillardagi xodimlarni rag'batlantirish tizimini baholash va tahlil qilish uchun quyidagi mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanildi.

1. Maosh va bonuslar tizimi. Maoshlar tahlili, raqobatbardosh maosh, xodimlarga bozor sharoitlariga mos raqobatbardosh maoshlar to'lanishi, oylik va yillik maoshlarni oshirish jarayoni maosh va bonuslar tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har yili xodimlarning natijalari va kompaniya yutuqlariga asoslangan maosh oshirish uchun ATB "Tenge bank" bonuslar tizimini, natijalarga asoslangan bonuslarni, yillik va chorak yakunlari bo'yicha erishilgan natijalarga asoslangan bonuslarni, motivatsion bonuslar tizimini hamda xodimlarning motivatsiyasini ijobiy oshirishini taklif etadi.

2. Aksiyalar va dividendlar. Aksiyalarning paketlari, xodimlarga aksiyalar taqdim etish, xodimlarga kompaniya aksiyalarini sotib olish imkoniyatini taqdim etish, dividendlar, aksiyador bo'lgan xodimlarga dividendlar to'lash tartibi amalga oshirish shular jumlasidandir.

3. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya. Sog'liqni saqlash sug'urtasi, sug'urta dasturlaridan foydalanish, xodimlar uchun keng qamrovli tibbiy sug'urta dasturlarini taqdim etishda muhim hisoblanadi. Sog'liqni saqlash dasturlarining xodimlar farovonligiga ta'sirini o'rganishda pensiya jamg'armalari va dasturlari xodimlar uchun pensiya jamg'armalariga hissa qo'shishda muhim hisoblanadi.

4. Treninglar va malaka oshirish. Malaka oshirish kurslari, doimiy ta'lim, xodimlar uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhim. Xodimlar uchun treninglarni tashkil etish, karyera rivojlantirish, trening va malaka oshirish dasturlari orqali xodimlarning karyera rivojlanishida asosiy ro'l o'ynaydi.

5. Ish muhitini yaxshilash. Qulay ish sharoitlari, moslashuvchan ish vaqti, xodimlarga moslashuvchan ish vaqti va masofaviy ishlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bank tomonidan xodimlar uchun ish muhiti va ish joyidagi sharoitlarni yaxshilash uchun bir qatorlar dasturlar tashkil etilmoqda.

6. Rag'batlantirish dasturlarining natijalari. Bankda qo'nimsizlik darajasi va xodimlar qo'nimsizligi ko'rsatkichlari doirasida qo'nimsizlik darajasining yillik tahlili va sabablarini aniqlanadi. Xodimlar qoniqishini o'rganish maqsadida so'rovnomalar o'tkazish jarayonida xodimlar fikr-mulohazalar, xodimlarning rag'batlantirish dasturlariga bo'lgan munosabatlari o'rganiladi. 2020-2024 yillarda xodimlar maoshi yillik o'sishi o'rtacha 5-7% ni tashkil etdi. Bu raqobatbardosh maosh tizimi xodimlar motivatsiyasini oshirishga yordam berdi. Bonuslar tizimi natijalarga asoslangan bo'lib, bu xodimlarni yuqori natijalarga erishishga undadi va ularning motivatsiyasini oshirdi.

Aksiyalar va dividendlar tahlili. Xodimlarga aksiyalar paketlari taqdim etilishi ularni bank muvaffaqiyatiga qiziqtirdi. Dividendlar to'lanishi esa xodimlarning moliyaviy barqarorligini oshirdi. Sog'liqni saqlash sug'urtasi dasturlari xodimlar farovonligini ta'minlashga yordam berdi. Pensiya jamg'armalari esa xodimlarning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ta'minladi. Malaka oshirish kurslari va treninglar xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta'minladi va ularning karyera imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ish muhitini yaxshilash tahlili. Moslashuvchan ish vaqti va masofaviy ishlash imkoniyatlari xodimlarning ish va hayot balansini yaxshilashga yordam berdi. Qulay ish sharoitlari esa ularning ishga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Rag'batlantirish dasturlarining natijalari tahlilida esa xodimlar qo'nimsizligi darajasi 10% atrofida bo'lib, bu bankning xodimlarni ushlab qolish qobiliyatini yaxshilash zarurligini ko'rsatdi. Xodimlar qoniqishi so'rovnomalari natijalari rag'batlantirish dasturlarining samaradorligini tasdiqladi, xodimlar bu dasturlarni yuqori baholadi.[2]

2020-2024 yillarda ATB "Tenge Bank"ning xodimlarni rag'batlantirish tizimi xodimlarning motivatsiyasini oshirish va ularni bankka sodiq qilishda samarali bo'ldi. Maosh va bonuslar, aksiyalar va dividendlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya, treninglar va malaka oshirish, hamda qulay ish sharoitlarini yaratish orqali bank xodimlarning qoniqishini oshirishga erishdi. Qo'nimsizlik darajasini kamaytirish va xodimlar qoniqishini ta'minlash bankning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://oefen.uz/ru/documents/diplom-ishlar/umumiy/korxonada-personal-faoliyati-samaradorligini-oshirish-yo-llari>
2. <https://tengebank.uz/uz/about-bank/o-banke>
3. Halimovich K.N. Advantages of tax credits in increasing the profitability of commercial banks //Imras. – 2023. – T. 6. – №. 6. – C. 229-234.
4. Halimovich K.N. Digital banks are an engine in the development of the country's economy //International scientific research conference. – 2023. – T. 2. – №. 18. – C. 82-85.
5. Halimovich K.N. Advantages of tax credits in increasing the profitability of commercial banks //Imras. – 2023. – T. 6. – №. 6. – C. 229-234.
6. Halimovich Q. N. Importance of Innovative Activities in Banks //European journal of business startups and open society. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 37-40.
7. Исомов Б. С., Кулиев Н. Х. Инвестиции в условиях рыночных отношений //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 6-2 (109). – С. 22-24.

8. Исомов Б.С., Кулиев Н.Х. Вестник науки и образования //Вестник науки и образования Учредители: Олимп. – С. 22-24.
9. Кулиев Н.Х. Совершенствование системы планирования производственно-технической базы жилищного строительства. – 1984.
10. Bustonovna J.Z. Peculiarities of the agricultural economy in the countries of the european union //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 1256-1260.
11. Bostonovna D.Z. Conceptual basis of improvement of bank audit in commercial banks //Imras. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 118-124.
12. Djumaeva Z.B. (2023). Ways of using reengineering in enterprises. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(7), 430–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8189761>
13. Jumayeva Z.B. (2023). Investments in human capital and peculiarities of this process in Uzbekistan. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(8), 36–44. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8248244>
14. Djumaeva Z.B. (2023). Ways of using reengineering in enterprises. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(7), 430–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8189761>
15. Djumaeva Z.B. (2023). Use of foreign experience in improving the organizational structure of commercial banks. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 607–613. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8380975>
16. Djumaeva Z.B. (2023). Conceptual basis of improvement of bank audit in commercial banks. В International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) (Т. 6, Выпуск 06, сс. 118–124). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10019813>

UO'K 330

TOSHKENT SHAHAR HOKIMLIGIGA AVTOTRANSPORT XIZMATINI KO'RSATISHNING TASHKILIY HOLATINI BAHOLASH

M.L.Kurbanova, katta o'qituvchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy davlat hokimiyat organlariga transport xizmatini ko'rsatishda tashkiliy-iqtisodiy jihatdan baholash va uning iqtisodiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tadqiq etilgan asosiy masala xizmat ko'rsatishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: mahalliy davlat hokimiyat organlariga xizmat ko'rsatish, transport iqtisodiyoti, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hokimliklarga transport xizmatini ko'rsatish ahamiyati.

Аннотация. Данная статья посвящена на организационно-экономическую оценку оказания транспортных услуг органам местного самоуправления и определение ее экономической значимости, а основной изучаемый в ней вопрос посвящен оказанию услуг.

Ключевые слова: оказание услуг органам местной государственной власти, транспортное хозяйство, организационно-экономический механизм, значение оказания транспортных услуг хакимиятам.

Abstract. This article is aimed at the organizational and economic assessment of the provision of transport services to local governments and determining its economic significance, and the main issue studied in it is devoted to the provision of services.


Key words: provision of services to local government bodies, transport sector, organizational and economic mechanism, the importance of providing transport services to khokims.

Toshkent shahar hokimligi mahalliy davlat boshqaruv organi sifatidagi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri maqomi va tuzilmasi to'g'risida"gi qarorida Toshkent shahar Kengashining Toshkent shahar hokimligini tashkil etish va Toshkent shahar hokimi lavozimini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligiga binoan asos solingan. Toshkent shahar hokimligi Toshkent shahar kengashining 8-chaqiriq sessiyasidagi navbatdan tashqari 1992-yilning 11-yanvar sanasida Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi negizida barpo etildi. Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq faoliyat yuritadi.[1]

Toshkent shahar hokimligi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishni boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini, shuningdek mahalliy byudjetni tasdiqlash, qolaversa hokimlikka bo'ysungan korxonalar, tashkilot va muassasalarning faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish bilan muvofiqlashgan bo'lib, uni boshqarish hamda nazorat qilishda mamlakat qonunlariga rioya etilishini, davlat va jamoat tartibi saqlanishini, fuqarolarning huquqlarini to'laqonli muhofaza qilinishini ta'minlashga mas'uldir.


Toshkent shahar hokimligi boshqa hokimliklar kabi boshqarma, bo'lim va turli bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tashkiliy tarkibi, tuzilmasi, shuningdek faoliyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan belgilanadi.[2] Toshkent shahar ijroiya hokimiyati tuzilmasi va xodimlari soni Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlangan byudjet chegarasida Hokim tomonidan o'rnatiladi va o'zgartiriladi.[3] Toshkent shahar hokimligiga avtotransport xizmatini ko'rsatishning tashkiliy holatini baholash yuzasidan Toshkent shahrining avtotransport xizmatidan foydalanish darajasini aniqlash tavsiya etiladi (1-rasm).

1-rasmga ko'ra Toshkent shahri avtotransport xizmatlaridan hajmi 2013-yildan boshlab 2023-yilga qadar barqaror o'sish sur'atiga ega, shu bilan bir qatorda 2019-yildan so'ng qayd etilgan hajm ko'rsatkichi keskin oshib borgan. Bunda asosan Covid-19 sharoitida yuzaga kelgan karantin qoidalariga rioya etishda uzoq vaqt uy izolyatsiyasida bo'lgan aholi xizmatlar turini oshirishga hamda ularni elektron tijorat asosida yuritishga muvaffaq bo'ldi. 2020-yildan bugungi kunga qadar mamlakatimizda uy-joylarning qurilishi natijasida transport aylanmasi oshishiga sabab bo'ldi va avtotransport xizmat hajmi, shuningdek qiymati ham o'sdi (1-rasm).



1-rasm. Toshkent shahri avtotransport xizmatlari hajmi (2013-2023 yy, mlrd.so'm)[4]

Avtotransport xizmatining pul qiymatidagi hajmi 2013-yilda salkam 1455 mlrd.so'mdan 2023-yilga qadar 11 barobarga oshib, 16 890 mlrd.so'mga yaqin pul mablag'ini tashkil etgan. 2013-2023 yillar mobaynida barqaror o'sish natijasida transport xizmatlarining narxi ham 50 foizga o'sgan. Yuqoridagi rasmga ko'ra Toshkent shahri transport xizmatlaridan tushgan tushum 2012-yildan boshlab bir necha barobar o'sgan bo'lib, bunda hech bir yolda ko'rsatkichlar orasida o'sish farqlarisiz o'zgarish yuzaga kelmagan. Birinchidan, Toshkent shahrida avtomobillardan foydalanish darajasi emas balki avtomobillarning o'zi ko'paygan deb topilib, bunda jamoat transporti ham inobatga olingan. 2012-2023 yillar kesimida Toshkent shahri transport xizmatlaridan tushgan tushum nafaqat pul qiymatida, balki sifat jihatdan keskin o'zgarishlarni namoyon etdi. Xususan, Toshkent shahrida qo'shimcha metropoliten xizmati, shahar transporti vositalarining raqamlashtirilishi, ularning har qanday ob-havoda yo'lovchilarga qulaylik hamda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishi, shuningdek aholi turmush darajasini rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq choratadbirlarning amalga oshirilishi ko'lamida taraqqiy etganligini ko'rishimiz mumkin. Uning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish belgilangan natijaviylikka erishishni ta'minlashdan tashqari, tahlilining ishonchliligini oshiradi, shunga ko'ra quyida avtotransport xizmatining tashkiliy jihatdan baholashni amalga oshirish jihatlarini yoritdik.



2-rasm. Toshkent shahri transport xizmatlaridan tushgan tushum
(2013-2023 yy, mlrd. so'm)[5]

Toshkent shahar hokimligi mamlakatimizdagi bosh hokimlik idoralaridan biri sanalib, uning aholi turmush tarzining ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy hamda ta'lim masalalaridan tashqari oziq-ovqat, kommunal va transport xizmatini ko'rsatilishini tashkil etish va boshqarishni ham nazorat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.09.2016 yildagi PQ-2616-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshshahartransxizmat» uyushmasi hamda Toshkent shahar hokimligi yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2006 yil 18 yanvardagi PQ-262-sonli Qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi Qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent shahrida yo'lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2013 yil 9 oktyabrdagi PQ-2048-sonli qaroriga muvofiq hamda shahar yo'lovchi transporti tashkilotlarining daromadlarini oshirish orqali ularning moliyaviy-iqtisodiy holatini yanada mustahkamlash, yo'lovchilar uchun qulayliklar yaratish va yo'lovchilar tashish sifatini yaxshilash singari me'yoriy hujjatlar yuqorida ta'kidlangan jumlaning isbotidir.

Toshkent shahar hokimligi yo'lovchilarni tashish xizmati "Toshshahartransxizmat" uyushmasi faoliyatini nazorat qilsa-da, uning xizmatidan foydalanishda "Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish" DUKga murojaat etadi. Bu o'z navbatida uning tarkibidagi DUK bo'lib, uning tashkiliy-iqtisodiy faoliyati transport xizmatidan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari tasarrufidagi xizmat avtomobillariga yoqilg'i va moy quyish bilan ixtisoslashgan.

1-jadval


Mahalliy byudjetga davlat unitar korxonalar tomonidan sof foydani to'liqligicha o'tkazgan lider korxonalar va foyda qiymati
(2019-2023 yy, mln.so'm)[6]

№	Korxonalar nomi	Sof foyda (barcha yilning 1 yanvar holatiga)				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	"Yunusobod kichik sanoat zonasi" DUK	-15,1	525,7	672,4	1191,4	1381,3
2.	"Uchtepa kichik sanoat zonasi" DUK	-4,1	414,2	514,7	893,4	1055,8
3.	"Toshkent shahar hokimiyatining kapital qurilish boshqarmasi" DUK	-1347,6	362,2	972,4	1844,9	2236,0
4.	"Yakkasaroy kichik sanoat zonasini boshqarish direksiyasi" DUK	146,2	189,2	468,3	788,3	1051,6
5.	"Toshkent shahar hokimligi moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi" DUK	7,8	154,6	288,4	471,8	744,2
6.	"Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish" DUK	8,5	47,9	871,1	923,1	1057,1

O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar hokimining 18.05.2020 yildagi 75-F sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarining biznes-rejalarini qayta ko'rib chiqish va ular tomonidan Davlat byudjetiga dividend va ajratmalarni o'tkazishni tashkil etish masalalari haqida»gi Farmoyishiga binoan davlat unitar korxonalarining sof foydalari to'liqligicha mahalliy byudjetga o'tkazilgan.

Mazkur Farmoyishning ijrosini ta'minlashda davlat unitar korxonalar orasida "Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish" DUK ham o'rin egallagan bo'lib, 100 foiz davlat ulushi asosida 2019 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 8,5 mln.so'm sof foyda bilan balansga olingan korxonalar 2020 yilning 1 yanvar holatiga 47,9 mln.so'mni tashkil etgan. (1-jadval)

1-jadval ko'ra "Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish" DUK sining iqtisodiy asosiga doir Farmoyish orqali tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi restrukturizatsiya qilingan. Mazkur jadvalda 2020-yilning 1 yanvar holatiga eng yirik sof foyda egasi sanalgan DUKlar keltirilgan bo'lib, ularning o'z mablag'lari mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilishi bilan belgilangan. Dastavval "Yunusobod kichik sanoat zonasi" DUK eng yirik foyda keltirgan korxonalar sanalsa-da, 2019-yilda u 15,1 mln.so'm mablag' kamomadga uchragan. Bu kabi yo'qotish bilan balans olingan korxonalar sifatida "Uchtepa kichik sanoat zonasi" hamda "Toshkent shahar hokimiyatining kapital qurilish boshqarmasi" DUKlarni keltirish mumkin. Biroq, 2019 hamda 2020 yillarning boshida soy foydani kamomadsiz natijaviyligini ko'rsata olgan korxonalar orasida uchinchi o'rinda "avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish" DUK egallagan. Bu butunjahon Covid-19 Pandemiyasi hukmronligi, ya'ni og'ir iqtisodiy sharoit bilan bog'liq bo'lgan holatga qaramasdan, kamomad va zarar bilan ishlash natijasini ko'rsatmadi.



3-rasm. Toshkent shahar hokimligiga transport xizmatini ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[7]

2021-yilning 1 yanvar holatida sof foydaning o'sishi hamda byudjet tushumi yuzasidan korxonalar egalari sifatida eng yuqori mablag'ni "Toshkent shahar hokimiyatining kapital qurilish boshqarmasi"

DUK salkam milliard so‘m qiymatda keltirishga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi samarali natijaviylikni “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK namoyon etgan. 2022-yilning 1 yanvar holatida “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK "Toshkent shahar hokimiyatining kapital qurilish boshqarmasi" DUKdan 268,2 mln.so‘m hamda "Yunusobod kichik sanoat zonasi" DUKga qaraganda 921,8 mln.so‘m kamroq mablag‘ asosida sof foydani tashkil etgan korxonalar sifatida e’tirof etildi. Bu barqaror natijaviylik 2023-yilda ham kuzatiladi, sof foydaning o‘shir sur‘ati salmoqli bo‘lib, “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK mahalliy hokimiyat organiga byudjet tushumini amalga oshirgan unitar korxonalar orasida 3 o‘rinni egallab turibdi.

“Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK Toshkent shahar devonxonasiga iyerarxik bog‘langan bo‘lib, uning moliyaviy mustaqilligi o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishiga qaramasdan, sof foydasi Toshkent shahar hokimligiga o‘tkaziladi.

Biznes va moliyaviy rejalarning tasdiqlanishi ham Toshkent shahar hokimligi tomonidan amalga oshirilib, unda Toshkent shahar hokimligi buyurtmachi vazifasini ham o‘tashi kuzatiladi. Bu o‘z navbatida bir necha bosqichli xizmatlarni va xaridlarni amalga oshirishni anglatadi. “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUKning buyurtmachilari faqatgina Toshkent shahar hokimligi sanalmay, mahalliy hokimiyat organlarining Prokuratura, Vazirlik, Akademiya singari davlat boshqaruvi bo‘g‘inlariga transport xizmatini ko‘rsatishi bilan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarini olib boradi (3-rasm).

Shuni ham e’tirof etish lozimki, Toshkent shahar hokimligi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishini nazorat qilish hamda uni muqobillashtirish yuzasidan mas‘ul vakillardan sanalib, “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK tomonidan Toshkent shahar hokimligi huzuridagi “Obodonlashtirish bosh boshqarmasi” tasarrufidagi transport vositalariga ham xizmat ko‘rsatadi.

Toshkent shahrida muntazam obodonlashtirish ishlarini tashkil etish, uni boshqarishni takomillashtirish, shuningdek Toshkent shahar mahalliy byudjetining xarajatlarini maqbullashtirish maqsadida Toshkent shahar hokimligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi, Moliya vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining “Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi” hamda “Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Mustaqillik maydonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat unitar korxonalarini byudjet muassasalariga aylantirish, Toshkent shahar hokimligini ularning muassasi etib belgilash to‘g‘risidagi taklifi 2010-yil 11-noyabrda qo‘llab-quvvatlangan.[8] Uning hukumat obyektlariga xizmat ko‘rsatishning tashkiliy tuzilishi alohida ixtisosliklar yuzasidan tashkillashtirilib, unga ko‘ra asosan qurilish, irrigatsiya va melioratsiya, ta‘mirlash hamda ko‘kalamzorlashtirish, shuningdek, sanitar va chiqindilarni tozalash xizmatlarini amalga oshirish orqali muvofiqlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://gov.uz/oz/toshkent/pages/about/> Toshkent shahar hokimligi rasmiy veb sayti ma‘lumotlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.06.1997 yildagi 301-sonli “Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari apparati tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida” Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasining 02.09.1993 yildagi 913-XII-sonli “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni
4. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1207.xlsx
5. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1213.xlsx
6. Toshkent shahar hokimining 18.05.2020 yildagi 75-F sonli Farmoyishi, statsnet.co statistik ma‘lumotlar platformasi ma‘lumotlari <https://statsnet.co/companies/uz/58866104>
7. “Avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish” DUK ma‘lumotlari
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.11.2010 yildagi 251-sonli “Toshkent shahrini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

IPOTEKA KREDITI TUSHUNCHASI, IPOTEKA KREDITI BO'YICHA ILMIY NAZARIY QARASHLAR

A.Dj.Mardiyev, mustaqil izlanuvchi, Xalqaro Nordik Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada, ipoteka krediti tushunchasi va uning asosiy elementlari batafsil o'rganiladi. Ipoteka krediti ko'chmas mulk sotib olish uchun moliyaviy institutlar tomonidan beriladigan uzoq muddatli qarz bo'lib, uning asosiy elementlariga foiz stavkasi, muddat, asosiy summa va dastlabki to'lov kiradi. Shuningdek, ilmiy nazariy qarashlar orqali ipoteka kreditlarining moliyaviy stabilizatsiyaga, qarz oluvchilarning xulq-atvoriga, bozor risklariga va davlat tomonidan tartibga solinishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ipoteka bozorining samaradorligini oshirish va uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha muhim tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Ipoteka, huquqiy asoslar, **Konstitutsiya, fuqarolik kodeksi, bank faoliyati qonuni, normativ hujjatlar;**

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается понятие ипотечного кредита и его основные элементы. Ипотечный кредит — это долгосрочный долг, предоставляемый финансовыми учреждениями для покупки недвижимости, основные элементы которого включают процентную ставку, срок погашения, основную сумму и первоначальный взнос. Также с помощью научных теоретических соображений анализируется влияние ипотечных кредитов на финансовую стабилизацию, поведение заемщиков, рыночные риски и государственное регулирование. Результаты исследования дают важные рекомендации по повышению эффективности ипотечного рынка и улучшению жилищных условий.

Ключевые слова: ипотека, правовые основы, Конституция, Гражданский кодекс, Закон О банковской деятельности, нормативные акты;

Abstract. In this article, the concept of a mortgage loan and its main elements are studied in detail. A mortgage loan is a long-term loan issued by financial institutions for the purchase of real estate, the main elements of which include the interest rate, term, principal and initial payment. Also, through scientific theoretical views, the influence of mortgage loans on financial stabilization, the behavior of borrowers, market risks and state regulation is analyzed. The results of the study provide important recommendations for improving the efficiency of the mortgage market and improving housing conditions.

Keywords: mortgage, legal framework, Constitution, Civil Code, banking law, regulatory documents.

Kirish. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi, bank kreditlaridan maqbul tarzda foydalanish imkoniyatini yaratuvchi barqaror moliyaviy tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday moliyaviy tizimga ega mamlakatlar iqtisodiy xatarlarga bardoshli bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotga oson va tezroq erishadilar. Bank operatsiyalarining ajralmas qismi bo'lgan ipoteka kreditlari mamlakatda barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Aholini uy-joyga bo'lgan talabini qondirishda ipoteka kreditlari o'rni beqiyosdir. Ipoteka kredit ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan, to'lash majburiyatlariga ega bo'lgan kreditdir. Ipoteka kreditlash jarayonini tashkil etish, sotish va ularga xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadigan munosabatlarni amalga oshirishning yaxlit mexanizmi hisoblanadi.

Ipoteka krediti bir vaqtning o'zida ham kredit munosabatlarining alohida shakli hisoblanadi hamda bank kreditining turi hisoblanadi. Ipoteka krediti ipotekani rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlari ifodalaydi.

Ipoteka kreditini muomala jarayonini amalga oshiruvchi bitimning bir turi sifatida e'tirof etish mumkin. Ipoteka kreditining mohiyatini bu tarzda talqin etish uning huquqiy va texnik belgilariga asoslanadi va uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Ipoteka" atamasi birinchi marta qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi VI asrda taniqli islohotchi va siyosatchi Solon tomonidan kiritilgan. Sudxo'rlar va

badavlat fuqarolar tomonidan garov asosida qarz berish tizim avval ham mavjud bo'lgan, ammo ilgari qarz oluvchilarning o'zi garov predmeti bo'lib hisoblangan. Olgan qarzni to'lamagan taqdirda, u qarz kattaligiga qarab, ma'lum bir vaqtga qadar o'z kreditorining quliga aylangan. Ya'ni qarzdor zimmasidagi qarzni to'lash uchun qarz beruvchining qo'lida mehnat qilishga majbur bo'lgan. Ipoteka tizimi qadimdan sekin astalik bilan bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan bo'lsa, quldorlik tizimi yo'q bo'lganidan so'ng, bugungi kunga kelib, sotib olinayotgan, qurilayotgan yoki ta'mirlanayotgan (rekonstruksiya qilinayotgan) uy-joyning o'zi ipotekani garov predmeti sifatida qabul qilinmoqda.

1. Ipoteka krediti ta'rifi: Bu kredit turi qarz oluvchiga mulk sotib olish yoki qurish uchun uzoq muddatli qarz sifatida taqdim etiladi. Qarzning qaytarilishi uchun garov sifatida ko'chmas mulk qo'yiladi.

2. Ipoteka krediti jarayoni: Kredit olish uchun ariza berish, garov mulkini baholash, kredit shartlarini kelishish va shartnoma imzolash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy Nazariy Qarashlar

- ✓ Ipoteka kreditiga oid ilmiy nazariy qarashlar quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinadi:
- ✓ Moliyaviy nazariya: Ushbu nazariya asosida ipoteka krediti bozorining xususiyatlari, foiz stavkalari, risklarni baholash va boshqarish masalalari tahlil qilinadi.
- ✓ Iqtisodiy nazariya: Ipoteka kreditining iqtisodiyotga ta'siri, uy-joy bozori rivojlanishidagi roli va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganiladi.
- ✓ Yuridik nazariya: Ipoteka kreditining huquqiy asoslari, shartnomalar, garov va mulk huquqlari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

Ipoteka kreditlash turli davrlarda ham ahamiyatli bo'lgan, olimning fikriga ko'ra davlatning uy-joy siyosatini olib borishda ipoteka kreditini ancha qulay hisoblanadi. Mamlakatdagi uyga muhtoj bo'lgan aholini uy bilan ta'minlash, uy-joy qurish va ta'mirlash (rekonstruksiya qilish) qilish bilan bog'liq muammolarni yechimi hisoblanadi.

I.Luzin ipoteka kreditlari haqida quydagicha mulohaza yuritadi. Ipoteka kreditining boshqa kreditlarga nisbatan past foiz stavkalari bozorni asta-sekin jonlantirishga imkon beradi, chunki uy-joyga ega bo'lish istagi va ipoteka kreditlar olish osonligi hatto kambag'al oilalarni ham ko'chmas mulk "o'yiniga" jalb qiladi.

- Tadqiqot metodologiyasi. Olimlar orasida nafaqat ipoteka kreditlash jarayoni afzalliklari balki uning salbiy oqibatlari haqida ham qarashlar mavjud. Xususan O.Afanaseva o'z tadqiqotlarida, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar uchun qisqa muddatli kreditlar berish uzoq muddatli investitsion kreditlar berishga qaraganda afzal bo'lib, yuqori daromadlilikini va past risk darajasi bilan ajralib turadi. Davlatning investitsiya siyosatining va asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash va mamlakatning innovatsion ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash sohasidagi siyosatining mavjud emasligi loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy makroiqtisodiy omil deb hisoblaydi. O.Afanasevaning fikriga ko'ra uzoq muddatli kreditlarni bergandan ko'ra, qisqa muddatli kreditlarni yuqori foizda qisqa muddatga berishni ma'qullagan.

Rivojlangan mamlakat ipoteka tizimiga qaraydigan bo'lsak, ipoteka jarayoni rivojlangan bo'lib, samarali tizim va katta tajriba orttirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ipoteka kreditlash jarayoni takomillashtirish bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlar tomonida xam tadqiqotlar amalga oshirilgan.

- Tahlil va natijalar.

Moliyaviy Aspektlar

- Foiz stavkalari va risklar: Ipoteka kreditlarining foiz stavkalari moliyaviy bozorlardagi umumiy tendensiyalarga va markaziy bankning siyosatiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, past foiz stavkalari ipoteka kreditlarining arzonlashishiga olib keladi va bu, o'z navbatida, ko'proq odamlarning uy-joy sotib olishiga imkon yaratadi. Ammo, bu jarayonda risklarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki foiz stavkalarining o'zgarishi kreditlar qaytarilishidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

- Qarz oluvchilar va qarz beruvchilar uchun xavflar: Qarz oluvchilar uchun asosiy xavf – bu to'lov qobiliyati pasayishi. Qarz beruvchilar uchun esa kreditning qaytarilmaslik xavfi mavjud.

Shuning uchun, moliyaviy tahlilchilar kreditning xavfini oldindan baholash va boshqarish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqishadi.

Yuridik Aspektlar

- Kredit shartnomalari va garov: Ipoteka kreditlari bo'yicha yuridik tahlil shuni ko'rsatadiki, kredit shartnomalari va garov qo'yish huquqlari huquqiy jihatdan aniq tartibga solinishi kerak. Bu kreditlash jarayonida barcha ishtirokchilar uchun barqarorlik va himoya ta'minlaydi. Qonunchilikdagi o'zgarishlar kredit beruvchilar va oluvchilar uchun yangi imkoniyatlar va xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

- Huquqiy tartibga solish: Ipoteka kreditlari bo'yicha yuridik tartibga solish mexanizmlarining mavjudligi kreditlash jarayonining shaffofligini va xavfsizligini ta'minlaydi. Yuridik tahlillar ko'rsatdiki, qonunchilikning to'g'ri va adolatli amalga oshirilishi kredit shartnomalarining bajarilishini kafolatlaydi va sud muhokamalarini kamaytiradi.

+ Foiz stavkalari va risklarni boshqarish: Ipoteka kreditlarining muvaffaqiyatli boshqarilishi uchun foiz stavkalari va risklarni oldindan baholash zarur. Past foiz stavkalari kreditlarning arzonlashishiga olib keladi, ammo bu jarayon xavf bilan bog'liq.

+ Uy-joy bozori va iqtisodiyotga ta'sir: Ipoteka kreditlari uy-joy bozorini rivojlantirishda va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda katta rol o'ynaydi. Biroq, uy-joy narxlarining haddan tashqari o'sishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini takomillashtirish xususida turli mazmundagi nazariy qarashlar mavjud. Ammo ko'pchilik iqtisodchi olimlar banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini takomillashtirishning zaruriy shartlari sifatida ipoteka kreditlarining ikkilamchi bozorining mavjud bo'lishini, risklarni boshqarish tizimining rivojlanganligini va ipoteka kreditlarining resurs ta'minotini alohida e'tirof etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Алимардонов И.М. Ўзбекистонда ипотекали кредитлашни ривожлантириш истиқболлари. Иқ. ф.н. илм. дар. олиш учун тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент: БМА, 2009. – Б. 17.
- 2.Лапуть М.Г. Словарь – справочник менеджера. – М. “Ф и С”, 1996. –С. 172-173.
- 3.Нешиной А.С. Финансы и кредит. – М.: “Биржа и банки”, 2006. – С. 571.
4. Афанасьева О.Н. Состояние рынка проектного финансирования и факторы, сдерживающие его развития// Деньги и кредит. – Москва, 2014. - №2. – С. 37.
- 5.Zokirova, D. (2018). "O'zbekistonda ipoteka kreditlash tizimining rivojlanishi". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya institutining ilmiy maqolalar to'plami.
- 6.Habibov, R. (2022). "Ipoteka krediti: huquqiy asoslar va xalqaro tajriba". Toshkent: Toshkent Davlat Yuridik Universiteti nashriyoti.

UO'K 338.485(476)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

S. Matrizayev, talaba, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mintaqa, turizm, ziyorat turizmi, sayohat, infratuzilma, turistik jozibadorlik.

Аннотация. В статье проанализированы перспективы развития паломнического туризма в Республике Узбекистан. Разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на развитие паломнического туризма в нашей стране.

Ключевые слова: Регион, туризм, паломнический туризм, путешествия, инфраструктура, туристическая привлекательность.

Abstract. The article analyzes the prospects for the development of pilgrimage tourism in the Republic of Uzbekistan. Scientific proposals and recommendations have been developed aimed at the development of pilgrimage tourism in our country.

Key words: Region, tourism, pilgrimage tourism, travel, infrastructure, tourist attraction.

O'zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlarga yanada yuqori xizmat ko'rsatish, ularni mamlakatimizga ko'proq jalb qilish, viloyatlardagi barcha turizm infratuzilmasi obyektlarida xizmat ko'rsatishni tobora oshira borishga salmoqli hissa qo'shish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tufayli bugun bosh islohotlar "O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot Strategiyasini amalga oshirishga qaratilgandir[1]. "Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" vazifasi qo'yilgan. Ushbu vazifaning bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YaIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o'rnlari bilan ta'minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida yangi turistik xizmatlar assortimentini ko'paytirish, yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarni ko'paytirish, turistlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish tadbirlarini tashkil qilish, zamonaviy turizm infratuzilmasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Xususan, 2019-yil statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2019-yilda O'zbekistonga 6 million 748 ming 500 nafar sayyoh kelgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 5 million 346 ming 200 nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 5 million 232 ming 800 kishiga, 2023-yilga kelib 7 millionga yaqin turist tashrif buyurdi[2].

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida turizm eng serdaromad sohalardan biriga aylangan. Mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlashda ham uning o'ziga xos o'rni bor. Shu jihatdan ham, butun dunyo mamlakatlari mazkur sohani uzluksiz rivojlantirib kelmoqda.

Turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda, bunga turistik resurslaridan samarali foydalanishning yo'lga qo'yilganligi va uning barqaror rivojlanishini ta'minlab kelayotganligi tufayli jahon miqyosida turistlar soni oshib bormoqda. Xususan, mamlakatimizga turist sifatida tashrif buyuruvchilarning soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bu esa, O'zbekistonda turistik resurslardan samarali foydalanish, sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish, turistik resurslardan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Qolaversa, Respublikamizdagi boy tarixga ega qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar mavjudligi hududda ziyorat turizmini rivojlantirish orqali nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Turizm sohasini rivojlantirish uchun qadimiy obidalar va muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega yodgorliklar bilan bir qatorda, xalqimizning betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan «Sayohat va sayyohlik sanoatining iqtisodiy natijalari» bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda respublikamiz sayyohlik sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd etilganini ko'rishimiz mumkin. «Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar hisobiga xorijiy valyuta tushumini oshishiga, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi»[3]. Mutaxassislarning hisob- kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi.

Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan turizm turlaridan biri bo'lgan ziyorat turizmi mamlakatimiz Prezidentining ham e'tiboridan chetda qolgani yo'q. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3509- sonli Qarori asosida mamlakatimizda kirish turizmini, xususan, ziyorat turizmi asosida kirish turizmini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab bergan:

1. Ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash bo'limini tashkil etish;

2. Ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston to'g'risida Islom dini va boshqa jahon dinlarining madaniy-tarixiy va ilmiy-texnologik markazi sifatida axborot materiallarini targ'ib qilish;

3. O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;


4. Xorijlik turistlar, jumladan, ziyorat qilish maqsadida kelayotgan turistlar uchun viza va ro'yxatdan o'tish tartibotlarini bosqichma-bosqich soddalashtirish[3].

Respublikamizda olib borilgan ko'pgina qurilish-bunyodkorlik natijasida turistik resurslarning soni yanada ko'paydi va ularning ahvoli ancha yaxshilandi. Bu esa turizm sohasining rivojlanishida, ayniqsa ziyorat turizmining barqaror rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda.

Ayniqsa, musulmon xalqlarning tez sur'atlarda ko'payib borishi hamda ularning daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi ziyorat turizmning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuning uchun islom shariatiga mos sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizmi rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Malayziya kabi musulmon mamlakatlarida halol standartlari asosida ziyorat turizmini ommalashtirish, dunyo musulmon davlatlari orasida keng targ'ib qilish uchun tegishli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Ispaniya va boshqa qator davlatlarida ham halol turizm standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda.

2030 yilga kelib musulmonlar dunyo aholisining 25% ni tashkil qilishi hamda jahonda eng tez o'sayotgan diniy jamoaga aylanishi kutilmoqda. Ba'zi musulmon mamlakatlari bozorlarida xarid qobiliyati o'sib borishi va yangi xaridorlar sonining ortishi tufayli moddiy jihatdan farovon bo'lgan o'rta sinf shakllanmoqda. Buning natijasida xalqaro turizmga musulmon sayyohlar ulushi ortib borishiga xizmat qiladi. Musulmon sayyohlarning aksariyati asosiy aholisi musulmon bo'lgan mamlakatlarga, jumladan ularning 60% Osiyoga (Yaqin Sharq bilan birga) sayohat qilishadi. O'z navbatida Germaniya musulmon sayohatchilar uchun Yevropadagi eng ommalashgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahonda ziyorat turizmning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega (1-rasm).



1-rasm. Ziyorat turizmining asosiy yo'nalishlari

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Birinchi yo'nalishda, ziyoratchilar o'zlarining ma'naviy dunyosini boyitish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va diniy bilimlarini oshirish bilan bog'liq. Ko'pgina mamlakatlardagi diniy binolar, bir vaqtning o'zida ularning asosiy diqqatga sazovor joylari bo'lganligi sababli, diqqatga sazovor joylar ziyorat turizmining mashhurligini yaqqol namoyon qiladi.

Ikkinchi turdagi sayohatlar, ehtimol, ma'naviy motivlar asosida sayohat qiladigan odamlarga mos keladi.

Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilma obyektlari – mehmonxonalar tizimini rivojlantirish, mehmonxonalar, aeroport va vokzallarda mehmonlarni kutish zallarining ziyorat turizmi standartlariga javob berishi masalalarini hal etish muhimdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish omillaridan bo'lgan axborot resurslarini jamlash, mamlakatda mavjud ma'naviy va moddiy boyliklar tavsifini umumlashtirish, ziyorat turizmi bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi integratsion elektron platformani yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli, mamlakatimizda ham turizmning barcha turlari, xususan ziyorat turizmining ham virtual qiyofasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, hududlarning turistik jozibadorligini oshirish hamda turistik salohiyatini dunyo bo'yicha keng targ'ib qilish, turistlarning buyurtmali turlarga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal qondirish imkoniyatini ham yaratadi.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Mamlakatimizdagi ziyorat turizmi resurslarining salohiyatini o'rganib ulardagi mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish;
- Ziyorat turizmi obyektlaridagi kerakli infratuzilmani shakllantirish;
- Ziyoratchilarga ko'rsatiladigan (joylashtirish, ovqatlanish, transport) xizmatlar sifatini oshirish;
- Ma'lum bir toifalarga tegishli bo'lgan halol muvofiqlik sertifikatiga qo'yilgan talablar asosida xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etish va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirish turli din va aholi qatlamlari vakillarini nafaqat ziyorat, balki ular tashrif buyurgan joylarning tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Qolaversa yurtimizning turizm salohiyatidan to'laonli foydalanish, sohada yangi texnologiyalarni qo'llash, doimiy turistlar oqimini ta'minlash, yangi turdagi xizmat turlarining vujudga kelishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi malumotlari
3. Eurasian Journal Of Academic Research Innovative Academy Research Support Center O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda malayziya islom turizmi tajribasidan foydalanish. UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3509- sonli Qarori

UO'K 338.124.4

OSIYO MAMLAKATLARI KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISH ISTIQBOLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*S.S. Mayliyeva, o'qituvchi, Urganch Ranch texnologiya universiteti, mustaqil tadqiqotchi,
Urganch davlat universiteti, Urganch.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Osiyo mamlakatlarida olib borilgan tajribalarning O'zbekiston Respublikasida qo'llanilish istiqbollari va buning natijasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarining oshib borishi jadval ma'lumotlarida berilgan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, aholi jon boshiga umumiy daromadlar, kambag'allikni qisqartirishning Xitoy tajribasi, qashshoqlik.

Аннотация. В данной статье в табличных данных представлены перспективы применения экспериментов, проведенных в азиатских странах, в Республике Узбекистан и увеличения совокупного дохода на душу населения в результате.

Ключевые слова: Бедность, совокупный доход на душу населения, опыт Китая по сокращению бедности, бедность.


Abstract. In this article, the prospects of the application of the experiments carried out in Asian countries in the Republic of Uzbekistan and the increase of the total income per capita as a result are given in table data.

Key words: Poverty, total income per capita, China's experience of poverty reduction, poverty.


Kirish. Bugungi kunga kelib, kambag'allik jahon hamjamiyatining asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro mehnat federatsiyasining yillik hisobotida ta'kidlanganidek, dunyo bo'ylab taxminan 1,1 milliard kishi qashshoqlikda yashaydi. Shuning uchun ham barcha davlatlardagi kabi yurtimizda ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga biz Xitoy, Rossiya va Qozog'iston Respublikalarining kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amaliyotini o'rganishimiz va uni yurtimizda joriy qilish orqali davlatning maqsadli dasturlari samaradorligini ya'ni kam ta'minlanganlar sonining qisqarishini ta'minlanishiga kerak bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Kambag'allik darajasi bo'yicha bir qancha iqtisodchi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, klassik iqtisodchi olimlardan A Smit, T Maltus, JS Milp, K Marks, Temirchi va boshqalar zamonaviy iqtisodchi olimlardan esa B Ananda, A Atkinson, U Beverij, Ch Buta, S Rowntree, A Sen, P Townsend, P Elcock, J Foster kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.[1] Rossiyada qashshoqlik, daromadlar tengsizligi va turmush darajasini o'rganishga katta hissa qo'shgan mahalliy olimlar orasida A M Babita, V N Bobkova, N D Vavilina, N A Volgina, V M Zhrebina, M A Mojina, N M Rimayevskaya, A I Shcherbakovalar ilmiy ishlarini olib borishgan. O'zbekistonda esa aholi turmush darajasi va daromadlari, kambag'allikni qisqartirish, turmush sifati va uni baholash bo'yicha Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Bakiyeva I.A., Qurbonov S.P, Abduramanov X.X., Arabov N.U, Xolmuxamedov M. M, Zokirova N.Q, Abakumova N.F, Podovalova R.Ya, Vaxobov A.B, Djumanova R.F, Dulyasova M.B lar tadqiqot ishlarini olib borishgan. [2]

Tahlil va natijalar. Dunyo mamlakatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlatning ijtimoiy himoya uchun ajratadigan xarajatlari ulushi turlicha bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilsak bo'ladi. Jumladan, AQShda – 13 %, Kanada va Yangi Zelandiyada – 15 % va Yaponiyada taxminan 12 % va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa xarajatlar ulushi 27,3 % ni tashkil qiladi. [3]



1-diagramma. 2022-yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar (% hisobida)
Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi




2-diagramma. 2023-yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar (% hisobida)
Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mamlakatimizda esa, bugungi kunga kelib kambag'allikni qisqartirishda Xitoy tajribasidan foydalanilmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Kambag'allikni kamaytirishda nima uchun Xitoy

tajribasidan foydalanmoqchimiz? E'tibor qaratadigan bo'lsak, 1978 yilda Xitoy aholisining 97,5 foizi kambag'al bo'lgan. [4] 2019 yilga kelib esa kambag'allar ulushi 0,4 foizga tushgan, 2021 yilda esa umuman kambag'al qolmagan. Kambag'allikni tugatishning Xitoy usulida ikki omil asosiy rol o'ynagan. Qishloq xo'jaligida 1 foiz o'sish qishloqlarda kambag'allikni 1,4 foiz qisqartira boshlagan. Kambag'allikka qarshi kurashish strategiyasi esa to'rt bosqichni bosib o'tgan. Strategiyaning birinchi bosqichida mavjud 2100 ta hudud chuqur tahlil qilingan va ulardan 700 tasi eng kambag'al hududlar ekani aniqlangan. Aynan shu kambag'al hududlarga alohida e'tibor qaratilgan. Keyingi ikki bosqichda umummilliy yondashuvlardan hududiy va mahalliy (hudud va qishloq) strategiyalariga o'tilgan. To'rtinchi bosqichda esa bevosita kambag'al uy xo'jaliklari bilan maxsus shug'ullanilgan. Bir so'z bilan aytganda, Xitoyda kambag'allikka qarshi kurash umumxalq harakatiga aylantirilgan. Xitoyning ana shunday ilg'or tajribasi asosida bizning mamlakatimizda ham kambag'allikni kamaytirish bo'yicha 18 yo'nalishda manzilli loyiha tayyorlandi. Ular yordamida kambag'allikni kamaytirish bo'yicha umumxalq harakatining yangi bosqichida Xitoy tajribasi asosida har bir viloyatda kambag'allikdan chiqarish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Bunda kambag'allik yuqori bo'lgan tumanlarda yo'l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga alohida e'tibor qaratilishi rejalashtirilgan.

Mana shu kabi ilg'or chora tadbirlarning samarali natijasi o'laroq, mamlakatimizdagi aholi jon boshiga umumiy daromadlarning hissasi yildan yilga oshib bormoqda. Buni quyidagi diagrammalar ma'lumotlaridan bilib olishimiz mumkin bo'ladi.[5]

Ushbu 1-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga daromadlarning foiz hisobidagi ulushining yuqori ko'rsatkichlari 15 % ko'rsatkich bilan 1-o'rinni Toshkent shahri, 11 % ko'rsatkich bilan Navoiy viloyati 2-o'rinni, 8 % ko'rsatkich bilan esa Buxoro viloyati 3-o'rinni egallab turibdi. Keyingi 4-o'rinni 7 % ko'rsatkich bilan Xorazm viloyati egallab turibdi. Eng oxirgi o'rinlarda esa, 5 % ko'rsatkichlar bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi 14-o'rinni, undan oldingi 13-o'rin va 12-o'rinlarda Farg'ona viloyati va Namangan viloyatlari egallab turibdi. Keyingi 2-diagramma ma'lumotlariga ko'ra esa 2023-yilda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga daromadlarning foiz hisobidagi ulushining yuqori ko'rsatkichlari esa 16 % ko'rsatkich bilan 1-o'rinni yana Toshkent shahri, 11 % ko'rsatkich bilan Navoiy viloyati 2-o'rinni, 8 % ko'rsatkich bilan esa Buxoro viloyati 3-o'rinni egallab turibdi. Keyingi 4-o'rinni 7 % ko'rsatkich bilan Toshkent viloyati egallab turibdi. Eng oxirgi o'rinlarda esa, 5 % ko'rsatkichlar bilan Namangan viloyati 14-o'rinni, undan oldingi 13-o'rin va 12-o'rinlarda Surxondaryo viloyati va Farg'ona viloyatlari egallab turibdi.



3-diagramma. Xorazm viloyatidagi 2022-2023 yillardagi aholi jon boshiga umumiy daromadlari
Manba: Xorazm statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ushbu 3-diagramma ma'lumotlarga ko'ra Xorazm viloyatidagi aholi jon boshiga umumiy daromadlari oshganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ya'ni, Xorazm viloyatida 2022-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlari 16764,2 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 18674,9 ming so'mni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichning oshishi natijasida aholining farovonligi ham oshib boradi. Bu kabi ko'rsatkichlarning ijobiy siljishlarining ortida albatta, ildam tahlil qilingan va amaliyotga joriy qilingan iqtisodiy chora-tadbirlarning natijasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan aholi ulushini minimallashtirishga qaratilgan xorijiy tajribani tahlil qilish va baholash asosida zarur resurslar bilan qo'llab-quvvatlanadigan mintaqaviy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarurati bilan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha dasturiy maqsadli yondashuvlarni olib borish katta ahamiyatga ega. Davlat siyosati kam ta'minlangan aholining yanada o'sishining oldini olishga, mehnat salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ya'ni, jamiyatni rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini tashkil etish kerak bo'ladi. Bularning barchasi kambag'allikning pasayishiga va buning natijasida esa aholi farovonligining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.M. Ziyayev, Sh.T. Israilova "Turmush farovonligi nazariyasi" T.2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
3. O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va Statistika agentligi ma'lumotlari
4. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi
5. www.stat.uz

JAHON MEHMONXONA BRENDLARI VA ULARDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

L.Mirzayeva, tadqiqotchi, "Khiva Farovon Hotel" menejeri, Xiva

Annotatsiya. Maqolada jahon mehmonxona brendlari va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu asosda O'zbekistonda "Farovon" milliy mehmonxona xo'jaligi brendini yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mintaqa, mehmonxona, turizm, xizmat ko'rsatish, brend, mehmondo'stlik industriyasi, milliy mehmonxona brendi.

Аннотация. В статье анализируются мировые гостиничные бренды и возможности их использования в Узбекистане. На этой основе были разработаны предложения по созданию национального бренда гостиничной индустрии «Фаровон» в Узбекистане.

Ключевые слова: Регион, отель, туризм, сервис, бренд, индустрия гостеприимства, национальный гостиничный бренд.

Abstract. The article analyzes world hotel brands and the possibilities of using them in Uzbekistan. On this basis, proposals were developed for the creation of the national hotel industry brand "Farovon" in Uzbekistan.

Key words: Region, hotel, tourism, service, brand, hospitality industry, national hotel brand.

Bugungi kunda turizmning ilg'or tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarori qabul qilinib, ushbu qarorning 4b-ilovasida 2023-yilda turizm sohasida o'tkaziladigan madaniy-ko'ngilochar tadbirlar bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Unda "O'zbekiston tashrif qog'ozi"ni ishlab chiqib, turizm brendini yangilash hamda AQSh, Xitoy, Arab davlatlari, Yaponiya, Koreya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Malayziya, Rossiya, Qozog'iston kabi mamlakatlarning yirik shaharlari gavjum ko'chalaridagi LED ekranlarga "O'zbekiston turizm brendi"ga oid ma'lumotlarni joylashtirish masalalari ilgari surilgan [1]. Shu asosda mamlakatimizdagi mehmonxonalar ushbu brend xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirib, o'zining shaxsiy brendiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Avvalo, brendni tushunish mahsulot yoki xizmatning hissiy va oqilona xususiyatlariga qaratilishi mumkin bo'lgan iste'molchi kutishlarini anglatadi. Xalqaro mehmonxona biznesida esa uning yaratuvchilari ramz va shior kabi belgilarga e'tibor qaratishlari asosida kelajakdagi mehmonlar ehtiyojlarini qondira oladigan qadriyatlar zanjirini yaratishga intiladilar va bu esa brend logotipini aks ettiradi. Brendning muhim unsurlari iste'molchilar kutishlarini aniqlaydigan barcha tafsilotlar, ya'ni rang, shior va mehmonxona korxonasi missiyasi bilan belgilanadi.

Brend - maqsadli iste'molchiga funksional va hissiy va'dalarning izchil to'plamidir. Ular noyob, mazmunli va taqlid qilishga asoslanib, mijozlar ehtiyojlariga javob beradi. Brendni iste'molchi tasavvuridagi hislar to'plami sifatida tavsiflash mumkin [2]. O'z navbatida, brend mutaxassislariga iste'molchi uchun assotsiatsiyalar va tasvirlarning zarur va qiziqarli bo'lishini prognoz qilish imkonini beradi hamda jahon iqtisodiy bozorida ilgari e'lon qilinmagan noyob mahsulotni yaratadi [3].

Mehmonxona brendini har qanday sohada yaratish mumkin. Bundan tashqari, xo'jalik brendiga faqat mehmonxonada mehmonxona biznesini taklif etgan mehmonxona mahsuloti, o'z-o'zidan mazkur hudud, mamlakat va dam olish maskani aylanib bormoqda. Joylashtirish, aniqlashtirish, bog'lash va va'dalar – mehmonxona xo'jaligi brendi strategiyasining asosini tashkil etadi" [4]. Mehmonxona brendining izchilligi reklama va marketing vositalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda ulardan foydalanishda kuchli rol o'ynaydi. Aslida, mehmonxona brendi marketing va reklama chorrahasida mavjud bo'ladi.

Brendni yaratish asosida mehmonxona savdo belgisiga ega bo'ladi. Keyinchalik, ushbu belgini mehmonxona mahsulotiga bog'lash muammosi hal qilinadi. Bu iste'molchini tovar belgisi bilan tanishtirish va tovar belgisini yaratish darajasiga o'tishini anglatadi. Mazkur paytda iste'molchi ongida mehmonxona mahsuloti xususiyatlari sifatida tovar belgisi namoyon bo'ladi. Brend bilan uchrashganda hissiy holat shakllanadi.

Iste'molchi brend ortida mehmonxona mahsuloti xususiyatlarini ko'radi. Brend ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Bu esa oqilona yondashuvga asoslangan iste'molchilar afzalliklari yaratiladi. Mehmonxona brendi va ushbu jarayonning asosi brendga bo'ysunishi va iste'molchining ijobiy his-tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat bo'ladi. So'ngra, shu orqali reklama materiallarini yaratish va tarqatish tizimi quriladi.

Mehmondo'stlik sanoatida brendingning asosiy vazifasi iste'molchilarda uning savdo belgisi bilan bog'liq ijobiy xulosalarni shakllantirish va yanada rivojlantirishdan iborat. Mehmondo'stlik tashkilotlari brendi alohida ma'noga ega bo'lib, u ratsional va emotsional unsurlarni o'z ichiga olib, korxonaning moddiy va nomoddiy qiymati orqali ifoda etiladi [5]. Mehmonxona brendlari to'liq bosh kompaniyaga tegishli bo'lgan (masalan, Hilton, Kempinski, Radisson, Swissôtel) yoki mehmonxonalar brend standartlariga (masalan, Best Western) mos kelishini ta'minlash zarur bo'lgan xususiy mulkdorlarga franchayza berilgan mehmonxonalar yagona zanjirini tashkil qiladi.

2023-yilda jahon bo'yicha mehmonxona brendlari yirik mehmonxonalarining faoliyati natijalari bilan belgilanadi. Shu yilda xonalar fondi hajmini tartiblash bo'yicha dunyodagi eng mashhur mehmonxona brendlari shakllandi [6]:

1. Marriott International. Marriott International (shtab-kvartirasi AQShda joylashgan) brendi soni 2023-yil boshida xonalari soni 1502513 tani va tarmoq obyektlari soni esa 8484 tani tashkil etadi.

2. Jin Jiang International. Jin Jiang International (bosh qarorgohi Xitoyda joylashgan) 2023-yil boshida xonalari soni 1240507 tani va tarmoq obyektlari soni esa 11959 ta tashkil etgan. Ushbu brend 20 dan ortiq brendlarni o'z ichiga oladi: Jinjiang Hotels, Peace Hotel, Jinjiang Inns, Radisson Hotel, Radisson Collection, Radisson Blu, Radisson, Radisson RED, Radisson Individuals, Park Plaza, Park Inn by Radisson va boshqalar shular jumlasidandir.

3. Hilton Worldwide. Hilton Worldwide (shtab-kvartirasi AQShda joylashgan): 2023-yil boshida xonalari soni 1113527 tani va tarmoq obyektlari soni 7165 tani tashkil etadi. 17 ta mehmonxona brendlariga egalik qiladi. Xususan, Waldorf Astoria, LXR Hotels & Resorts, CONRAD, CANOPY, SIGNIA, Hilton Hotels & Resorts va boshqalar shularga taalluqlidir.

4. InterContinental Hotel Group. InterContinental Hotel Group (bosh qarorgohi Buyuk Britaniyada joylashgan): 2023-yil boshida 902805 ta xona va 6164 ta tarmoq obyektlariga ega

bo'lgan. Tarmoqda 18 ta mehmonxona brendlari mavjud: Six Senses, Regent Hotels and Resorts, InterContinental Hotels & Resorts, Vignette Collection, Kimpton Hotels & Restaurants, Hotel Indigo, voco, HUALUXE, Crowne Plaza Hotels & Resorts va boshqalar.

5. Wyndham Hotels & Resorts. Wyndham Hotels & Resorts (shtab-kvartirasi AQShda joylashgan): 2023-yil boshida 842510 ta xona va 9280 ta mehmonxona tarmog'iga ega bo'lgan. Mehmonxona brendlari 23 tani tashkil etib, Registry Collection, Wyndham Grand, Dolce Hotels and Resorts, Esplendor, Dazzler, Wyndham Hotels and Resorts, Vena House, TRYP by Wyndham, Wyndham Alltra, Ramada, Microtel Inn & Suites, Days Inn, Super 8, Howard Johnson, Travelodge va boshqalar shular jumlasidandir.

6. Accor. Accor (bosh qarorgohi Fransiyada joylashgan): 2023-yil boshida xonalari soni 802269 taga va tarmoq obyektlari soni esa 5300 tani tashkil etgan. 39 ta mehmonxona brendlarini o'z ichiga oladi: Emblems Collection, Delano, Faena, Savoy, Fairmont Hotels and Resorts, Morgans Originals, Orient Express va boshqalar shularga tegishlidir.

7. H World Group. H World Group (bosh qarorgohi Xitoyda joylashgan): 2023-yil boshida xonalari soni 724141 tani va tarmoq obyektlari soni sa 8176 tani tashkil etgan. Hi Inn, Elan Hotel, Han Ting Hotel, Ji Hotel, Starway Hotel, Orange Hotel, Crystal Orange Hotel, Madison Hotel va boshqalarni o'z ichiga olgan 20 dan ortiq mehmonxona brendlariga ega.

8. Choice Hotels. Choice Hotels (shtab-kvartirasi AQShda joylashgan): 2023-yil boshida 627804 ta xonaga va 7500 ta mehmonxona tarmog'iga ega bo'lgan. Mehmonxona brendlari 15 ta bo'lib, ularga Comfort Hotels, Cambria Hotels, Ascend Hotel Collection, Quality Inn, Sleep Inn, Clarion, Clarion Pointe® va boshqalar kiradi.

9. BTG Hotels. BTG mehmonxonalari (bosh qarorgohi Xitoyda joylashgan): 2023-yil boshida 465829 ta xona va 5916 ta mehmonxona tarmog'iga ega bo'lgan. 17 ta mehmonxona brendlariga egalik qiladi, shu jumladan BTG, Shindom, Ykinns va boshqalar shularga kiradi.

10. BWH. BWH (shtab-kvartirasi AQShda joylashgan): 2023-yil boshida xonalari soni 343220 taga va tarmoq obyektlari soni esa 4300 taga teng bo'lgan. Tarmoq 19 ta mehmonxona brendlariga egalik qiladi: WorldHotels Luxury, WorldHotels Elite, WorldHotels Distinctive, Best Western, Aiden, Sadie, bw Premier Collection va bw Signature Collection, SureStay Collection va boshqalar shularga xosdir.

Darhaqiqat, jahon mehmonxona brendlari jahon mamlakatlarida mashhur bo'lib, ularning logotiplari ishlab chiqilgan (1-rasm).

1 Marriott International



2 Jin Jiang International



3 Hilton Worldwide



4 InterContinental Hotel Group



5 Wyndham Hotels & Resorts
WYNDHAM
HOTELS & RESORTS

6 Accor



7 H World Group



8 Choice Hotels



9 BTG Hotels



10 BWH



1-rasm. Jahondagi Top-10 mehmonxonalar brendlarining logotiplari

Manba: Muallif ishlanmasi

Ushbu rasmda yuqorida tahlil qilingan Top-10 mehmonxonalarining brendlari keltirilgan. Ushbu brendlarga asoslanib, mehmonxonalar o'z brendlarini ishlab chiqishlari lozim bo'ladi. Chunki, xalqaro mehmonxonalar korxonalarini brendini ilgari surish mehmonxonalar xizmatlarini ko'rsatishni yuqori darajada va zamonaviylik timsoli asosida tashkil etishga talablar qo'yilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bizning Khiva Farovon Hotel milliy mehmonxonalar brendini dunyoga tanitish borasida quydagilarga etibor berish kerak.

- milliy madaniyat va an'analarni aks ettiruvchi kontseptsiyani aniqlash;
- xonalarni bezashda an'anaviy naqsh va motiflardan foydalanish;
- mahalliy taomlar va ichimliklarni mehmonxonalar menyuiga kiritish;
- xodimlarning kiyimlari va xalqaro standartlardan chetga chiqmagan holda sharqona milliy xizmat ko'rsatish joriy qilinishi bilan belgilash mumkin.

Bundan tashqari, bizning milliy mehmonxonalar brendida brend identifikatorini yaratish uchun logotip, rang sxemasi, shior kabi elementlarga e'tibor qaratilgan. Shunday qilib, mijozlar ongida brendning kuchli o'ziga xosligi bilan shakllanadi (2-rasm).



2-rasm. Khiva Farovon Hotel logotipi

Manba: <https://farovonkhiva.uz>

Va nihoyat, brendni raqamli marketing strategiyalari bilan targ'ib qilish va maqsadli auditoriyaga ijtimoiy media platformalari orqali keng yoritishga harakat qilish asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa shuki, mehmonxonalar brendi o'zining namunaviy timsoli va o'ziga xosligini aks ettiradi. Shundan kelib chiqib, jahon mehmonxonalar brendlaridan O'zbekistonda samarali foydalanish uchun mehmonxonalar xizmatlarini ko'rsatish va xizmat ko'rsatishning yangi konsepsiyasidan foydalanish va mashhur mehmonxonalar tarmoqlarining turli vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, brendni tan olish omillaridan samarali foydalanish lozim. Natijada, mehmonlar ehtiyojlarini qondirishga erishiladi. Bu esa mehmonlarga o'z qiziqishlariga asoslangan holda yana qaytib kelishlariga imkon beradi hamda o'z do'stlari va qarindoshlariga tavsiya qiladi. Hamda, mehmonxonalar brendingini savdo hajmining barqarorligini ta'minlash va yangi bozorlarni rivojlantirish jarayonini osonlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qaroriga 4b-ilovasi. Manba: <https://lex.uz/docs/6456786>
2. <https://tourism-book.com/pbooks/book-37/ru/chapter-1857/>
3. Никольская Е.Ю. Основы менеджмента и управление персоналом в индустрии гостеприимства. / Е.Ю.Никольская, Л.В.Семенова. – Москва: Общество с ограниченной ответственностью «Издательство «КноРус», 2020. - 226 с.
4. Тимошенко З.И., Муниев Г.Б., Дышлевова В.П. Маркетинг гостинично-ресторанного бизнеса 2011-2017 tourism-book.com. [Электронный ресурс]. <https://tourism-book.com/pbooks/book-37/ru/>
5. Shodiyev R.H., Umirova D.S., Xudayberganov D.T., Adilova Z.Dj. Xalqaro mehmondo'stlik menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot uyi", 2021. - 100 b.
6. <https://bnovo.ru/blog/top-10-global-hotel-chains-2023/>

IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH SALOHIYATIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

O.T. Qurbanova, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish salohiyatidan samarali foydalanish zaruriyati va xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqobatbardoshlik, xizmat ko'rsatish, salohiyat, xizmat ko'rsatish salohiyati.

Аннотация. В данной статье освещаются необходимость и особенности эффективного использования сервисного потенциала в обеспечении конкурентоспособности экономики.

Ключевые слова: Конкурентоспособность, сервис, мощность, сервисная мощность.

Abstract. This article highlights the need and features of effective use of service potential in ensuring the competitiveness of the economy.

Key words. Competitiveness, service, capacity, service capacity.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash muhim masala bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun har bir iqtisodiy tarmoqning salohiyatini oshirish lozim bo'ladi. Bu borada mamlakatimizda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qatoriga kiradi. Xususan, Yangi O'zbekistonda xizmat turlaridan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Taraqqiyot strategiyasining 28-maqsadida mamlakatimiz mintaqalarida xizmat turlari salohiyatini oshirish uchun "Turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 mlrd. AQSh dollariga yetkazish" [1] lozim, deb ta'kidlab berilgan. Shunday ekan, O'zbekistonda xizmat turlaridan samarali foydalanish ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun mintaqa raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish salohiyatidan samarali foydalanishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish salohiyatidan foydalanish bevosita xizmatlar sohasiga bog'liqdir. Avvalo, xizmatlar ko'pincha mahsulot iste'moli uchun zarur bo'ladi. Shu bois, xizmatlar sohasini bir-birini to'ldiruvchi sektor, infratuzilma xizmatlari esa qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishni o'rnini bosuvchi emas, uni kirituvchisi sifatida qaraladi. Xizmat ko'rsatishning taraqqiyoti bevosita korxonalar salohiyatini oshirishga xizmat qilishi lozim. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichlar tizimi bilan baholanishi kerak [2]. Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy faoliyati iqtisodiy salohiyatni oshirishga imkon berib, bevosita xizmat ko'rsatish uchun zaruriy omil bo'lib ham qaraladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi turli siyosiy tizimlar, iqtisodiy rivojlanish darajalari, hududi, aholisi va ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga ega bo'lgan jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallaydi [3]. Xizmat ko'rsatishning iqtisodiy salohiyati turli yondashuvlarga asoslanadi. Mavjud yondashuvga ko'ra resurs, samaradorlik va maqsadli ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy salohiyatni baholash mavjud resurslar tizimidan samarali foydalanish asosida korxonaning o'z maqsadlariga erishish qobiliyatini aniqlashga imkon beradi [4]. Ushbu yondashuvlar bevosita xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar samaradorligi bevosita xizmat ko'rsatish korxonalarini xodimlarining shaxsiy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Mazkur salohiyat insonning jismoniy va ma'naviy xususiyatlari, uning faoliyati, ijodiy harakati va o'zini anglashga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi [5]. Shunga asosan, salohiyat quyidagi turlarga ajratiladi:

- shaxsiy salohiyat psixofiziologik (asosiy), mehnat (faoliyat) va ijodiy (innovatsion) salohiyat kabi qismlardan iborat bo'ladi.

- psixofiziologik salohiyat tarkibi tug'ma moyillik, asabiy faoliyat turi, temperament, hissiy-ixtiyoriy sohaning xususiyatlari (o'z-o'zini boshqarish qobiliyati), xarakter va individual psixologik

xususiyatlar bilan belgilanadi. Ular faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun shart bo'lib xizmat qiladi. Ushbu salohiyat insonning aqliy va jismoniy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

- mehnat salohiyati mehnatga qobiliyat va tayyorlik, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, mehnat motivlari, kasbiy tajriba, mehnat jamoasi bilan o'z-o'zini aniqlash darajasi asosidagi tajriba, mahorat va mehnat motivatsiyasi yig'indisidir.

- ijodiy yoki innovatsion salohiyat hayotiy qadriyatlar, qiziqishlar doirasi, aql darajasi, ijodiy qobiliyat, yetakchilik fazilatlarini va o'z-o'zini anglash zarurati bilan shakllanadi.

Iqtisodiyotni raqobatlashuvi sharoitida xizmatlar ko'rsatishning intensivlashuvi ushbu jarayonda mehnatning kapitalga almashinuv jarayoni jadallashiga olib keladi. Natijada, xizmatlar sohasidagi iqtisodiy salohiyat tarkibi turli nomoddiy unsurlarga ega bo'ladi. Bu orqali bozor, innovatsion va intellektual salohiyat turlarining ahamiyati oshib boradi. Iqtisodiy salohiyat tarkibiga kiruvchi unsurlar ahamiyatining o'rin almashinuvini bevosita iqtisodiy o'sish omillar o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi [6].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi madaniy va maishiy, xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan yangi turdagi texnik vositalarni ishlab chiqarishni tezlashtirib, zamonaviy texnika va texnologiyalarga nisbatan bo'lgan talabni oshirdi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy hisoblash va axborot texnologiyalarining umumiy ishlab chiqarish hajmining 12 foizi sog'liqni saqlash sohasiga, qariyb 50 foizi moliya-bank sohasi va biznes xizmatlari sohasiga yo'naltiriladi. To'liq *xizmat ko'rsatish salohiyati* ishlab chiqaruvchilar tomonidan xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari hajmi sifatida qaraladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy salohiyat bilan birga resurs salohiyati jamiyatning iqtisodiy va mehnat salohiyatining ajralmas qismi bo'lib, uning milliy boyligi ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida alohida o'rinni egallaydi. Unga asosan, xizmat ko'rsatish sohasida ishtirok etadigan resurslar miqdori ijtimoiy takror ishlab chiqarishda iqtisodiy aloqalarning rivojlanish dinamikasi va tarmoqlararo moddiy va moliyaviy oqimlarga ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohasi resurslar harakatini hisobga olishda iste'mol va jamg'arma, shaxsiy va ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish o'rtasidagi nisbatlarga rioya qilish lozim. Hamda xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat resurslarini hisobga olib, iqtisodiyot tarkibida mehnat resurslari va ish joylari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozimdir. Mazkur holatda korxonada xodimlarning mehnat harakatchanligi qonuniyatlari va mehnat resurslarining tarmoqlararo oqimlari hisobga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiyotni raqobatlashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish salohiyatidan foydalanish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim (1-rasm).

ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishlari	tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlar	ijtimoiy-psixologik yo'nalishlar
<ul style="list-style-type: none"> ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va avtomatlashtirish yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish mehnatdan samarai foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yangi xizmatlarni yaratish bohsqaruv tuzilmasini takomillashtirish 	<ul style="list-style-type: none"> kadrlar malakasini oshirish mehnat intizomini mustahkamlash ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish

1-rasm. Xizmat ko'rsatish salohiyatidan foydalanish yo'nalishlari

Manba: Muallif ishlanmasi

Ushbu rasmga ko'ra, xizmat ko'rsatish salohiyatidan foydalanish ilmiy-texnik taraqqiyotni yaxshilashga hamda tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini asoslashga qaratiladi. Biroq, xizmat ko'rsatish salohiyatidan foydalanishda kadrlarning shaxsiy salohiyatni oshirish lozim bo'lib, barcha unsur muvozanati va tarkibiy birligi asosida tashkil etiladi. Bu holatda xodimlarni bilim darajasini shakllantirish va ular bilan ishlashda shaxsiy xususiyatlarini baholash mezonlari hisobga olinadi.

Shuningdek, shaxslararo munosabatlar har bir xodim bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kadrlar menejeri xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimiga o'z jamoaning a'zosi kabi his qilishi hamda kishilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat sifatida o'rnini belgilashi kerak. Xizmat ko'rsatish salohiyatidan samarali foydalanishda mijozlarga xizmat

ko'rsatish tendensiyalarini hisobga olish lozim. Bugungi kunda ushbu sohada mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq quyidagi zamonaviy tendensiyalar mavjud bo'ladi:

- korxonalar o'z natijalariga asoslangan shartnomalarga asoslanadilar;
- mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi kanallari va turlari shakllanmoqda;
- xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan yangi texnologiyalar yordamida aqlli xizmatlar taqdim etilmoqda;
- mijozlarni saqlab qolish uchun xizmat ko'rsatuvchilar mijozlar bilan yaqinroq munosabatlarni oldingi o'ringa qo'yadilar;
- mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi ko'rsatkichlariga ustuvor ahamiyat beriladi;
- korxonalarda faol ishchilar tobora o'z brendlarining yuzi va namunasiga aylanmoqdalar;
- xizmat ko'rsatuvchilar o'z biznesini rivojlantirishga yordam berish uchun savdo va xizmat ko'rsatish bo'limi bilan hamkorlik qilmoqdalar;
- korxonalar o'z mijozlariga xizmat ko'rsatishda keng qamrovli va jamoaviy yondashuvni qo'llamoqdalar;
- yuqori darajadagi rahbarlar mijozlarni o'qitish uchun mablag' sarflaydilar.

Xulosa. Xizmat ko'rsatish sohasi aholining ehtiyojlari va talablariga mo'ljallangan asosiy tarmoqlardan biridir. Xizmat ko'rsatish sohasining aksariyat tarmoqlari, xususan undagi mehnat faoliyati bevosita inson faoliyatiga ta'sir qiladi. Shu bois, qabul qilingan dasturlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Xizmat ko'rsatish sohasida materiallar va energiya sarfini kamaytirish bir vaqtda qo'shilgan qiymatni oshishi va yalpi milliy mahsulotning o'sishi bilan birga amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish sohasi xom ashyo va materiallarni iste'mol qilganligi bois, uning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ulushini oshirish milliy daromadning moddiy sarfini kamaytirishga olib keladi. Natijada, iqtisodiyotni raqobatlashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining afzalliklari aholi ehtiyojlariga muvofiq yaqinroq joylashtirishga imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- xizmat ko'rsatish reja va dasturlarini samarali amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqish;
- reklama qilish xarajatlarini amalga oshirishga zarur mablag'larni ajratish;
- jozibador xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash;
- raqobatchilar faoliyatini doimiy ravishda monitoring va tahlil qilib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Нечехина Н.С., Мустафина О.В. Оценка экономического потенциала предприятий сферы услуг. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент», 2023, Т.17, №1. - с. 104.
3. Балаева О.Н. Управление организациями сферы услуг [Текст]: учеб. пособие. — М.: Изд. дом Гос. ун-та — Высшей школы экономики, 2010. - с. 17.
4. Управление экономическим потенциалом организации: учебное пособие. / А.П.Романов, Г.Г.Серебрянников, В.М.Безуглая, О.В.Кириллина, М.К.Чарыкова. — Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2012. - с. 8.
5. https://bstudy.net/723569/turizm/lichnostnyy_potentsial_sotrudnika_servisnoy_organizatsii
6. Одинаев Д.Ш. Иктисодий салохият тушунчаси, таркиби ва шаклланиш омиллари. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnal. 3/2022, may-iyun (№00059). — 262 б.

UO'K 658.5

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KORXONALARNI BOSHQARISHGA ASOSLANGAN INNOVATSIYALAR

M.S.Raximov, talaba, Ma'mun universiteti NTM, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida korxonalarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi hamda raqamlashtirish sharoitida o'z rivojlanish yo'lini tanlash va belgilash iqtisodiy barqarorlikni baholash, nazorat qilish va modellashtirish, korxonalarini iqtisodiy boshqarish vositalarini qo'llash orqali rivojlanishning ichki omillaridan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlash qobiliyati bilan bog'liq masalalar tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish, korxonalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности устойчивого развития предприятий в условиях цифровой трансформации экономики, а также выбор и определение пути развития в условиях цифровизации, оценка, контроль и моделирование экономической устойчивости, а также исследуются использование инструментов экономического управления предприятиями, внутренние факторы развития и вопросы, связанные с возможностью обеспечить эффективное использование.

Ключевые слова: Цифровая экономика, цифровая трансформация, цифровые технологии, устойчивое развитие, предприятие.

Abstract. This article examines the possibilities of sustainable development of enterprises in the conditions of the digital transformation of the economy, as well as the choice and determination of the path of development in the conditions of digitalization, assessment, control and modeling of economic stability, and the use of economic management tools of enterprises, from the internal factors of development. and issues related to the ability to ensure effective use are explored.

Key words: Digital economy, digital transformation, digital technologies, sustainable development, enterprise.

Bugungi kunda mamlakatimiz ilg'or, rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashga intilmoqda. Bu borada iqtisodiyotning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston erishayotgan muvaffaqiyatlar jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu global nuqtai nazarga asosan, har bir korxonalar barqaror rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarini barqaror rivojlanishi birinchi navbatda, korxonalar, ishlab chiqarishini ko'paytirish, faoliyatning shaffofligini ta'minlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga erishishda yordam beradi. Raqamli iqtisodiyot bu — yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarini ishlab chiqish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangi tizimga o'tkazishni anglatadi. Ushbu yangi tizim korxonalarini boshqarish va barqaror rivojlanishida alohida o'rin tutadi [1].

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, raqamlashtirish sharoitida o'z rivojlanish yo'lini tanlash va belgilash korxonalarining o'z iqtisodiy barqarorligini baholash, nazorat qilish va modellashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning ichki omillaridan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlash qobiliyati bilan bog'liq.

Umuman, raqamli transformatsiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni rejalashtirilgan intensiv joriy etish orqali barqaror rivojlanishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish va o'tkazish usullarini tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Korxonalarining barqaror rivojlanishi samaradorligi ko'p jihatdan raqamli innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks jarayonni amalga oshirish imkoniyatiga bog'liq bo'lib, bu raqamli jarayonni korporativ standartga aylantiruvchi tashkiliy o'zgarishlarning asosi bo'lishi kerak [2].

Shuningdek, korxonalar boshqaruvi ularni monitoring qilish, kamchiliklarni aniqlash, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, salbiy ta'sir etuvchi omillarni nazorat qilish faoliyatini sezilarli darajada soddalashtirishi kerak. Bunda yangi raqamli sharoitlarda korxonaning interaktiv xulq-atvori konsepsiyasi dolzarb bo'lib qoladi, bu esa uning samarali bo'lishini hisobga olgan holda moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlar majmui asosida bozordagi o'zgarishlarning tashabbuskori bo'lishiga imkon beradi.

Demak, barqaror rivojlanish negizida zamonaviy korxonani raqamlashtirish bir martalik hodisa emas. Buning sababi shundaki, amaldagi boshqaruv tizimi uzoq vaqt davomida shakllangan xususiyatga ega. Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalarining barqaror rivojlanishi iqtisodiy boshqaruvni amalga oshirish orqali qabul qilingan qarorlar sifatini yaxshilash va ko'p sonli o'zaro ta'sir qiluvchi omillar va sabab-oqibat munosabatlari tufayli yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarning murakkabligini bartaraf etish va ularni samarali amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, korxonani samarali iqtisodiy boshqarish tushunchasi uning barqaror rivojlanishi bilan sinonimdir. Korxonaning iqtisodiy boshqaruvi oldindan bajarilgan tahlil va rejalashtirilgan iqtisodiy hisob-kitoblar asosida samarali boshqaruv qarorlarini asoslash va qabul qilish imkonini beradi [3]. Asosiy muammo faqat yetarli vositalar va texnologiyalarni topish, shuningdek, bunday boshqaruv mexanizmini yaratishdir.

Fikrimizcha korxonani iqtisodiy boshqarishning asosi quyidagi usullardan foydalanishda o'z aksini topadi:

-axborot ta'minotini shakllantirish, iqtisodiy tahlil, bashorat qilish, monitoring, ratsion, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish, tijorat hisob-kitoblari, narxlash, xavflarni aniqlash va sug'urta qilish, nazorat qilish, qarorlarni iqtisodiy jihatdan asoslash imkonini beradi hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ushbu usullarning o'ziga xos xususiyati iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning miqdoriy o'lchovlaridan foydalanish imkoniyatidir.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan korxonalar ichki tashkiliy muhitga axborot texnologiyalarini joriy etgan holda raqamli transformatsiyadan o'tishga majbur. Amaliy tomondan, bu keyinchalik korxonaning raqamli ekotizimiga aylanadigan yakuniy biznes jarayonlari tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Natijada korxonaning boshqaruv paradigmasi va tashkiliy madaniyatidagi tub o'zgarishlar yuzaga keladi. Ish ekspert baholash, ma'lumotlarni qidirish va amaliy dasturiy ta'minotni ishlab chiqish darajasida amalga oshiriladi.

Korxonaning raqamli transformatsiyasi mavjud tuzilmani, biznes jarayonlarini, barcha manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun tashkiliy va boshqaruv mexanizmini tubdan qayta qurishni nazarda tutadi. Raqamli transformatsiya orqali tashkilot yuqori asosiy iqtisodiy natijalarga erishishi mumkin[4].

Raqamli transformatsiya tashkilotning butun madaniyatini o'zgartirishni anglatadi. Bu esa bizga mahsuldorlikda yuqori natijalarga erishish, tez va keng ko'lamli o'zgarishlarga ega bo'lish, shuningdek raqamlashtirish orqali muntazam ish hajmini kamaytirish, operatorlarni tahliliy qo'llab-quvvatlash va xavfsizlikni oshirish orqali xodimlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish imtiyozini beradi

Har qanday transformatsiya rahbariyatning diqqat e'tiborini, eng yaxshi resurslarni taqsimlashni va xodimlarni birlashtira oladigan tashkilotning ijobiy imidjini shakllantirishni talab qiladi. Raqamli transformatsiya ishlab chiqarish ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga mavjud xodimlarning ma'lum vakolatlarini ham talab qiladi[5].

Umumiy qilib keltirilgan bo'lsak, korxonaning raqamli transformatsiyasini boshqarish tizimli va keng qamrovli jarayon bo'lib, uning samaradorligi strategik va operatsion tavakkalchiliklar, byudjetlashtirish, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishni amalga oshirish, barcha keng ko'lamli o'zgarishlarni transformatsiyaning barcha darajalarida har tomonlama baholash kabi asosiy jihatlarga asoslanadi. Tashkiliy va boshqaruv ta'siridan o'zgarishlarga tashkiliy qarshilik ko'rsatish xususiyatlarini aks ettirish bilan birgalikda raqamlashtirish jarayonlarini tashkil etishda noaniqlik darajasini pasaytiradi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlillari natijasida raqamli transformatsiyaning tizim modelidan foydalanish va raqamli tayyorlik darajasini baholash orqali tashkilotning raqamli transformatsiyasini boshqarishning nazariy va uslubiy majmuasini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Ishda raqamli transformatsiya jarayoni va raqamli iqtisodiyotning asosiy toifalari hamda ularning qo'shimcha qiymat shakllanishiga ta'siri belgilab beradi.

2. Raqamli transformatsiya jarayonini yangi boshqaruv tizimi sifatida tushunish, mavjud tuzilmani, biznes-jarayonlarni, barcha manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmini tubdan qayta qurishda ifodalanganini aniqlab beradi.

3. Tashkilotning raqamli transformatsiyasi tizimli modeli ikkita quyi tizim: boshqaruvchi va boshqariladigan, uning doirasida strategik va operatsion tavakkalchilik, loyiha va dasturlarni moliyalashtirishni byudjetlashtirish va amalga oshirish, shuningdek, barchasini kompleks keng ko'lamli o'zgarishlar hisobga olishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, korxonalarining barqaror rivojlanishini iqtisodiy boshqarish ularning raqobatbardoshligini oshirishning zaruriy shartidir va mamlakat iqtisodiyotidagi raqamli o'zgarishlarga mos keladigan vositalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu samaradorlikni maksimal darajada oshiradi moliyaviy-xo'jalik faoliyati, uni va korxonalarini boshqarish tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga moslashtirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Цифровая экономика: 2019: краткий статистический сборник / Г.И.Абдрахманова, К.О.Вишневский, Л.М. Гохберг и др.; Нац. ис-след. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: НИУ ВШЭ, 2019. — 96 с. — ISBN 978-5-7598-1927-1.
2. Смирнова, Е.В. Некоторые положения экономического управления устойчивым развитием промышленных предприятий в условиях реиндустриализации / Е.В.Смирнова, Н.А.Тычинина, И.Ю.Цыганова, О.В.Федорищева // Экономические науки.— 2019.— Т. 12 (181).— С. 324–331.
3. Смирнова, Е.В. Экономическое управление сегментами бизнеса промышленных предприятий / Е.В.Смирнова, И.Ю.Цыганова // Экономические науки.— 2018.— № 12 (169).— С. 22–29.
4. Жерегеля, А.В. Менеджмент организационной культуры в условиях цифровизации предприятий / А.В. Жерегеля, И.В. Грошев, Д.В. Школьный // Управление. – 2019. – Т. 7. – № 2. – С. 33-38 (0,4 п.л., авт. – 0,2 п.л.)
5. Жерегеля, А.В. Цифровая трансформация института лидерства в современных компаниях / А.В. Жерегеля // Глобальная экономика в XXI веке: роль биотехнологий и цифровых технологий: сборник научных статей по итогам работы X круглого стола с международным участием. Часть 2. Москва, 15-16 декабря 2020 г. – М.: Изд-во ООО «Конверт», 2020. – С. 78-80

UO'K 332.133.6

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI
KLASTERLASH TIZIMI- KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA**

A.K.Taspanova, dotsent, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

M.O.Sagiyeva, tayanch doktorant, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

U.M.Erimbetova, assistent-o'qituvchi, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. Ushbu maqolada agrosanoat majmuasida klaster tizimini rivojlantirishning dolzarbligi muhokama qilinadi. Klaster atamasining paydo bo'lish tarixi hamda uning mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznesning ahvoli va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mintaqa iqtisodiyotini klasterlash, kichik biznes, hududlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi.

Аннотация. В данной статье рассмотрена актуальность развития кластерной системы в агропромышленном комплексе. Изучена история появления термина кластер, а также его роль в развитии малого бизнеса и предпринимательства страны. По мимо этого был проведён анализ состояния малого бизнеса Республики Каракалпакстан и факторы, влияющие на его развитие.

Ключевые слова: Кластеризация региональной экономики, малый бизнес, государственная поддержка регионов, сельское хозяйство.

Abstract. In this article discussed the relevance of the development of a cluster system in the agro-industrial complex. The history of the emergence of the term cluster, as well as its role in the development of small business and entrepreneurship in the country, has been studied. In addition, there was analyzed the state of small business in the Republic of Karakalpakstan and the factors influencing its development.

Key words: Clustering of the regional economy, small business, state support for regions, agriculture.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyatining barqaror kuchayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Kichik biznesning o'ziga xos moslashuvchanligi, boshqaruvning soddaligi va arzonligi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rag'batlantirish, uning

yutuqlarini joriy etishni tezlashtirish, jamiyatning muhim moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini safarbar etish qobiliyati uning muhim iqtisodiy rolini belgilaydi.

Yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan katta e'tiborni davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarafidan har yili avgust oyida, Tadbirkorlar kuni arafasida, Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida masalalarni birgalikda yechish maqsadida o'tkaziladigan uchrashuvining an'anaga aylanganligidan ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik faoliyati asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatini integratsiyalashda klasterlashtirishga asoslangan tizimga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Qishloq xo'jaligida klasterlar ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish, yuqori qo'shimcha qiymat va yangi ishchi o'rinlarni yaratish, tadbirkorlik subyektlarining daromadlari va manfaatdorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Barchaga ma'lumki, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi paxta yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining 2022 yilga bergan ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi paxta ishlab chiqarishda jahon bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi. Bu sohani rivojlantirishda nafaqat ularga moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan, balki rivojlanishga bo'lgan yangi ilmiy yondashuvlarni izlash zarurligini taqozo etmoqda. Mualliflarning fikricha, hududlarni strategik rivojlantirish va kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish maqsadida paxta-to'qimachilik sanoatini klasterlash yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. [1]

Adabiyotlar tahlili. Turli xorijiy va mahalliy mutaxassislar ko'p yillar davomida iqtisodiyotni klasterlash masalalarini o'rganmoqdalar. Shunga qaramasdan bu konsepsiyaning ko'plab o'rganilmagan muammolari qolmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda klaster atamasining 20 dan ortiq ta'riflari mavjud. Klasterlarning umumiy tushunchasi keng tavsiflanganiga qaramay, klaster nima degan savolga aniq universal ta'rif yo'q. Mintaqaviy rivojlanishning ushbu modeli dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida juda mashhur bo'ldi.

«Klaster» so'zi inglizcha «cluster» atamasidan olinib bir nechta ma'noga egadir: 1-dasta, 2-to'planish, konsentratsiya, 3-guruh. Bu so'z iqtisodiyotdan oldin bir qator tabiiy fanlarda muvaffaqiyatli qo'llanildi.

«Klaster» atamasi birinchi marta matematikada 1930-yillarning oxirida ko'p o'lchovli ma'lumotlarni klasterli tahlil qilish apparati shakllantirilganda paydo bo'ldi. Noorganik kimyoda bu tushuncha turli xil miqdordagi o'tish metall atomlarini o'z ichiga olgan kimyoviy birikmalar sinfini bildirgan.

Iqtisodiyotda «klaster» atamasining talqini, uning tavsifi va tasnifi, shuningdek, klaster yondashuvining evolyutsiyasi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida keng tarqalgan.

Cheklangan hududdagi o'zaro bog'langan korxonalarining iqtisodiy aglomeratsiyasi obyekt sifatida klasterli tizim XVIII asrning boshidan hunarmandchilik davridan boshlab ma'lum bo'lgan.

Klassik nazariyachilar A.Smit, D.Rikardo, E.Xeksher, B.Olinlarning xalqaro savdoni o'rganish jarayonlari hududiy ixtisoslashuv tahliliga va miqyosdan olinadigan tejamkorlikni o'rganishga asos soldilar.

A.Smitning (1776yil) nazariyasiga ko'ra ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni kooperatsiyalash orqali erishish mumkin, faqat davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi va raqobat erkinligi sharti bilan.[2]

Birinchi mintaqaviy klasterlar A.Marshallning (1890 yil) «sanoat tumanlari» ga o'xshash edi. U birinchilardan bo'lib iqtisodiyotdagi klasterlarning fenomeni – firmalarning birgalikda joylashishi va ularning iqtisodiy samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi.

A.Marshallning «Iqtisodiyot fanining tamoyillari» kitobida birinchi marta sanoat aglomeratsiyalari (mahalliyashtirilgan sanoat) mavzusi ko'tarildi va sanoat tumanlarining o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilinib, ularda umumiy mehnat qobiliyatiga ega odamlar yopiq sanoat tuzilmalariga birlashadilar — «ularni Marshall tugunlari» deb atashadi. [3]

Klaster nazariyasining shakllanishi XX-asrning oxirgi choragida boshlangan.

Bu hodisa Garvard biznes maktabi professori M. Porterning tadqiqoti natijasi bo'lgan «Raqobatbardosh mamlakatlarning afzalliklari» (1990) nomli umumjahon e'tirofiga sazovor bo'lgan kitobining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

M. Porter bu kitobini rivojlangan mamlakatlarning tuzilmalari, yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi va sanoatning tahliliga bag'ishlagan.

Porter jahon iqtisodiyoti sharoitida milliy, davlat va mahalliy raqobatbardoshlik nazariyasini olg'a surib klaster nazariyasining tarixiy va intellektual zaruriy shartlarini asoslab uning fenomenini ochib berdi. Uning ta'kidlashicha, klasterlar milliy taraqqiyot va mintaqaviy iqtisodiyotning o'ziga xos ko'rinishidir. Porter klaster hamkorliklari, firmalar va tarmoqlarning raqobatbardoshligi o'rtasidagi yaqin aloqalarni batafsil bayon qildi.

Klaster boshqaruvi modeli asoschisi Maykl Porter ta'rifiga ko'ra, klasterlar deganda tovarlar va xizmatlar yetkazib berishga ixtisoslashgan, muayyan sohalardagi korxonalar va ularning faoliyati bilan bog'lik tashkilotlarning geografik jihatdan jamlangan guruhlari tushuniladi, ular raqobatlashadi, lekin shu bilan birga birgalikda ish olib borishadi.[4]

Bu tadqiqot sanoat klasterlari nazariyasining boshlanishi bo'lib xizmat qiladi.

Klaster nazariyasining keyingi rivojlanishi bilan M.Porterning shogirdi M. Enrayt shug'ullangan. U bir yoki bir nechta turdosh sohalarda faoliyat yurituvchi firmalarning geografik aglomeratsiyalarini «mintaqaviy klasterlar» deb atadi. U o'zining «Mintaqaviy klasterlarning tavsifi bo'yicha so'rov» tadqiqotida mintaqaviy klasterlarning tasnifini taqdim etdi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan tashqari ham klasterlar bo'yicha juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy olimlar bilan bir qatorda O'zbekiston sanoatida klasterli yondashuvni ilgari surish bo'yicha tadqiqot ishlari M.A.Rahmatov, N.M.Maxmudov, S.M.Qosimov, S.S.G'ulomov, S.S.Salihov, A.Sh.Bekmurodov, D.Q.Ahmedov, D.Mirzahalilova, G.Zohidov va boshqalar tomonidan ham olib borilmoqda.

Hozirgi paytda sanoat klasterlari tuzilishi quyidagi ishtirokchilarni o'z ichiga oladi:

1. Klasterning «o'zagi» hudud ichidagi, mintaqalararo va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi bir yoki bir nechta yirik korxonalaridir.

2. Sanoat va qayta ishlash sanoati uchun asosiy ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar tizimi, ularning ish sifati ko'p jihatdan klasterni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

3. Sanoat klasteri ishtirokchilariga xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar tarmog'i (bank, yuridik, axborot, sug'urta xizmatlari).

4. Klasterni innovatsion va yuqori texnologiyali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mahsulot va ozuqa sifatini baholash sohasidagi ta'lim muassasalari, ilmiy institutlar, seleksiya-genetik stansiyalar va laboratoriyalardan iborat innovatsion komponent.

5. Dastlabki bosqichda klasterni ishga tushirish uchun dastlabki turtki beradigan va uni yanada rivojlantirish uchun tashkiliy shart-sharoitlarni yaratadigan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz klasterning ba'zi xususiyatlarini qayd etishimiz mumkin. Bu yagona xo'jalik yurituvchi subyekt emas va yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi. Geografik lokalizatsiya klasterning paydo bo'lishi va mavjudligi omillaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Klaster tushunchasini chuqurroq o'rganish uchun maqolada ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili o'tkazildi. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun statistik, tahlil qilish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Aholining daromadlarini oshirishda, mamlakatdagi bandlik darajasini ko'paytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish eng muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohani jadal rivojlantirish va vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida yurtboshimiz tomonidan ellikdan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi.

Shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlar agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

Bu kabi chora-tadbirlarning va islohotlarning olib borilishidan ko‘rinib turibdi-ki kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni juda ahamiyatlidir. Buni biz pastda keltirilgan kichik biznes subyektlarining YaIM dagi ulushining jadvali orqali ko‘rishimiz mumkin. (1-jadval)

1-jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak 2022-yil yakuni bo‘yicha kichik tadbirkorlikning Respublika yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushi 51,8 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida eng katta ulush Jizzax (viloyatda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning 78,4 foizi), Surxondaryo (76,8 foiz) va Buxoro (74,1 foiz) viloyatlarida kuzatildi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasidagi kichik biznes subyektlarining jami YaIMdagi ulushi

Hudud	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
O‘zbekiston Respublikasi	56,0	54,8	54,1	51,8	51,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	56,3	58,3	56,3	56,6	58,7
Andijon viloyati	69,6	70,1	72,2	69,5	66,0
Buxoro viloyati	74,3	75,7	75,9	74,1	71,7
Jizzax viloyati	83,1	83,0	80,1	78,4	73,7
Qashqadaryo viloyati	70,8	71,6	69,9	68,1	68,4
Navoiy viloyati	30,7	25,7	27,1	26,8	26,0
Namangan viloyati	75,9	74,7	73,8	72,8	72,8
Samarqand viloyati	75,2	74,3	74,1	71,4	72,8
Surxondaryo viloyati	78,8	77,2	77,0	76,8	75,9
Sirdaryo viloyati	69,8	70,7	69,1	65,4	63,6
Toshkent viloyati	51,3	49,5	45,6	46,5	48,7
Farg‘ona viloyati	69,3	70,7	69,8	68,9	69,5
Xorazm viloyati	76,4	76,2	73,7	71,6	69,7
Toshkent shahri	53,1	51,5	48,8	46,8	49,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Kichik tadbirkorlikning eng kam ulushi Navoiy viloyatida (26,8%) qayd etildi. 2019 yildan 2023 yilgacha ko‘rsatkichlarga nazar solsak barcha hududlar kesimida ularning kamayib borish tendensiyasini kuzatish mumkin. Bunga eng birinchi sabab qilib Covid-19 pandemiyasi tufayli bo‘lgan iqtisodiy pasayishni keltirsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko‘rishimiz mumkin Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham hududning iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes subyektlarining o‘rni kam emas. Bu ko‘rsatkich 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 56,6 dan 58,7 (3,71% ga) oshgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkin-ki hududdagi kichik korxonalarining soni ortib va ularning ishlab chiqarish hajmi ko‘payib bormoqda.

O‘zbekistonning eng yirik hududi bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi 166,6 ming km² maydonni egallaydi, bu esa Respublika yer maydonining deyarli 40% ni tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi 16 tuman, 12 shahar va 146 qishloq fuqarolari yig‘inlaridan tashkil topadi. (2-jadval) 76 000 km² maydonda joylashgan Qo‘ng‘irot tumani Qoraqalpog‘iston Respublikasining eng katta tumani hisoblanadi, eng kichigi esa 180 km² joylashgan Taxiatosh tumani. Eng ko‘p qishloq fuqarolari yig‘inlari Amudaryo va To‘rtko‘l tumanlarida joylashgan.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma‘muriy-hududiy bo‘linishi

	Hududi (ming km ²)	Tumanlar	Jami shaharlar	Qishloq fuqarolari yig‘inlari
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	166,59	16	12	146
Nukus sh.	0,22	-	1	-
Amudaryo tumani	1,02	1	1	16
Beruniy	3,95	1	1	13
Bo‘zatov	2,04	1	-	4
Qorao‘zak	5,89	1	-	8
Kegeyli	0,92	1	1	8
Qo‘ng‘irot	76,0	1	1	13
Qonliko‘l	0,74	1	-	7

Mo'ynoq	37,88	1	1	7
Nukus	0,94	1	-	6
Taxiatosh	0,18	1	1	4
Taxtako'pir	21,12	1	-	8
To'rtko'l	7,48	1	1	15
Xo'jayli	0,55	1	1	7
Chimboy	1,44	1	1	10
Shumanay	0,78	1	1	7
Ellikqal'a	5,42	1	1	13

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yalpi hududiy mahsulot hajmi yil sayin ortib bormoqda. Viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish sohasidir. (3-jadval)

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

Yillar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Sanoat (mlrd.so'm)	2 517,5	3 382,1	3 721,8	3 744,6	5 330,2
Qurilish (mlrd.so'm)	2 943,5	3 495,1	4 168,9	4 765,3	5 381,2
Savdo (mlrd.so'm)	5 005,9	5 947,3	7 760,3	10 038,3	10 955,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	8 660,7	10 056,7	11 740,2	13 502,6	15 530,8
Xizmatlar (mlrd.so'm)	3 037,8	3 347,4	4 410,3	5 204,2	6 613,9
Eksport (mln.AQSH.dol)	88,4	78,8	92,4	68,9	93,6
Import (mln.AQSH.dol)	190,1	125,3	140,0	109,8	117,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi.

Jadvaldan ko'rishimiz mumkin, 2023-yilning oxiriga qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi eng ko'p ishlab chiqarish hajmi 15 530,8 mlrd.so'mga teng bo'lgan. Bu esa 2022-yilga nisbatan 15% ga oshganini bildiradi. Kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi ham 2023 yili 2022 yilga nisbatan 30% oshib 93,6 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish darajasi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning o'rtacha rivojlangan viloyatlari qatoridan joy oldi (yettinchi o'rin). 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 58,7 foizni (respublika bo'yicha o'rtacha 51,2 foiz) tashkil etdi.

Nukus shahri, Taxtako'pir, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlari iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi salmoqli o'rin tutadi. Bu tarmoq Taxiatosh shahri, Mo'ynoq, Qo'ng'iro't, To'rtko'l va Xo'jali tumanlari iqtisodiyotida nisbatan kichikroq o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, yirik sanoat ishlab chiqarishining ulushi mavjud bo'lmagan yoki kam bo'lgan hududlarda kichik biznesning ulushi ko'proq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari g'allachilik (bug'doy va sholi xomashyosi yetishtirish), paxtachilik, chorvachilik va ipakchilikdir. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-yili 266 396 tonna paxta xomashyosi yetishtirilgan. (4-jadval)

4-jadval

2017-2023 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida paxta yetishtirish hajmi (tonna)

Tumanlar nomi	2017-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	192713,0	201332,3	231867	239256	266396
To'rtko'l	21901,0	24580,0	28458	27684,0	28277,0
Beruniy	26187,0	25910,2	30558	29924,0	30628,0
Ellikqal'a	25815,0	26711,9	31069	31408,0	31718,0
Amudaryo tumani	36170,0	35675,2	45853	44844,0	48086,0
Xo'jayli	6935,0	12627,0	13876	15073,0	19614,0
Taxiatosh	12412,0	6274,0	6601	6944,0	8524,0
Shumanay	9307,0	10809,0	11834	12375,0	13932,0
Qonliko'l	7367,0	8354,0	10247	11249,0	13001,0

Qo'ng'iroq	6902,0	7533,0	9358	11020,0	11702,0
Nukus sh.	2324,0	2806,0	1655	5243,0	8106,0
Kegeyli	12574,0	13731,0	11315	11246,0	14708,0
Chimboy	9999,0	11406,0	13163	11242,0	14679,0
Qorao'zak	7710,0	8564,0	9978	11558,0	12918,0
Taxtako'pir	7110,0	6351,0	7902	9446,0	10503,0
Mo'ynoq					
Bo'zatov					

Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi.

Jadvalni tahlil qilishda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq va Bo'zatov tumanlarida umuman paxta yetishtirilmasligini ko'rishimiz mumkin.

2023-yili paxta yetishtirish hajmi o'tgan yilga nisbatan 11,3% o'sib 266 396 tonnani tashkil etdi. Bu borada Amudaryo tumani 48 086 tonna paxta yetishtirib birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Hududdagi eng kam ko'rsatkichlar Taxiotosh va Nukus shaharlarida kuzatilmoqda.

2017-yili paxta ekish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida 92 100 gektar yer ajratilgan bo'lsa 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 6%ga kamayib 86 800,2 gektar yer maydonini tashkil qildi. Shunga qaramasdan paxta hosilining hajmi 38%ga oshdi. Bu esa yerning hosildorligining oshgani hisobidan kelib chiqmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida paxta sanoatining jadal rivojlanishi hududda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijasidir.

Bu kabi islohotlarga mamlakatimizdagi tashkil etilayotgan paxta-to'qimachilik klasterlarini kiritsak bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida birinchi klaster 2018-yili tashkil topgan. Hozirgi davrda hududda 14 paxta-to'qimachilik klasterlari o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

Xulosalar. Klasterli yondashuvning nafaqat hududlarning strategik maqsadlariga erishishdagi balki kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Kichik korxonalar klasteri atrof-muhitning salbiy ta'siriga ancha chidamli, umri uzoqroq va xavf-xatarlardan yaxshi himoyalangan. Shu sababli, klasterlarni qo'llab-quvvatlash, alohida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaraganda cheklangan resurslarni behuda sarflash xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Yakka tartibdagi kichik korxonalar tezda paydo bo'lishi va yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ammo, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlar ancha barqaror subyektdir.

2. Cheklangan resurslar, vakolatlar va qarorlar qabul qilish ufqlari tufayli individual kichik korxonalar kamdan-kam hollarda mintaqa yoki yirik munitsipalitetning iqtisodiy qiyofasini o'zgartirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir.

3. Klasterlarni qo'llab-quvvatlash moliyaviy, insoniy, tashkiliy resurslar va kadrlar vakolatlari bilan bog'liq bo'lgan kichik korxonalar faoliyatidagi cheklovlarni minimallashtirish yoki yo'q qilish imkonini beradi. An'anaviy yondashuv doirasida alohida korxonalarni moliyalashtirish, maslahatlar va tashkiliy yordam ko'rsatish kerak.

Kichik korxonalar klasterlarini shakllantirish kichik biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, ushbu faoliyat turiga cheklovlar va xavflarni kamaytiradi, shuningdek, uning strategik qarashlari va maqsadlariga muvofiq rivojlanishini tartibga soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy sayti. <https://www.agro.uz/12-0012/>
2. Smit A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish. — M.: Eksmo, 2007. — 960 b. — ISBN 978-5-699-18389-0.
3. Marshall, A. Siyosiy iqtisod tamoyillari / A. Marshall. — Moskva: Direct-Media, 2012. — 2127 p.
4. Porter, M. Raqobat strategiyasi: tarmoqlar va raqobatchilarni tahlil qilish metodologiyasi [Matn] / Tarjima. ingliz tilidan — M.: Alpina Business Books, 2005. — 234 b.

UO'K 336.1

AHOLINING REAL DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH DINAMIKASI

Sh.T.Toshtemirov, mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada aholining asosiy daromadlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan, daromadlari yashash uchun mo'ljallangan darajadan past bo'lgan aholi tarkibi

ko'rsatkichlari keltirilgan. Statistik tahlil o'tkazilib, aholining uzoq muddatli davridagi daromadlari darajasi va real ish haqi darajasi baholanadi.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, daromadlar tarkibi, real daromadlar, jamg'armalar, moliyaviy xatti-harakatlar, jamg'arma strategiyalari, uy xo'jaliklari

Аннотация. В статье раскрываются факторы, влияющие на формирование основных доходов населения, приводятся показатели структуры населения, доходы которого ниже уровня, предназначенного для проживания. Проведён статистический анализ и оценён уровень доходов населения в долгосрочной перспективе и уровень реальной заработной платы.

Ключевые слова: доходы населения, структура доходов, реальные доходы, сбережения, финансовое поведение, сберегательные стратегии, домохозяйства

Abstract. The article reveals the factors affecting the formation of the basic income of the population, the indicators of the population structure whose income is below the level intended for living are given. A statistical analysis is carried out and the level of income of the population in the long term and the level of real wages are evaluated.

Keywords: income of the population, income structure, real income, savings, financial behavior, savings strategies, households

Aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish iqtisodiyotning fundamental asoslarini rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlardan biri bo'lgani kabi, Yangi O'zbekistonning ham iqtisodiyotni rivojlantirishdagi maqsadlari aholi daromadlarini oshirish orqali ularning iste'mol darajasini oshirishga qaratiladi. Keyingi yillarda aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha daromad olish imkoniyatlarini ko'paytirish maqsadida ularga turli iqtisodiy va moliyaviy imtiyozlar ajratish, kasbga yo'naltirish va malakasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Aholini yuqori mehnat daromadlari bilan ta'minlash, ularning ijodiy va kasbiy o'sishi uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy liftlarni shakllantirish lozim. Barcha sa'y-harakatlarimiz zahirida bitta maqsad – fuqarolarning real daromadlari va real oylik maoshlarining inflyatsiya darajasiga qaraganda tezroq o'sib borishini ta'minlash turibdi" deb, ta'kidlab o'tgan. Shu jihatdan aholi daromadlari, ularni shakllantirish va oshirish imkoniyatlari bugungi davom etayotgan pandemiya sharoitida o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Prof. Sh.Shodmonovning fikricha "Aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi" [2].

A.O'lmasov va A.Vahobovlar quyidagicha ta'rif keltirilgan: "aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi"[4].

X.S.Muxitdinov aholi turmush darajasini oshirish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liqligini o'rgangan bo'lib va aholi turmush darajasini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyatini asoslab bergan. Aholi turmush darajasi deganda, odamlarning zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi, ularning iste'moli va ehtiyojlari qondirilganligi darajasi tushuniladi[5].

B.K.G'oyibnazarovning fikriga ko'ra, nominal daromaddan farqli ravishda aholi ixtiyoridagi daromad tarkibiga faqatgina tovar va xizmatlar shaxsiy iste'moli, shuningdek, jamg'arma uchun foydalanish mumkin bo'lgan daromad qismigina kiritiladi [6].

Xojiyevning ta'kidlashicha, Mamlakatimizda aholining daromadlari muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi, chunki u uy xo'jaligining iste'mol ko'lamini, uning jamg'arma va investitsiyalar nuqtai nazaridan kelajakda kechiktirilishini belgilaydi.[7]

Rajabov N, Uralov B. larning fikrlariga ko'ra, "Aholi daromadlari nominal va real ko'rinishda bo'ladi. Nominal daromadlar pul ko'rinishida olingan daromadlardir. Real daromadlar iste'mol narxlarining indeksiga qarab tuzatilgan joriy davrdagi nominal pulli daromadlardir"[8]

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot rivojlanishining aholi daromadlarining o'zgarish tendensiyalarini o'rganishda deduksion hamda induksiya usullaridan, abstrakt-mantiqiy

fikrlash usulidan tizimli tahlil qilishda foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirish uchun olingan daromadlarning butun hajmini o'rganish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, demografik, geografik, kasb va mavqe omillarining kompleks o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak [3]. Aholining daromadlari shakllanishiga va ularning moddiy farovonligiga ta'sir qiluvchi ko'plab tashqi omillarni individual mehnat natijalariga, korxonalar faoliyatiga va umuman iqtisodiyotning samaradorligiga qarab darajalarga bo'lish mumkin.

Omillarni darajalar bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin:

1) individual mehnat natijalari (shaxsiy daraja) — bu inson mehnati, uning tajribasi, ish staji, malaka darajasi, intellektual salohiyati, ijtimoiy mavqeyi, ta'lim darajasi, mehnat zichligi, kasblar va ish turlarining kombinatsiyasi va boshqalarning individual xususiyatlaridir;

2) korxonalar faoliyatining natijalari (ishlab chiqarish darajasi) — bu korxonaning o'z faoliyati, uning joylashgan joyi, tashkiliy mulk shakli, faoliyat tarmog'i, tovar va mehnat bozorida o'rni, texnik jihozlari, shartnoma munosabatlarini tuzish tizimi va boshqa omillardir;

3) iqtisodiy samaradorlik natijalari (milliy daraja) — iqtisodiy va investitsiya salohiyati, innovatsion rivojlanish holati, ijtimoiy sheriklik sohasining shakllanishi va boshqalar bilan bog'liq omillar.

O'zbekiston aholisining daromadlari tarkibini taqqoslashning asosiy manbai statistika xizmati tomonidan hisoblangan va turli xil daromad manbalaridan pul daromadlari tarkibini va ularning rivojlanish tendensiyalariga muvofiq ushbu daromaddan foydalanish sohalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlardir.

Aholi daromadlari — bu ma'lum vaqt davomida olingan, tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun mo'ljallangan pul miqdori. Aholining real daromadi (ing. Real Income) — narxlarning o'zgarishi (inflyatsiya) hisobga olingan holda, ma'lum bir davrda ixtiyorida daromadga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning bevosita miqdoriga teng qiymat.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, real daromad bugungi kunda sotib olishingiz mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar narxini boshqa davrda sotib olgan bir xil tovar va xizmatlarning narxi bilan solishtiradi.

Misol uchun, agar siz o'tgan yilga nisbatan bir xil miqdordagi tovarlar va xizmatlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal xizmatlar va boshqalar) sotib olish uchun bu yil 5 mln.so'mdan ko'proq sarflagan bo'lsangiz, lekin yillik daromadingiz o'zgarmagan bo'lsa, demak, sizning real daromad aslida bu mln.so'mdan kamaydi.

Aholi daromadlarini ikki turga bo'lib o'rganamiz: nominal daromad va real daromad. Nominal daromad — bu shaxsning ma'lum bir davrda olgan pul miqdori. Real daromad — bu odam hozirda sotib olishi mumkin bo'lgan narsa va nominal daromad — bu xaridlar uchun to'lashi mumkin bo'lgan qismi.

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda, narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri — iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi.

Statistika inspeksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli 2019 yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 1,5 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda aholi daromadlar ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023
Aholi umumiy daromadlari hajmi (ming so'mda)	414968,7	519181,4	633567,4	728826,1
Aholi umumiy daromadlari o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan foizda)	113,5	125,1	122	115
Aholi real umumiy daromadlar hajmi (ming so'mda)	367456,6	468448,4	568527,8	662749,9
Aholi real umumiy daromadlari o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan foizda)	100,5	112,9	109,5	104,6
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (ming so'mda)	12122,2	14869,8	17772,8	20015,9

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (ming so'mda)	10734,3	13416,8	15948,3	18201,2
--	---------	---------	---------	---------

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz

Pul daromadlarini o'rganishda iqtisodiyot tarmoqlari xodimlarining o'rtacha oylik hisoblangan (nominal) ish haqi va real hisoblangan ish haqi muhim omil hisoblanadi. Nominal ish haqi hisoblangan ish haqi fondini xodimlarning o'rtacha soniga bo'lish yo'li bilan, real hisoblangan ish haqi esa joriy davrdagi nominal ish haqini soliqlar va boshqa ajratmalarsiz iste'mol narxlari indeksiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Nominal ish haqi inflyatsiyani hisobga olmagan holda faqat ushbu ko'rsatkichning hajmini ko'rsatganligi sababli, iste'mol narxlari indeksi (CPI) asosida mamlakatdagi ish haqi holatini aniqroq tavsiflash uchun biz real ish haqini, shuningdek nominal va real ish haqini hisoblaymiz. 2023 yilda aholining real umumiy daromadi, statistika organlarining ma'lumotlariga ko'ra, 18201,2 ming so'mni tashkil etdi, bu AQSh dollari kursi bo'yicha 145 dollarni tashkil etdi, bu esa 2020 yildan boshlab real daromadlar asta-sekin o'sib bormoqda inflyatsiya darajasi, bu esa aholi farovonligi darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, 2023 yil oxirida valyuta bozorida xorijiy valyuta kurslarining o'sishi va milliy valyuta barqarorligining pasayishi tufayli ishchilarning o'rtacha real ish haqi atigi 527 dollarni tashkil etadi, bu ish haqi barqarorligining pasayishidan dalolat beradi.

2018-2020 yillarda aholi turmush darajasini bosqichma-bosqich oshirildi:

- davlat sektori xodimlarining ish haqining oshishi tufayli;
- pensionerlarga pensiya va kompensatsiya to'lovlarini indeksatsiya qilish;
- korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash, bu ularning xodimlarining ish haqini oshirish qobiliyatini oshirdi;

- xorijga chiquvchilarga keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsion muhit va tashqi iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga va natijada aholining moliyaviy ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2018-2020 yillar davomida real pul daromadlari, ish haqi va pensiyalarning o'sishi kuzatildi, ularning sur'ati iste'mol narxlari o'sishidan yuqori bo'ldi, bu esa inqiroz yillariga nisbatan ushbu ko'rsatkichlarning sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2018 yildan boshlab aholining real daromadlari oshib bormoqda, mamlakatimizning milliy iqtisodiyotining ko'plab sohalari va tarmoqlarida ishchilarning ish haqi darajasi oshgan. Shu sababli, jamg'arma strategiyalari aholining ko'p toifalariga kirib bordi, chunki mablag'larni yashash va xizmatlar uchun to'lashdan ortiqcha qismi vujudga keldi. Jamg'arma strategiyasini tanlashga nafaqat oilaning moliyaviy ahvoli (joriy daromad darajasi, jamg'armalar miqdori, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarning mavjudligi), iqtisodiy vaziyat (investitsiya muhiti, moliyaviy inqiroz), balki boshqa bir qator omillar: ijtimoiy, psixologik ham ta'sir qiladi. [9]

Aholining pul daromadlari asosan turli maqsadlarda taqsimlanadi. Uy xo'jaliklari xarajatlarini tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, xarajatlarning muddatlari nuqtai nazaridan uchta asosiy guruh mavjud:

1) qisqa muddatli xarajatlar — zarur oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar uchun to'lovlar, majburiy kommunal to'lovlar, soliqlar va yig'imlar uchun xarajatlar;

2) o'rta muddatli xarajatlar — vaqti-vaqti bilan sotib olinadigan tovarlar (kiyim-kechak, poyabzal), qimmatbaho xizmatlar, shuningdek, muntazam ravishda emas, balki individual operatsiyalar va yuridik harakatlarni amalga oshirishda to'lanadigan bir qator soliqlar uchun xarajatlar;

3) uzoq muddatli xarajatlar — bir necha yilda bir marta amalga oshiriladigan xarajatlar: ko'chmas mulk, mebel, transport vositalari va boshqalarni sotib olish.

Aholining jamg'arma salohiyatini yanada chuqurroq va har tomonlama tahlil qilish uchun uy xo'jaliklarining tanlanma byudjet tekshiruvlari o'tkazilib, ular aholi daromadlari va iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risida statistik ma'lumotlarning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunday so'rovlar uy xo'jaliklarining moddiy farovonlik darajasi, ularning tarkibi va daromad manbalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Olingan ma'lumotlar aholining iste'molchi xulq-atvorini o'rganish, iste'mol darajalari, daromadlar, narxlar, jamg'armalar va boshqalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2023 yilda Iqtisodiyotda talabni shakllantiruvchi omillar (talab omili) sifatida – aholining umumiy daromadlari 16-17 foizga o'sishi natijasida iste'mol 7,2 foizga oshishi kutilayotganligini aytish mumkin. Aholi daromadlari asosan, o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi miqdorining 18-20 foizga va iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shilgan qiymatining 5,6 foizga o'sishi hamda pul o'tkazmalari hajmi o'sishi bazaviy trend doirasida qolishi hisobiga erishiladi. 2023 yilning 9 oyida aholi umumiy daromadlari 14,3 foizga, o'rtacha ish haqi 18,1 foizga oshib, pul o'tkazmalari 8,4 mlrd AQSh dollarni tashkil etdi. Bu o'z navbatida chakana savdo aylanmasini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7 foizga oshishiga olib kelib, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 9 oylikda uy xo'jaliklari iste'moli 6,5-7 foizga o'sishi baholanmoqda. [11]

ilan belgilanadi. Aholi real daromadlari kategoriyasini yirik tushuncha bo'lib, unda aholi tomonidan olinayotgan har qanday ko'rinishdagi moddiy qiymatliklarni miqdor jihatidan ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Mana shu jihatdan turli iqtisodchi olimlar tomonidan bu to'g'risidagi turlicha nazariyalar mavjud bo'lib, ularning har bir o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'rif ularni uchta asosiy guruhlariga mavjud: qisqa muddatli xarajatlar, o'rta muddatli xarajatlar va uzoq muddatli xarajatlar. Ushbu xarajatlarning amalga oshirilishi jihatidan ular real daromadning o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti DUK, 2021. 630 bet.
3. Мелехин Ю. В. Рынок сбережений. Социально-экономические механизмы привлечения сбережений населения в экономику России. – М.: Издательский центр «Акционер», 2002. – С. 111.
4. O'Imasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014.
5. Muxiddinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: "FAN", 2009. 12 b.
6. G'oyibnazarov B.K., Turg'unov T.S. O'zbekistonda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarning statistik tahlili. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2018. № 3, may-iyun, 5-b.
7. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/07/20/aholi-daromadlarining-tarkibiga-soliqning-ta-siri/>
8. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2293/2390>
9. Суринов А. Е. Доходы населения. Опыт количественных измерений. – М.: Финансы и статистика, 2000. – С. 112
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz
11. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий ва молия вазирлиги маълумотлари. https://api.mf.uz/media/document/files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf

UO'K 654

ALOQA KORXONALARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OB'JEKTIV ZARURLIGI VA SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sh.Sh. To'rayev, i.f.d (DSc) prof., Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent
S.S. Ibadullayev, mustaqil tadqiqotchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Bugungi zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini nafaqat tarkibiy va tashkiliy rivojlanishga, balki ularning faoliyati samaradorligini oshirishga ham qaratilgan. Bunday vaziyatda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini samaradorligini oshirish modellari va mexanizmlarini ishlab chiqish masalasini dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shunga ko'ra ushbu tadqiqot korxonalarida aloqa xizmatlarini ko'rsatishda samaradorlikni oshirishning zaruriylikni ko'rib chiqadi. Tadqiqot sektorida samaradorlikka ta'sir qiluvchi ko'p qirrali omillarni o'rganadi, texnologik yutuqlarni, me'yoriy-huquqiy bazalarni, bozor raqobati va tashkiliy strategiyalarni o'rganadi. Ushbu omillarni tahlil qilish orqali maqola Aloqa kompaniyalari o'z faoliyatini optimallashtirish va doimiy rivojlanayotgan sanoat landshaftida iste'molchilarning ortib borayotgan talablarini qanday qondirishi mumkinligi haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: korxonalar, raqobat, samaradorlik, nazorat, operatsion nazorat, aloqa sifati, xizmat ko'rsatish, rentabellik.

Аннотация. Современные предприятия сферы услуг ориентированы не только на структурное и организационное развитие, но и на повышение эффективности своей деятельности. В такой ситуации вопрос разработки моделей и механизмов повышения эффективности предприятий сферы услуг становится еще более актуальным. Соответственно, в данном исследовании рассматривается необходимость повышения эффективности предоставления телекоммуникационных услуг на предприятиях. В исследовании рассматриваются многогранные факторы, влияющие на производительность сектора, изучаются технологические достижения, нормативно-правовая база, рыночная конкуренция и организационные стратегии. Анализируя эти факторы, статья призвана дать представление о том, как телекоммуникационные компании могут оптимизировать свою деятельность и удовлетворить растущие запросы потребителей в постоянно развивающейся отрасли.

Ключевые слова: предприятие, конкуренция, эффективность, контроль, оперативный контроль, качество связи, сервис, рентабельность.

Abstract. Today's modern service enterprises are focused not only on structural and organizational development, but also on increasing the efficiency of their activities. In such a situation, the issue of developing models and mechanisms for improving the efficiency of enterprises in the service sector is becoming even more urgent. Accordingly, this study examines the necessity of increasing efficiency in the provision of telecommunication services in enterprises. The study examines the multifaceted factors influencing performance in the sector, examining technological advances, regulatory frameworks, market competition and organizational strategies. By analyzing these factors, the paper aims to provide insight into how telecommunications companies can optimize their operations and meet increasing consumer demands in an ever-evolving industry landscape.

Key words: enterprise, competition, efficiency, control, operational control, communication quality, service, profitability.

Kirish. Zamonaviy sharoitda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari nafaqat tarkibiy va tashkiliy rivojlanishga, balki ularning faoliyati samaradorligini oshirishga ham qaratilgan. Bunday vaziyatda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari samaradorligini oshirish modellari va mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi tug'iladi. Korxonaning samaradorligiga ko'plab tashqi va ichki muhit omillari ta'sir qiladi. Ushbu tendensiyalarning barchasi mamlakatimizdagi uyali aloqaga xosdir, chunki bugun ular eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biri.

Mavzu dolzarbligi: Aloqa korxonalari uchun xizmat ko'rsatish samaradorligining dolzarbligi bugungi tezkor raqamli landshaftda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Tarmoq ishonchliligi, mijozlarni qo'llab-quvvatlashning javob berish qobiliyati va texnologik innovatsiyalar kabi omillar samaradorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqori samaradorlik muammosiz aloqa tajribasini, mijozlar ehtiyojini qondirishni va bozorda raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydi. Obyektiv sharoitlar tufayli yangi yo'nalishlarni joriy etish muayyan qiyinchiliklarga va belgilangan muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvning yo'qligiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi: tadqiqot aloqa korxonalari samaradorligini oshirish sohasidagi muammolarni hal qilishga, qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirishning ahamiyatini aniqlashga, uyali aloqa xizmatlarining rentabelligini oshirishga, xizmatlarni rivojlantirishning tegishli strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili

Samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi: Mamlakatimiz bozor munosabatlariga o'tishi sharoitida ahamiyatli jarayonlardan biri raqobatdir. Raqobat – bu o'z mahsulotlarini sotish uchun yaxshiroq imkoniyatlarni ta'minlash, xaridorlarning turli ehtiyojlarini qondirish va foyda olish uchun bozorga kiradigan korxonalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik va kurashning iqtisodiy jarayoni. Bu raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq savdo sharoitlarini taklif qilish orqali xaridorlarni jalb qilish orqali o'z iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashga intiladigan ko'plab mustaqil

korxonalar tomonidan ifodalangan raqobat muhitini yaratadi. Raqobat biznesning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishini belgilaydigan asosiy omildir. Aynan raqobat jarayonida korxonalar innovatsiyalari, umumiy korporativ madaniyatni rivojlantirish yoki tanlangan strategiyani amalga oshirish uning samaradorligiga qanchalik hissa qo'shishini aniqlab beradi.

Darhaqiqat, korxonaning bozordagi faoliyatining barqarorligi u ishlab chiqaradigan tovarlarning raqobatbardoshligi, u ko'rsatadigan xizmatlar va raqobatda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan imkoniyatlar bilan belgilanadi.

Xizmatlarni sotish va bozorda o'rin uchun raqobatning kuchayishi korxonalarni doimiy ravishda o'z mahsulotlarini sotish uchun yangi imkoniyatlar va zaxiralarni izlashga, yuqori sifatli xizmat turlarini yaratish uchun texnologiyani takomillashtirishga majbur qiladi.

Shuning uchun ham aniq bozor sharoitida mahsulot sifatini raqobatbardoshlikning birinchi darajasi omili deb hisoblash mumkin. Buni aloqa kompaniyalarining ichki va tashqi bozorlarida olib borgan tadqiqotlarimiz ham tasdiqlaydi. Xizmat sifatining yuqori darajasi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini, kuch va farovonlikni oshirishni anglatadi. Sifatli xizmat ko'rsatish samarali ishlab chiqarish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim sharti, iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini yuksaltirishning zarur tarkibiy qismidir.

Kompaniya xizmat sifati muammosini hal qilish, avvalambor, uning xaridorlar oldidagi yuksak obro'si, nafaqat ichki, balki tashqi bozorga chiqishdir, bu maksimal foyda olish va barqarorlikni ta'minlash uchun asosdir. Mamlakatimiz iqtisodiyoti va korxonalarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi bugungi kunda sifat sohasidagi yutuqlarga bog'liq

- Strategik darajadagi jarayon – bu korxonalar istiqbollari va muvaffaqiyat omillarini oldindan ko'ra oladigan va o'zi uchun oldindan pozitsiyalarni belgilab beradigan jarayon bo'lib, unga ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Korxonaning uzoq muddatli istiqbolda samarali ishlashi uchun asos barqaror raqobat ustunligidir va har bir korxonalar o'z raqobatchilariga nisbatan juda ko'p kuchli va zaif tomonlarga ega bo'lsa-da, ular, qoida tariqasida, faqat ikkita turdagi raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishi mumkin: past xarajatlar va mahsulotni farqlash. Raqobat ustunligining ikkita asosiy turi biznes ushbu afzalliklarga erishmoqchi bo'lgan soha bilan birgalikda sanoatda o'rtachadan yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo'lgan uchta eng keng tarqalgan raqobat strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi: xarajatlar bo'yicha yetakchilik, farqlash va fokuslash [3]. Bizning fikrimizcha, ushbu eng keng tarqalgan strategiyalar ichida xarajatlarni minimallashtirish eng aniq va tushunarli hisoblanadi. Ushbu strategiya doirasida kompaniya sanoatda arzon mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Bular miqyosda tejamkorlik, xususiy mulk texnologiyalari, xomashyo manbalariga maxsus foydalanish huquqlari va boshqa ko'plab omillar orqali samaradorlikni oshirishni o'z ichiga olishi mumkin. Xarajatlarni minimallashtirish bo'yicha yetakchilik strategiyasi, asosan, ma'lum bir ustunlikka ega bo'lishning ustuvor huquqiga asoslanadi va agar korxonalar bu huquqdan voz kechishga majbur bo'lsa faqat ma'lum bir nuqtada u asosiy texnologik yutuqlar tufayli o'zining xarajatlar pozitsiyasini tubdan o'zgartira olmaydi[4].

- Differentsiatsiya strategiyasi, bu kompaniyaning ko'plab xaridorlar tomonidan qadrlanadigan mahsulot xususiyatlarini berish orqali ma'lum bir sohada o'ziga xos o'rinni egallashga harakat qilishdan iborat. Bunday xususiyatlar yoki atributlar bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin – asosiysi, ular xaridorlar uchun haqiqatan ham muhimdir. Bunday holda, mahsulotni ushbu atributlar orqali mijozlarning ma'lum ehtiyojlarini qondiradigan korxonalar o'zlarini qandaydir o'ziga xos tarzda joylashtiradilar va bu o'ziga xoslik uchun mukofot mijozlarning korxonalar mahsulotlari uchun yuqori narxlarni to'lashga tayyorligidir.

- Fokus strategiyasi boshqalardan farq qiladi, chunki u ma'lum bir sohada tor raqobat maydonini tanlashga asoslangan. Fokuslash strategiyasini tanlagan korxonalar muayyan segment yoki sanoat segmentlari guruhini tanlaydi va o'z faoliyatini faqat shu segment yoki segmentlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltiradi. Maqsadli segmentga o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan mijozlar ham, ularni eng yaxshi qondiradigan va shu asosda sanoat standartlaridan farq qiladigan ishlab chiqarish va tarqatish tizimlari ham kiradi.

Bizningcha, korxonalar faqat kelajakni bashorat qilish bilan cheklanib qolmay, balki shu kelajakni yaratishi kerak va bu yangi talab, yangi xizmat turlari, yangi texnologiyalardir. Korxonaning hayotini ta'minlaydigan raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Korxonaning investitsion va innovatsion siyosati, jahon tendensiyalari va talablari asosida shakllanadi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha alohida mahsulotlarni yaratishga imkon beradigan bilimni talab qiluvchi resurslarni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq aniq muammolarni hal qilishga qat'iy bo'ysunadi[6]. Binobarin, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish muammosini hal qilish obyektiv zaruratga aylanadi va raqobatbardosh korxonalar yaratilmaguncha, davlat byudjetining daromad qismini ta'minlash va iqtisodiyotini inqirozli vaziyatdan olib chiqish mumkin emas.

Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar

A

l
o
q
a

Aloqa sifati xizmatlarning xususiyatlarini baholaydigan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi, bu ularning mijozlar talablariga javob berishga yaroqliligini, xabarlarini uzatish aniqligi va aloqa vositalarining ishonchligini, shuningdek iste'molchilarga xizmat ko'rsatish jarayonini aks ettiradi, ya'ni aloqa vositalaridan foydalanish qulayligi, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish darajasi, xizmat ko'rsatish madaniyati va boshqalar. Ushbu xususiyatlardan birini yo'qotish aloqa xizmatining foydalanish narxini yo'qotishiga olib keladi va iste'molchiga zarar yetkazadi. Aloqa sohasida sifat

g

A

h (uzatish) tezligiga qo'yiladigan talablar xabarlarini uzatish, qabul qilish, yetkazib berish standartlari

q

a

Natijalar

1-jadval

Aloqa korxonalarida xizmatlar ko'rsatish samaradorligiga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

1.	Tarmoq infratuzilmasi	Tarmoq infratuzilmasining sifati va ishonchligi xizmat samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Kuchli infratuzilmaga investitsiyalar tezroq va ishonchli aloqa xizmatlarini ta'minlaydi.
2.	Texnologik innovatsiyalar	Texnologik yutuqlarni kuzatib borish Aloqa kompaniyalariga tezroq internet tezligi, yaxshilangan qo'ng'iroq sifati va innovatsion xususiyatlar kabi yanada samarali xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi.
3.	Mijozlarga xizmat ko'rsatish	Mijozlarga samarali xizmat ko'rsatish, shu jumladan tezkor javob vaqtlari, bilimli yordamchi xodimlar va foydalanuvchilarga qulay interfeyslar, umumiy xizmat samaradorligini va mijozlar ehtiyojini qondirishni oshiradi.
4.	Normativ hujjatlarga muvofiqlik	Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'rnatilgan qoidalar va standartlarga rioya qilish qonuniy muvofiqlikni va operatsion samaradorlikni ta'minlaydi.
5.	Resurslarni boshqarish	Resurslardan samarali foydalanish, jumladan, inson resurslari, asbob-uskunalar va moliya, xizmatlar ko'rsatishni optimallashtiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.
6.	Xizmat integratsiyasi:	Ovoz, ma'lumot va video aloqa kabi integratsiyalashgan xizmatlarni yagona platformada taklif qilish foydalanuvchi tajribasini soddalashtirish va bir nechta xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish orqali samaradorlikni oshiradi.
7.	Masshtablilik	Sifatni yo'qotmasdan yoki xarajatlarni oshirmasdan, o'sib borayotgan talabni qondirish uchun xizmatlarni samarali ravishda kengaytirish qobiliyati Aloqa korxonalarini uchun juda muhimdir.
8.	Xavfsizlik	Kuchli xavfsizlik choralarini qo'llash mijozlar ma'lumotlari va tarmoq yaxlitligini himoya qiladi va umumiy xizmat samaradorligi va ishonchligiga hissa qo'shadi.

g


e

n

g

9.	Bozor raqobati	Aloqa sohasidagi raqobat kompaniyalarni mijozlarni jalb qilish va ushlab turish uchun xizmatlarini va operatsion samaradorligini doimiy ravishda yaxshilashga undaydi.
10.	Mijozlarning fikr-mulohazalari	Mijozlarning fikr-mulohazalarini to'plash va ularga amal qilish Aloqa korxonalariga mijozlar ehtiyojlari va afzalliklaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu omillarni samarali hal qilish Aloqa korxonalarida xizmatlar ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa mijozlar ehtiyojini qondirish va bozorda raqobatdosh ustunlikni oshirishga olib keladi.



1-Diagramma. Aloqa korxonalarida xizmat ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar

Aloqa xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi mamlakatning aloqa sohasidagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar muhim rol o'ynaydi. Bularga iqtisodiyotning ushbu sektorining biznes iqlimi kiradi, unga quyidagilar kiradi:

- Soliq va tarif yuki, turli imtiyozlar va subsidiyalar berish shaklida davlatning sohaga ta'siri;
- Xizmatlar ko'rsatiladigan mintaqaholisi soni;
- Aholining xarid qobiliyati;
- Sohada huquqiy tizimni rivojlantirish.

Inson kapitalini hisobga olgan holda quyidagi omillarni qayd etish:

- Aholining ta'lim darajasi;
- Ilmiy-innovatsion sohaning kadrlar salohiyati;
- Aloqa sohasidagi kadrlar salohiyati;
- Aholining axborot savodxonligi

Aloqa sohasida mamlakat rivojiga davlat tomonidan tartibga solish ham katta ta'sir ko'rsatadi, bunga quyidagi omillar kiradi [15; 16; 17]:

- Aloqa sohasini qonuniy tartibga solish holati;
- Milliy elektron rivojlanish dasturlari;
- Aloqa sohasidagi byudjet siyosati.

O'z navbatida, yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar mamlakat va dunyo aholisining elektron rivojlanishga tayyorligisiz mantiqiy bo'lmaydi, bunga tarmoq, elektron va raqamli imkoniyatlar kiradi.

Axborotni milliy manbaga aylantirish aloqa xizmatlarini ko'rsatish korxonalar (PSTU) faoliyati samaradorligiga yuqori talablarni qo'yadi. Aloqa xizmatlarini ko'rsatishning o'z vaqtida va sifati ko'p jihatdan, nafaqat aloqa uskunalarning texnik darajasiga, balki PSTU tashkiliy tuzilishining xususiyatlariga ham bog'liq. Shuning uchun aloqa kompaniyalarining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkiliy loyihalash va rivojlantirish samaradorligini baholash vazifasi juda muhim bo'lib qolmoqda [4, 98].

So'nggi o'n yilliklarda aloqa xizmatlari bozorida raqobatning faol o'sishi kuzatilmoqda, shuning uchun ushbu sohaga ta'sir etuvchi yuqorida sanab o'tilgan barcha omillarni hisobga olish kerak va aloqa sohasining rivojlanish qonuniyatlari, omillari, tuzilishi va sikllarini tahlil qilish asosida qisqa va uzoq muddatda sanoat samaradorligini oshirish strategiyasini shakllantirish mumkin, bu esa sezilarli raqobatdosh ustunlikni beradi[5; 6; 7]. Shunday qilib, masalan, sanoat rivojlanishidagi tendensiyalar va tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilish, aloqa parametrlarining strategik rivojlanish vektorini shakllantiradi, masalan: daromadlar, xizmatlar hajmi, iste'mol intensivligi, axborot resurslariga kirish, investitsiyalar va ishlab chiqarish omillarini o'z ichiga oladi. O'rganilayotgan sohadagi ilmiy-texnik taraqqiyotning oqibatlarini aniqlash axborot uzatish hajmi va tezligini, texnik vositalar, istiqbolli texnologiyalar kanallari va tarmoqlarining tezligi va o'tkazuvchanligini, xizmatlarning integratsiyasi va makro-avlodini baholashni shakllantiradi. Makroiqtisodiy omillarni va ularning, aloqalar rivojiga ta'sir darajasini aniqlashning ushbu segmentining rivojlanish parametrlarini baholashni shakllantiradi.

Xulosa. Aloqa ishining sifatini oshirish sohaning rivojlanish qonuniyatidir, u tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida hayotiyligi shartidir. Ammo ushbu naqshni amalga oshirish uchun sifatni boshqarish bo'yicha maqsadli faoliyat zarur.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, aloqa texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu sohaning xizmat ko'rsatuvchi provayderlariga yangi talablarni qo'yadi, bunday tashkilotlarni boshqarish har doim texnik va texnologik bazani doimiy ravishda o'zgartirishga va modernizatsiya qilishga tayyor bo'lishi, aloqa sohasidagi o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borishi va zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak aks holda, biznesning samaradorligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, iste'molchilar aloqa kompaniyalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bozorda tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida aloqa provayderi o'z mahsulotlarini doimiy ravishda ishlab chiqish va takomillashtirish orqali iste'molchilar ehtiyojlariga e'tibor qaratishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ilhomjon o'g'li T. K. Et al. Aloqa tarmoqlarini boshqarish va jahon elektr aloqa siyosati //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 1. — №. 3. – C. 87-92.
2. Oblokulovich K. S., Shuxratovna M. S. Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmatlar sohasining roli va rivojlanish holati //obrazovan Наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – T. 23. — №. 6. – C. 52-59.
3. Kuxarenko E. G. Infokommunikatsiya biznesida marketing tushunchalari evolyutsiyasini o'rganish // T-sott: Aloqa va transport. 2015. T. 9. № 9. 72-75 betlar.
4. Vagel E. V. Aloqa xizmatlari sohasidagi korxonalarini tashkiliy loyihalash va rivojlantirish samaradorligini baholash // huquqiy va iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. 2011. № 2. 97-102 betlar.
5. Proskura D. V., Proskura N. V., Murashova N. A., Zaytsev D. A. Aloqa xizmatlarining innovatsion rivojlanishi sharoitida axborot jamiyatining shakllanishi. Nijniy Novgorod, 2013 Yil. 177 s.
6. Anichkina O. A., Baranov A. O., Platin R. A., Kapustina N. V., Kozlov V. A., Kolosova G. M., Orlov B. L., Ekovova E. A., Sagina O. A., Tatochenko A. L., Tretyak D. V., Yazev G. V. Import o'rnini bosish va tarqatish xarajatlarini. Moskva, 2017 yil. 240 s.
7. Golubev K. S., Bashashkina G. Yu. Ichki moliyaviy nazorat: usullari, tamoyillari va rivojlanishi // moliyaviy nazoratning dolzarb muammolari (audit). 2015. 111-132-betlar.
8. Akhmetshin E. M., Vasilev V. L., Mironov D. S., Zatsarinnya E. I., Romanova M. V., Yumashev A. V. Internal control system in enterprise management: Analysis and interaction matrices // European Research Studies Journal. 2018, № 21 (2). P. 728-740.
9. Gagarina G. Yu., Sedova N. V. Mintaqaning resurs salohiyatini tahlil qilishning sxematik diagrammasi // moliyaviy menejment. 2018. № 5. 40-51 betlar.
10. Kuzovkova T. A., Zhenchur M. A., Kuzovkov A. D. Infokommunikatsiyalar rivojlanishini kompleks prognozlashning uslubiy apparati // boshqaruv, aloqa va xavfsizlik tizimlari. 2016. № 1. 146-190-betlar.
11. Kuznetsov yu. V., Kapustina N. V., Homeriki N. B. Davlat-xususiy sheriklik subyektlarining salohiyatini mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi omili sifatida amalga oshirish // Davlat va munitsipal boshqaruv. Skagsning ilmiy yozuvlari. 2017. № 1. 106-110-betlar.
12. Aleksandrov A. A., Kapyrin P. A., Meshkov N. A., Neusypin K. A., Popovich A. E., Proletarsky A. V. Gamification in the advanced higher professional education: fundamentals of theory and experience of use // International Journal of Civil Engineering and Technology. 2018. T. 9. № 11. 1800-1808-betlar.
13. Lavrova L., Chernegov N., Ivanova M., Lemesheva Z., Akimova E. Development of the mechanism of motivation and tangible incentivisation // MATEC Web of Conferences 2018. 01094-sahifa.
14. Yani A. V. Ko'payishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi // Rossiya agrar fanining muammolari va istiqbollari. 2011. 106-113-betlar.

UO'K 338.48:332.1

MINTAQADA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI*Sh.Yarmatov, tadqiqotchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*

Annotatsiya. Maqolada mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillari tahlil qilingan. Har bir tamoyil bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Kalit so'zlar: Mintaqa, barqaror rivojlanish, turistik hudud, investitsiya, milliy turizm, MICE turizmi, turistik hudud.

Аннотация. В статье анализируются принципы устойчивого развития туризма в регионе. Для каждого принципа определены приоритеты.

Ключевые слова: Регион, устойчивое развитие, туристическая сфера, инвестиции, национальный туризм, MICE-туризм, туристическая сфера.

Abstract. The article analyzes the principles of sustainable development of tourism in the region. Priorities are defined for each principle.

Key words: Region, sustainable development, tourist area, investment, national tourism, MICE tourism, tourist area.

So'nggi yillarda O'zbekiston milliy iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishdek ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda turizm xizmatlari sohasi muhim strategik tarmoq sifatida qaralmoqda. Bu borada "2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi" da hamda "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da sohadagi mavjud, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq vazifalar va chora-tadbirlar dasturi belgilangan. Lekin shunga qaramasdan, soha faoliyatida foydalanilmayotgan imkoniyatlar, tashkiliy-iqtisodiy jihatdan kamchiliklar va muammolarning mavjudligi, bir tarafdand, turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatining samaradorligi past darajada ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan ularni jahonda ro'y bergan pandemiya oqibatlarining salbiy natijasi deb baholash mumkin.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi mamlakatda pandemiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohada faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining faolligini oshirishda turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillarini joriy qilish muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Turizm barqaror rivojlanishi muammosini tadqiq etgan barcha olimlar uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarini alohida ko'rsatib, turizm sohasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish jarayonida ular o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish muhim ekanligini ta'kidlab o'tishgan. Ya'ni turizmni barqaror rivojlantirish – turistik hududlarning iqtisodiy jihatdan barqaror o'sib, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlagan holda, mos ishlab chiqarish modellari va iste'mol madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini joriy qilishdir[1].

Fikrimizcha, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning bugungi bosqichida turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini ilg'or texnologiyalar va zamonaviy tadqiqotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektni barqaror rivojlantirishda uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari bilan birga uning zamon talabiga mos, o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zarur, deb hisoblaymiz.

1- jadval

Turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillari

№	Tamoyillar	Ustuvor vazifalar
---	------------	-------------------

1.	Ekologik muhitning barqarorligi	<ol style="list-style-type: none"> 1. energiya sarfi, ifloslantiruvchi moddalar va maishiy chiqindi emissiyasi, ichimlik suvi va oqova suvlaridan foydalanish tizimini muvozanatlash; 2. turistik xizmatlar va mahsulotlarning ekologik standartlarga muvofiqligini ta'minlash; 3. ekologik mas'uliyat va javobgarlikni oshirish; 4. tabiiy hududlarning biologik xilma-xilligini saqlash; 5. ekologik toza texnika va transport vositalaridan foydalanish;
2.	Ijtimoiy-madaniy farovonlik	<ol style="list-style-type: none"> 1. mahalliy jamoatchilik bilan yaqin aloqalarni o'rnatish va ularning ijtimoiy, madaniy tashabbuslarini qo'llab quvvatlash; 2. xorijiy va mahalliy sayyohlarning xavfsizligi, huquq va manfaatlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini tashkil etish; 3. xizmatlardan foydalanishning teng sharoitlarini ta'minlashda ijtimoiy mas'uliyat va javobgarlikni oshirish; 4. xorijiy tajriba asosida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish.
3.	Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish	<ol style="list-style-type: none"> 1. uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish; 2. bozor risklarini boshqarish, moliyaviy zaxiralarni yaratish va daromadlarni diversifikatsiya qilish asosida aylanma mablag'lar barqarorligini ta'minlash; 3. xalqaro darajadagi marketing tadqiqotlarini yuritish va xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash asosida faoliyatning turistik jozibadorligini oshirish; 4. zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga ustuvorlik berish;
4.	Texnologik transformatsiya	<ol style="list-style-type: none"> 1. raqamli platformalar va bulutli texnologiyalar tizimini joriy qilish; 2. faoliyatga sun'iy intellekt integratsiyasini amalga oshirish; 3. mobil texnologiyalar va naqd pulsiz to'lovlardan foydalanish imkoyatini ta'minlash; 4. mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari va biznes jarayonlarini himoya qilish uchun kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish; 5. innovatsion startaplar bilan doimiy hamkorlik o'rnatish.
5.	Tadqiqot va monitoring	<ol style="list-style-type: none"> 1. faoliyatga asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) joriy qilish; 2. ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy tadqiqotlarni yuritish; 3. ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi hisobotlarni yuritish (Global Reporting Initiative (GRI) kabi hisobot standartlariga muvofiqligini ta'minlash) 4. faoliyatga qayta aloqa tizimini joriy qilish asosida iste'molchi fikrini doimiy monitoring qilish; 5. tahlillar va tadqiqotlarning uzluksizligini ta'minlash.

Manba: muallif ishlanmasi

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida iste'molchilarga qulaylik yaratib berish, ularning talab va ehtiyojlarini qondirish hamda samarali biznes faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida sun'iy intellekt va innovatsion startap loyihalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, so'ngi yillarda sun'iy intellektning biznes va jamiyatning barcha sohalariga jadal integratsiya qilinishi ularning rivojlanish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan mamlakatda turizm sanoati ishtirokchilarining (xususan, dam olish maskanlari, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, turistik korxonalar) faolligini oshirishda BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha dasturi (UNEP), Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan chop etilgan "Making Tourism More Sustainable A Guide for Policy Makers" hisoboti hamda xalqaro standartlar, akademik tadqiqotlar va ilg'or tajribalar asosida turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillariga qo'shimcha ravishda "texnologik transformatsiya" va "tadqiqot va monitoring" tamoyillarini hisobga olish asosida takomillashtirish hamda ularni O'zbekiston sharoitida amaliyotga joriy qilishning ustuvor vazifalarini belgilashni maqsadga muvofiq deb topdik (1-jadval).

Ushbu uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[2], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"[3] hamda 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"[4]gi qaror va farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillarini takomillashtirish va uning ustuvor vazifalarining turizm sanoati ishtirokchilarining faoliyatiga joriy qilinishi quyidagilarni amalga oshirish imkonini berdi:

– faoliyatning energiya sarfi, suv va oqova suvlari iste'moli, maishiy chiqindi tizimi va boshqa ekologik sohasini muvozanatlash orqali atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirishga erishish. Bu orqali eko-turizmning yangi yo'nalishlarini tashkil etish va rivojlantirish;

– mahalliy jamoatchilik bilan yaqin aloqalarni o'rnatish, ularning ijtimoiy- madaniy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatishning teng sharoitlarini yaratish, ishchi-xodimlarni munosib mehnat sharoitlari bilan ta'minlash, ularning malakasini oshirish va boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali faoliyatning ijtimoiy munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish;

– davlat-xususiy sheriklik, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va/yoki qo'shimcha resurslarni jalb qilish asosida turistik infratuzilmani modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, aylanma mablag'larning barqarorligini ta'minlash hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish asosida turizmning yangi turlarini tashkil etish, hududning turistik jozibadorligini oshirish hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish.

– sohaga raqamli platformalar va bulutli texnologiyalar tizimini joriy qilish, faoliyatga sun'iy intellekt integratsiyasini amalga oshirish va innovatsion startaplar bilan doimiy hamkorlik o'rnatish asosida sayyohlarga xizmat ko'rsatish darajasini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish;

– faoliyat jarayonida mavjud ijtimoiy, ekologik muammo va kamchiliklarni monitoring qilishda tahlillar va tadqiqotlarning uzluksizligini ta'minlash.

Turizm xizmatlari va unga aloqador turdosh tarmoqlarni jadal rivojlantirish hamda ularning faolligini oshirish orqali mamlakatda band bo'lgan aholi sonini oshirish uchun, eng avvalo, sohadagi mavsumiylik hamda kadrlar qo'nimsizligi masalasini hal qilish o'ta dolzarb masala ekanligi tadqiqot jarayonida asoslandi.

So'nggi yillarda O'zbekiston turizm sanoatida kadrlar qo'nimsizligi darajasi o'rtacha 22,8%ni tashkil qilmoqda. Biroq, bu ko'rsatkich boshqa rivojlangan davlatlarda o'rtacha 10-12%ni tashkil qilishini hisobga olsak, mamlakat turizm sohasida faoliyat olib boruvchi kadrlarning qo'nimsizligi qoniqarsiz darajada ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bizningcha, turizm sohasidagi kadrlar qo'nimsizligi darajasining balandligi mamlakatdagi turizm mavsumiga ham bog'liq. Chunki, turizm mavsumining qisqaligi turizm tashkilotlaridagi kadrlarning harakatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar mavsumiyligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar O'zbekistonga 2016 – 2022- yillarning II va III choraklarida ushbu yillarning I va IV choraklariga nisbatan 23,6 foizga ko'p xorijiy sayyohlar tashrif buyurganini ko'rsatdi. Bundan O'zbekistonda oktyabr-mart oylarini turizm mavsumidan tashqari davr, aprel-sentyabr oylarini esa turizm mavsumi yuqori bo'lgan davr, deb belgilash mumkin.

O'zbekiston turizm sohasidagi mavsumiylik muammosini hal qilishning yechimini aniqlash maqsadida xorijiy sayyohlarning soni va safar maqsadlari tahlil qilinganda mamlakatda ishbilarmonlik turizmi yaxshi rivojlanmaganligi hamda uni jadal rivojlantirish borasida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, xizmat safari maqsadida kelgan sayyohlar boshqa maqsadlarda kelgan sayyohlardan farqli o'laroq 2016 – 2022-yillarda 44,1%ga kamaygan.

Bu, bir tarafdin, ushbu sohadagi ishlar samaradorligining pastligi, ishbilarmonlik muhiti va ishbilarmonlik jozibadorligi jahon talabiga mos emasligini belgilab bersa, boshqa tarafdin, mamlakatdagi tashkilot va muassasalarda xodimlarning ish yuzasidan harakatlanishi (xizmat safari), xizmat yuzasidan tadbirlarda ishtirok etishi, malaka oshirish, inspeksion hamda tadbirkorlik maqsadlaridagi tashriflar va hokazo kabi ishbilarmonlik turizmining segmentlari tashkiliy jihatdan yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan yoki ular turistik faoliyat bilan bog'lanmaganligidan dalolat beradi.

Bizningcha, mamlakat turizm xizmatlari sohasini mavsumdan tashqari davrda faol va yuqori sur'atlarda rivojlantirish uchun "MICE turizmi" ning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarini sohada kadrlar qo'nimsizligi va mavsumiylik muammolarini bartaraf qilish imkonini beruvchi

rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash vositalarini qo'llash asosida takomillashtirish hamda unga turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Fikrimizni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

Birinchi, "MICE turizmi" mavsumiylikka ega emas, MICE sayohatlari har qanday sharoitda va yilning istalgan vaqtida amalga oshiriladi. Shuningdek, uning rivojlanishi mezbon hududdagi turizm infratuzilma ob'ektlarining yil davomida faol ishlab turishini ta'minlaydi.

Ikkinchi, "MICE turizmi" mijozlari ularga taqdim etilayotgan xizmatlar sifati va tezligiga qarab boshqa yo'nalishlardagi turistlarga qaraganda uch-to'rt barobar ko'proq pul to'laydi. Sababi, ishbilarmon sayohatchilarning aksariyati kompaniyalarning katta va o'rta menejerlari bo'lganligi sababli ularga yuqori darajadagi (qimmat) xizmatlar ko'rsatiladi.

Uchinchi, konferensiya, kongress va boshqa maqsadda xizmat safariga kelgan MICE turizmi sayohatchilari o'ziga xos "elchi" vazifasini bajaradi. Ular ko'p hollarda taniqli, obro'li yoki muhim ahamiyatga ega odamlar bo'lganligi sababli, ularning fikri o'z vatanlarida O'zbekiston imidjini belgilab beradi.

To'rtinchi, ishbilarmonlik turizmining keng qirralari ularning yangi segmentlarini qamrab olishga imkon beradi. Shu bilan birga, ishbilarmonlik turizmi xizmatlarining kompleksligi turizm bozoriga yangi xizmat turlarining kirib kelishiga yo'l ochib beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, "MICE turizmi" O'zbekiston turizm sektorida mavsumiylik omilini hal etishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini hisobga olib, turizm sohasiga mas'ul vakolatli davlat organlari, mahalliy hokimliklar va nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yangi bosqichga olib chiqish, tashqi bozorda milliy turizmning ijobiy imidjini shakllantirish, hududlarda turizm infratuzilma obyektlariga investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida O'zbekistonda "MICE turizm"ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibragimov N.S. Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari [Matn]: monografiya / N.S. Ibragimov. — Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2020. — 204 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori <https://lex.uz/docs/-4143188>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>.

UO'K 330

KONCHILIK SANOATI KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

N.N.Zikrillayev, mustaqil izlanuvchi, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada jahondagi yirik konchilik kompaniyalari bo'yicha jami foydali qazilmalarni ishlab chiqarish hajmi tahlil qilingab bo'lib, kompaniyalarga kiritilgan investitsiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, konchilik sanoati korxonalarini investitsion jozibadorligini oshirish -jahon iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: konchilik sanoati korxonalarini, yer osti foydali qazilmalari, nodir yerosti metallar, jahondagi yirik konchilik kompaniyalari, innovatsiyalar, investitsion faoliyat, investitsion jozibadorlik.

Аннотация. В статье проанализирован общий объем добычи полезных ископаемых крупнейшими горнодобывающими компаниями мира, а также представлена информация об осуществленных в компаниях инвестициях. Также обосновано, что повышение инвестиционной привлекательности предприятий горнодобывающей отрасли имеет большое значение в мировой экономике.

Ключевые слова: предприятия горнодобывающей промышленности, подземные полезные ископаемые, редкоземельные металлы, крупнейшие горнодобывающие компании мира, инновации, инвестиционная активность, инвестиционная привлекательность.


Abstract. The article analyzes the total volume of mineral production by the largest mining companies in the world, and also provides information on investments made in the companies. It is also substantiated that increasing the investment attractiveness of mining enterprises is of great importance in the global economy.

Key words: mining enterprises, underground minerals, rare earth metals, the largest mining companies in the world, innovation, investment activity, investment attractiveness.

Konchilik sanoati zamonaviy sivilizatsiyaning tamal toshi bo'lib, qurilish va ishlab chiqarishdan tortib, texnologiya va energetikagacha bo'lgan keng ko'lamlı mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun tarmoqlarni zarur xomashyo bilan ta'minlaydi. Bu sanoat yerdan qimmatbaho minerallar va metallarni, shu jumladan oltin, kumush, mis, temir rudasi, ko'mir va noyob yer elementlarini qazib olishni o'z ichiga oladi. Bu resurslar infratuzilma va mashinasozlikdan tortib, elektronika va qayta tiklanadigan energiya tizimlarigacha bo'lgan barcha tovarlarni ishlab chiqarish uchun asosiy manba hisoblanadi. Mazkur sohaning izchil rivoji uchun investitsiyalarni jalb etish nafaqat uning joriy faoliyatini ta'minlash, balki innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tez o'sib borayotgan dunyo aholisining o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun juda muhimdir. Konchilik sanoatiga sarmoya kiritishning jozibadorligi uning oltin, mis, temir rudasi va nodir yer elementlari kabi minerallar va metallarga doimiy talab bilan bog'liq bo'lgan katta daromad olish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Dunyoning ko'pgina sanoat tarmoqlarining faoliyati yer osti foydali qazilmalarni yetkazib berishga bog'liq. Turli yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarining nodir yerosti metallariga bog'liqligi so'nggi paytlarda muammolarni vujudga keltirgan bo'lsa, boshqa tomondan, ko'mir hali ham dunyodagi yetakchi energiya resurslaridan biri hisoblanadi. Binobarin, konchilik sanoati jahon iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. 2022 yilda dunyoning 40 ta eng yirik konchilik sanoati korxonalari daromadi rekord daraja - 943 mlrd. dollarni tashkil etdi. Shunga qaramay, konchilik sanoati sof foydasi 2010 yildagi 25 foizdan 2022 yilda 14 foizga tushdi[1].

Konchilik bozori kelgusi yillarda sezilarli darajada kengayishiga kutilmoqda, prognoz qilingan yillik o'sish sur'ati 7% ni tashkil qilishi taxmin qilinmoqda. Ushbu o'sishni bir qancha omillar, jumladan, texnologik taraqqiyot, minerallar va metallarga talabning ortishi va sanoatga investitsiyalarning ko'payishi bilan bog'lash mumkin.




1-rasm. 2023 yilda butun dunyo bo'ylab yetakchi mineral xom ashyoni ishlab chiqarish hajmi (ming tonna)[3]

Texnologik innovatsiyalar konchilik bozorining o'sishida hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va narsalar interneti (IoT) ning qabul qilinishi konchilik

loyihalarida operatsion samaradorlikni oshirdi, xarajatlarni qisqartirdi va xavfsizlik choralari yaxshiladi[2].

Temir rudasi 2023 yilda dunyodagi eng ko'p ishlab chiqarilgan metal xom ashyolardan biri bo'lib, ishlab chiqarish hajmi taxminan 2,5 mlrd. tonnani tashkil etdi. Shuningdek, 2023 yilda global olmos ishlab chiqarish 45 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, oltin 3 ming tonna hajmida, platina ishlab chiqarish esa taxminan 180 tonnani tashkil etdi, chunki faqat bir nechta mamlakatlar yuqorida nomlari keltirilgan resurslarni keng miqyosda ishlab chiqaradi (1-rasm).


Hajmi bo'yicha dunyodagi eng ko'p ekspluatatsiya qilinadigan tovarlar temir rudasi, ko'mir, kaliy va misdir. Xitoy, Indoneziya va Hindiston eng yirik ko'mir qazib oluvchi davlatlardir. Xitoy (217,2 mln.tonna) Avstraliya (588,2 mln.tonna) va Braziliya (251.9 mln.tonna) dan keyin temir va temir qorishmalari ishlab chiqaruvchi uchinchi yirik davlat hisoblanadi. Darhaqiqat, Xitoy ko'plab konchilik mahsulotlarini, ayniqsa, 2022 yilda jahon ishlab chiqarishining 70 foizini ishlab chiqargan, juda ko'p talab qilinadigan noyob metallarni ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatga aylanmoqda. Bundan tashqari, Xitoy oltin qazib olish bo'yicha dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. 2022-yilda mamlakatlar bo'yicha jami foydali qazilmalarni ishlab chiqarish hajmi, mln.tonna

Manba: World Mining Data 2024. International Organizing Committee for the World Mining Congresses
<https://www.world-mining-data.info/wmd/downloads/PDF/WMD%202024.pdf> Murojaat sanasi 27.06.2024

2022-yil natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha konchilik sanoati hajmi bo'yicha top-4 ketma-ketligi Xitoy, AQSh, Avstraliya va RF lardan tashkil topgan bo'lib, shu to'rt davlatning global konchilik sanoatidagi umumiy ulushi 54% ni tashkil etgan. Boshqa mamlakatlarning jamoaviy ulushi esa mos ravishda 46% ni tashkil etgan (3-rasm).




3-rasm. Konchilik sanoati hajmi bo'yicha global top-4 mamlakatlar

Manba: World Mining Data 2024. International Organizing Committee for the World Mining Congresses
<https://www.world-mining-data.info/wmd/downloads/PDF/WMD%202024.pdf> Murojaat sanasi 27.06.2024

Davlatlar konchilik sanoatining rivojlanishiga nafaqat ulardagi resurslar zahiralarning mavjudligi, shuningdek, ularni izlab topish, o'rganish va qazib chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni

qoplovchi sarmoyani yo'naltira olishi ham muhim omildir. Yuqorida ta'kidlanganidek, konchilik sanoati iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan o'zining ish va resurs sig'imlilik ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlanadi. 2022-yilda jahonning konchilik sanoatining yetakchi kompaniyalari o'tgan yilga nisbatan qariyb 85 mlrd. AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritdi. Dunyoning yetakchi konchilik sanoati kompaniyalarining investitsion faoliyati 2012-yilda eng yuqori cho'qqiga (169 mlrd. AQSh dollari) ko'tarilgandan beri pasayib bormoqda (4-rasm).



4-rasm. Jahondagi yirik konchilik kompaniyalariga kiritilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi (mlrd. AQSh dollar)

Manba: <https://www.statista.com/statistics/379394/investing-activities-of-top-mining-companies/> Murojaat sanasi: 28.06.2024

Konchilik sanoati korxonalarining investitsion faoliyati haqida so'z yuritishdan avval, investitsiya tushunchasining umumiy mohiyati, uning konchilik sanoatini rivojlantirishdagi o'rni, investitsion faoliyatni tashkil etishdagi o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, konchilik sanoati korxonalarining investitsion jozibadorligi kabi tushunchalarning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Investitsiya - bu moliya sohasidagi asosiy tushuncha bo'lib, kelajakda daromad yoki foyda olishni kutish bilan pul yoki vaqt kabi resurslarni taqsimlashni o'z ichiga oladi. Investitsiya qilish orqali jismoniy shaxslar va tashkilotlar o'z kapitallarini turli moliyaviy vositalarga, ko'chmas mulkka yoki tadbirkorlik faoliyatiga bag'ishlaydilar, ular o'zlarining boyliklarini oshirish va aniq moliyaviy maqsadlarga erishishadi. Investitsiya jarayoni potentsial imkoniyatlarni chuqur tahlil qilishni, xavflarni baholashni va kerakli natijalarni olish uchun resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun strategik rejalashtirishni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy va institutsional moliya kontekstida investitsiyalar turli xil aktivlar, shu jumladan aktsiyalar, obligatsiyalar, investitsiya fondlari, ko'chmas mulk va tovarlar bo'yicha amalga oshiriladi. Har bir investitsiya turi o'ziga xos risklar va mukofotlar to'plamiga ega bo'lib, investorlardan o'z maqsadlari, xavf-xatarlarga chidamlilik va bozor sharoitlarini diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Yakuniy maqsad - xavf va daromad o'rtasidagi muvozanatni saqlash, kapital o'sishi yoki daromad olish potentsialini maksimal darajada oshirish va shu bilan birga sezilarli yo'qotishlar ehtimolini kamaytirishdir.

Manbalarga ko'ra, investitsiyalar kelajakda yuqori daromadlarga erishish uchun joriy moliyaviy resurslarning majburiyati sifatida aniqlanadi. U noaniqlik domenlari deb ataladigan narsalar bilan shug'ullanadi. Ushbu ta'rifdan vaqt va kelajakning ahamiyati paydo bo'ladi, chunki ular investitsiyadagi ikkita muhim elementdir. Shunday qilib, kelajakdagi investitsiyalar holatining aniqlik darajalari haqidagi tasavvurni shakllantirishga yordam beradigan ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy nuqtai nazardan sarmoya va jamg'arma har xil; tejash yuqori daromad olish uchun investitsiya qilingan yoki yo'qligidan qat'iy nazar, iste'molga sarflanmaydigan umumiy daromad sifatida tanilgan. Iste'mol - bu ma'lum bir davrda uning ehtiyojlarini qondirish uchun sarflangan tovarlar va xizmatlarga sarflangan umumiy xarajatlar. Investitsiyalar yoki jamg'armalar,

shuningdek iste'mol qiymatlari makroiqtisodiy darajada yoki individual darajada turli statistik usullar bilan aniqlanishi mumkin[4].

Xorijlik iqtisodchi olim Ch. Jeyadevining fikriga ko'ra, jamg'arma va investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini quruvchi ikki asosiy ustundirlar. Bu daromad olish va asosiy qiymatning qiymatini baholash uchun sotib olinadigan aktivdir. Investitsiyalar darhol iste'mol qilish uchun emas, balki kelajakda foydalanish, boylik yaratish uchun kiritilishi kerak. Jamg'arma uy xo'jaliklari tomonidan tejalgan yig'im bo'lib, o'z navbatida daromad keltiradi yoki to'g'ri investitsiya qilinganida qiymatni oshiradi. Investitsiyalar kelajakda dastlabki summadan ko'ra ko'proq to'lash umidi bilan amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu kelajakda yaxshi daromad keltiradigan yoki keyinroq sotilganda yuqori daromad keltiradigan aktivdir. [5]

Bizning fikrimizcha, investitsiya deganda kapital yoki vaqt kabi resurslarni vaqt o'tishi bilan daromad yoki foyda olishni kutish bilan urinishlarga taqsimlash tushuniladi. Bu muayyan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun turli xil moliyaviy vositalar, loyihalar yoki korxonalar pul yoki boshqa aktivlarni topshirishni o'z ichiga oladi. Konchilik sanoatiga investitsiyalar turli faoliyat turlarini, jumladan, tadqiqot, qidiruv, qazib olish, qayta ishlash va infratuzilmani rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu investitsiyalarga turli omillar, masalan, tovar narxlari, texnologik yutuqlar, tartibga solish muhiti va geosiyosiy barqarorlik ta'sir ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab, Avstraliya, Kanada, Braziliya va Afrikaning ba'zi davlatlari kabi mineral resurslarga boy hududlar o'zlarining tog'-kon sanoati va qulay siyosati tufayli ko'pincha katta investitsiyalarni jalb qiladilar.

Konchilik sanoatiga investitsiyalarning jozibadorligi sanoatning jahon iqtisodiyotidagi ajralmas roli bilan mustahkamlanadi. Texnologik taraqqiyot ko'proq ixtisoslashgan materiallar (chiplar, korpuslar, diodlar, yarimo'tkazgichlar) ga bo'lgan ehtiyojni oshirar va rivojlanayotgan bozorlar sanoatlashishda davom etar ekan, qazib olingan resurslarga talab kuchli bo'lib qolishi kutilmoqda. Bundan tashqari, barqaror va ekologik toza tog'-kon amaliyotiga intilish innovatsion texnologiyalar va yashil qazib olish tashabbuslariga sarmoya kiritish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Global konchilik sanoatiga sarmoya kiritish dinamikasini tushunish uning salohiyatidan foydalanishga intilayotgan investorlar uchun juda muhimdir. Bozor tendensiyalari, tartibga soluvchi o'zgarishlar va texnologik innovatsiyalarni tahlil qilish orqali investorlar foydali imkoniyatlarni aniqlashlari va ushbu muhim sektorning murakkabliklarini hamda risklarni tushunishlari, shundan so'ng o'z mablag' va resurslarini bu sohaga yo'naltirishlari mumkin. Oxir oqibat, konchilik sanoatiga strategik investitsiyalar nafaqat moliyaviy daromadlarni va'da qiladi, balki global taraqqiyot kelajagi uchun muhim bo'lgan resurslarning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Konchilik sanoati korxonalari investitsion jozibadorligi istiqboldagi investorlar uchun ma'lum bir investitsiya yoki bozorning jozibadorligi yoki manfaatlilikini anglatadi. Ushbu jozibadorlikka iqtisodiy barqarorlik, bozor faoliyati, tartibga solish muhiti va o'sish salohiyati kabi turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Juda jozibador deb hisoblangan sarmoya odatda kuchli iqtisodiy o'sish, barqaror siyosiy iqlim va qo'llab-quvvatlovchi qoidalar kabi qulay shart-sharoitlarni taklif qiladi, ular birgalikda risklarni kamaytiradi va foydali daromad olish ehtimolini oshiradi. Boshqa tomondan, jozibadorligi past bo'lgan investitsiyalar iqtisodiy o'zgaruvchanlik, siyosiy beqarorlik yoki noqulay me'yoriy bazalar tufayli yuqori xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Investitsion jozibadorlikning asl mohiyatini anglash, bizningcha, investitsion qarorlarni qabul qilish uchun juda muhimdir. Turli xil investitsiya imkoniyatlarining jozibadorligiga hissa qo'shadigan omillarni baholash orqali investorlar o'zlarining moliyaviy maqsadlari va risklarga bardoshlilikini aniqlashlari mumkin. Ushbu strategik yondashuv ularga investitsiya portfellarini optimallashtirish, uzoq muddatli o'sishga erishish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Aslini olganda, investitsiyalar va uning jozibadorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muvaffaqiyatli moliyaviy rejalashtirish va boylikni boshqarish uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.statista.com/topics/1143/mining/#topicOverview> Murojaat sanasi 24.06.2024
2. Global Mining Market Overview. March, 2024. <https://www.reportlinker.com/market-report/Mining-And-Quarrying/7096/>

3. <https://www.statista.com/statistics/1224214/production-volume-leading-mineral-commodities-worldwide/> Murojaat sanasi 24.06.2024
4. Capital Market Authority, Saudi Arabia https://cma.org.sa/en/Awareness/Publications/booklets/Booklet_1.pdf Murojaat sanasi 22.06.2024
5. Jeyadevi J, Christina. Types of investment/Research Trends in Multidisciplinary Subjects-Volume-2. 2021. https://www.researchgate.net/publication/373070419_TYPES_OF_INVESTMENT Murojaat sanasi 28.06.2024

UO'K: 332.12

HUDUDLARNING IQTISODIY O'SISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TRASFORMATSIYA

B. Zokirova, tadqiqotchi, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda raqamli transformasiyaning ahamiyati haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida hududlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda raqamli transformasiyaning ahamiyati bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: hududlar, inklyuziv iqtisodiyot, raqamli transformasiya, raqamli texnologiya.

Аннотация. В данной статье говорится о значении цифровой трансформации в обеспечении экономического роста регионов. На основе научных данных автор на основе существующей литературы изучил и проанализировал конкретные аспекты значения цифровой трансформации в обеспечении экономического роста регионов.

Ключевые слова: регионы, инклюзивная экономика, цифровая трансформация, цифровые технологии.

Abstract. This article talks about the importance of digital transformation in ensuring the economic growth of regions. Based on scientific data, the author studied and analyzed specific aspects of the importance of digital transformation in ensuring the economic growth of regions based on existing literature.

Key words: regions, inclusive economy, digital transformation, digital technology.

Kirish qism: O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi PF6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni raqamli transformatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy asos hisoblanadi[2]. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining III qismi – Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun qo'yilgan 25-maqсад 2-qismida Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish masalasi qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan tadqiqot mavzusi o'zining dolzarb ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Raqamli transformatsiya keng ma'noda raqamli texnologiyalarni qabul qilish bilan ta'minlangan strategiya, modellar, operatsiyalar, mahsulotlar, marketing yondashuvi va maqsadlarni qayta ko'rib chiqish orqali boshqaruv tizimini o'zgartirishdir. U savdo-sotiq, biznes va umumiy iqtisodiyotning o'sishini tezlashtirish hamda notijorat tashkilotlarning (masalan, universitetlar va boshqa o'quv muassasalari) samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya tor ma'noda "qog'ozsiz ofis" yoki "raqamli biznes"ni anglatishi mumkin, bu alohida korxonalar, iqtisodiyot, hukumat, san'at, tibbiyot va fan kabi jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir qiladi. Raqamli yechimlar nafaqat an'anaviy usullarni takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash, balki yangi turdagi innovatsiyalar va ijodkorlikning paydo bo'lishini rag'batlantiradi.

Raqamli transformatsiyaning belgilovchi omili uning sur'ati hisoblanadi. Texnologiya rivojlanishining tezligi va natijada ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy o'zgarishlarning inson hayoti bilan bog'liqligi rivojlanish tezligida sifatli pog'onani ko'rsatish imkonini beradi, bu esa yangi davrga o'tishni anglatadi. Raqamli transformatsiya korxonalar va tashkilotlar o'z manfaatdor tomonlariga ko'proq qiymat berish uchun o'z ish uslubini o'zgartirganda yuz beradi. Muvaffaqiyatli transformatsiyani ta'minlaydigan texnologiya turi ikkinchi darajali masala hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyani kengaytirish va chuqurlashtirish 10-15 yil oldingi vaziyatga nisbatan murakkabroq. Shuning uchun korxonalar, avvalo, boshidayoq faqat ma'lum vaqtdan keyingina o'zini oqlaydigan katta xarajatlarga tayyor bo'lish zarur. Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar darhol ijobiy samara bo'lishini kutadi, buning esa har doim ham iloji yo'q. Jarayonlarni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish, xodimlarni yangicha ishlashga o'rgatish, mijozlarni esa mahsulotlar va xizmatlar to'g'risida xabardor etish talab etiladi. Bundan tashqari, rahbariyat va xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish ustida ishlash ham ijobiy natija beradi, albatta. Butun jahondagi kompaniyalar yuqoridagi sanab o'tilgan bosqichlarga doimiy ravishda duch keladilar [3].

O'tgan asrning oxirida ham naqd bo'lmagan raqamli pul rasmiylashtirilgan edi. Ular markaziy banklar tomonidan chiqarilgan va ular depozit pul deb atalar edi. Endi yangi pul to'plami paydo bo'ladi, bu shaxsiy raqamli pul deb ataladi. Ko'pgina mutaxassislar fikriga ko'ra, bu odamlar uchun hayotni osonlashtirmaydi. Shu bilan birga, yoshlarning yangi texnologiyalarga moslashishi osonroq bo'lgan raqamli iqtisodiyotdagi yoshlarning ahamiyati katta yoshdagilarga qaraganda muhimdir.

Raqamli transformatsiyaning an'anaviy tizimdan asosiy farqi samaradorlikning keskin oshishida hisoblanadi. Shuning uchun transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishi, odatda yangi biznes modellarni yaratilishiga olib keladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida *raqobat kurashining tuzilishi* va xarakteri ham butkul o'zgarib ketadi. Raqobat raqamli kompaniyalarning yanada rivojlanishining asosiy vositasi bo'lib, bozorning yangi ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash, monopoliyalarning shakllanishiga to'sqinlik qilish; shuningdek, iste'molchilar o'z huquqlarini himoya qilishlari va yaxshiroq mahsulotlar olishlarini ta'minlaydi. Masalan, yo'lovchilar tashish bozoridagi agregator-kompaniyalar (GettTaxi, Yandex.Taxi kabilar) transport kompaniyalarning ish faoliyatiga ko'pgina o'zgarishlar kiritib, ularni iste'molchilarga ancha yaqinlashtirishga erishdilar [4].

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular farovon kelajak uchun yangi yo'llar va imkoniyatlar yaratadi, shu bilan bir qatorda ular yangi vazifalarni ham qo'yadilar. Biroq, raqamli texnologiyalar o'z platformalarining yorqinligi va samaradorligi bilan hayratda qoldirgan bo'lsa-da, ular hozirgacha yuqori mahsuldorlik o'sishida kutilgan dividendni to'liq yetkazib bermadi. Darhaqiqat, so'nggi ikki o'n yillikda ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yalpi hosildorlikning o'sishi sekinlashdi. Natijada, iqtisodiy o'sish pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Chunki bugungi aqlli mashinalarning imkoniyatlarini to'laqonli amalga oshirish uchun uni qo'llamoqchi bo'lgan kompaniyalar va ularning mutaxassislari ham aqlli bo'lishi kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotlarida raqamli transformatsiya yaratgan yangi imkoniyatlarda iqtisodiy subyektlarning notekis ishtirok etish holatlari kuzatilmoqda. Ko'pchilik sanoat va firmalar, ishchi kuchi va jamiyatning turli qatlamlari bo'ylab ortda qolmoqda [5].

Natijalar va muhokamalar: Raqamli iqtisodiyot hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi shuningdek, sanoat tarmoqlari hamda xizmat ko'rsatishni samarali rivojlantirishni rag'batlantiradi. Iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yirik va kichik korxonalar o'rtasida mahsulotlarni rag'batlantirish uchun teng imkoniyatlar yaratadi, bu o'z faoliyatining samaradorligini oshiradi va sohada raqobatni ta'minlash uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Axborot texnologiyalari yordamida xarajatlarni kamaytirish va ayni paytda iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirish uchun bunday imkoniyat

mavjud. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni hisobga olgan holda bozorda kompaniyalarning pozitsiyasi tobora murakkablashib bormoqda. Strategik qarorlar qabul qilish jarayonida xavf va noaniqlik darajasi oshadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizdagi kompaniyalarning raqamli iqtisodiyotga o'tishi va global bozorda o'z o'rnini topishi uchun ularni rag'batlantirish zarur.

2023 yildagi tashqi savdo aylanmasiga(TSA) yuqori ulushga ega bo'lgan 10 ta chet davlatlar AQSH Dollari qiymatida

№	Davlatlar	Eksport	Import	Jami TSA	TSA nisbatan eksport hajmi %
1	XXR	35184,7	174143,4	209328,1	16,8
2	Turkiya	86200	17047,4	103247,4	83,5
3	Rossiya F	71020,8	28304,6	99325,4	71,5
4	BAA	42404,6	2207,5	44612,1	95,1
5	Qozog'iston	13603,7	16965,8	30569,5	44,5
6	Pokiston	25692,7	1727,5	27420,2	93,7
7	AQSH	23486,1	2992,3	26478,4	88,7
8	Tojikiston	16957,5	831,2	17788,7	95,3
9	Polsha	16356,8	1168,5	17525,3	93,3
10	Latviya	107,5	15837,4	15944,9	0,7
11	Boshqa davlatlar	95099,6	48246,9	143346,5	66,3
	Jami:	426114	309472,5	735586,5	57,9

Raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, yetakchi xalqaro texnologik kompaniyalar bilan o'zaro hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, innovatsion ishlanmalar bo'yicha zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish. Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Mintaqaviy darajadagi oqilona iqtisodiy tizimni shakllantirish barqaror iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash, mintaqaning rivojlanish sohalari va yo'nalishlarini nafaqat zamonaviy sharoitlarda raqamli shakllantirishni emas, balki birinchi navbatda, inson resurslarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yo'li bilan davlat-xususiy sektor hamkorligi asosida iqtisodiy va innovatsion rivojlanish sarmoyasi shakllantiriladi.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

"Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir" — Prezidentimizning mazkur so'zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta'minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni

soddalashtirish, yangi innovatsion g'oyalar realizatsiyasiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi PF6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son.
3. World Economic Forum. Beyond Fintech: A Pragmatic Assessment Of Disruptive Potential In Financial Services, 2017.
4. R.H.Ayupov, G.R.Baltaboeva//Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1 fevral, 2019-yil (3-4 bet).
5. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – B. 151-156.

УЎК 336(075.8)

МАМЛАКАТДА ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИНИНГ ХУДУДИЙ ВА ТАРМОҚЛАР РИВОЖЛАНИШИДАГИ РОЛИ

К.Р. Адильчаев, мустақил тадқиқотчи, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус

Аннотация. Мазкур мақолада мамлакатда қимматли қоғозлар бозорининг ҳудудий ва тармоқлар ривожланишидаги роли баён этилган. Қимматли қоғозлар бозорида тузилган савдо битимлари сони бўйича ТОП-10 рейтингдаги акциялар эмитентлари келтирилган. "Тошкент" РФБ биржа котировка варақасида листинг тоифалари бўйича кўрсаткичлари ва қимматли қоғозлар бозори кўрсаткичларининг ҳудудий тақсимоли таҳлили амалга оширилган. Таҳлил натижаларига кўра, мамлакатда қимматли қоғозлар бозорининг ҳудудий ва тармоқлар ривожланишидаги ролини оширишга доир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: қимматли қоғозлар бозори, институтлар концентрацияси, банк ва сугурта ташиқлотлари, биржа листинги, лизинг, кичик бизнес, реал сектор, хусусийлаштириш, облигация.

Аннотация. В данной статье описывается роль фондового рынка в развитии регионов и отраслей страны. Перечислены эмитенты акций, входящие в ТОП-10 рейтинга по количеству заключенных торговых сделок на фондовом рынке. В котировочном листе РФБ «Ташкент» проанализированы показатели категорий листинга и регионального распределения показателей рынка ценных бумаг. По результатам анализа сформулированы предложения и рекомендации по повышению роли фондового рынка в региональном и отраслевом развитии страны.

Ключевые слова: фондовый рынок, концентрация учреждений, банковские и страховые организации, биржевой листинг, лизинг, малый бизнес, реальный сектор, приватизация, облигации.

Abstract. This article describes the role of the stock market in regional and sector development in the country. Listed are issuers of shares in the TOP-10 rating in terms of the number of trading transactions concluded on the stock market. "Tashkent" RFB stock exchange quotation sheet analyzed the indicators of listing categories and regional distribution of securities market indicators. According to the results of the analysis, proposals and recommendations have been made to increase the role of the stock market in regional and industry development in the country.

Key words: stock market, concentration of institutions, banking and insurance organizations, stock exchange listing, leasing, small business, real sector, privatization, bond.

Кириш. Жаҳонда бозор иқтисодиётининг таркибий қисми ҳисобланган қимматли қоғозлар бозори мамлакатнинг иқтисодий ривожланишида муҳим ўрин тутди. Тараққий этган мамлакатларда қимматли қоғозлар бозорига иқтисодиётнинг ривожланиш барометри сифатида қаралади ва унинг воситасида жамғармаларни инвестицияларга айлантириш

вазифаси бажарилади. Жаҳон Банки маълумотларига кўра, “2022 йилда жаҳонда қимматли қоғозлар бозори капитализацияси ҳажми 2021 йилга нисбатан 15,7 фоизга пасайган. 2023 йилда эса мазкур кўрсаткич жаҳонда ЯИМга нисбатан 107,2 фоизни ташкил этиб, 112,0 трлн АҚШ долларни ташкил этган [1]”. Умуман олганда, ўтган даврда бозор капитализацияси беқарор тенденцияни қайд этган. Бунга, COVID-19 пандемияси, Европада молиявий ресурслар инқирози, Евроосиё ва Яқин Шарқ минтақаларида содир бўлган геосиёсий вазиятнинг мураккаблашуви кабиларнинг таъсири ҳам кучли бўлмоқда.

Молия бозоридаги сўнгги ўзгаришлар Ўзбекистон қимматли қоғозлар бозори (ҚҚБ) иқтисодиётни модернизация қилиш жараёнида хусусий инвестицияларни жалб қилувчи асосий механизмлардан бири сифатида тўлиқ намоён бўлмаётганлиги сабабли унинг миллий иқтисодиётдаги роли ҳанузгача пастлиги билан белгиланади. Бу ўринда миллий ҚҚБ давлатнинг замонавий макроиқтисодий сиёсати ва унинг асосида қабул қилинган капитал бозорини ривожлантиришга доир норматив ҳужжатларнинг ижроси талабларга тўлиқ жавоб бермаётганини ҳам англатади.

Ушбу фикрларни тадқиқ этиш мақсадида ҚҚБнинг мамлакатимиз ҳудудлари ва тармоқлари иқтисодиётидаги ролини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун қуйидаги саволларга жавоб топиш ўринли, деб ҳисоблаймиз:

- 1) “ҚҚБ ҳудудлар бўйича институционал таркиби тузилмасининг амалдаги ҳолати қай даражада ривожланган?”;
- 2) “ҚҚБ фаоллигининг тармоқлар бўйича тақсимланиши қандай ҳолатда?”;
- 3) “ҚҚБнинг давлатнинг макроиқтисодий сиёсати доирасида амалга оширилаётган ҳудуд ва тармоқлар иқтисодиётини модернизация қилиш ва инвестиция дастурларини бажарилишидаги роли талаб даражасидами?”.

Адабиётлар таҳлили. Қимматли қоғозлар бозорининг илмий-назарий асосларини тадқиқ этиш натижаларини жамлаган ҳолда, хорижлик олимларнинг илмий-назарий қарашлари, тадқиқот натижаларини қуйидагича акс эттиришни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз:

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, илмий тадқиқот ишларида қимматли қоғозлар бозорига оид универсал қараш шаклланмаган.

1-жадвал

Қимматли қоғозлар бозори кўрсаткичларининг ҳудудий тақсимоти, %

2023 ҳолатига

Ҳудудлар	Институционал таркиби	Акциялар эмиссияси	ҚҚБ орқали инвестициялар ҳажми	Савдо ҳажми
Қорақалпоғистон Республикаси	4,28	0,15	1,18	0,023
Андижон вилояти	9,01	2,00	2,93	1,08
Бухоро вилояти	5,38	0,08	0,74	0,28
Жиззах вилояти	2,36	0,41	0,03	0,01
Қашқадарё вилояти	5,47	1,81	0,24	0,87
Навоий вилояти	2,64	0,64	1,34	0,39
Наманган вилояти	4,93	0,78	6,09	0,16
Самарқанд вилояти	4,98	0,53	10,9	0,51
Сурхондарё вилояти	2,94	0,85	3,4	0,17
Сирдарё вилояти	2,09	0,02	0,60	0,05
Тошкент вилояти	7,82	0,69	14,6	9,5
Фарғона вилояти	6,62	2,32	11,7	1,13
Хоразм вилояти	3,58	0,71	11,6	0,06
Тошкент шаҳри	37,9	4,77	34,6	85,5
Марказлашган ҳолатдагиси	0,0	84,2	0,0	-
Жами:	100	100	100	100

Манба: Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги, Ўзбекистон Қимматли қоғозларнинг Марказий депозитарийси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган

Маҳаллий олимлардан, профессор Ж.Каримқуловнинг илмий тадқиқотларида Ўзбекистон иқтисодиётида қимматли қоғозлар бозори ролини ошириш масалалари

ўрганилган. Тадқиқот натижаларида “молиявий глобаллашув шароитида ривожланаётган дунёнинг барча мамлакатлари учун муҳим муаммо – иқтисодиётда ўз миллий қимматли қоғозлар бозори ролини ошириш, бунда иқтисодиётни модернизациялаш, саноатни янада ривожлантириш кабилар ҳисобланиши [2]” таъкидлаб ўтилган.

Қимматли қоғозлар бозорининг илмий-назарий асосларини тадқиқ этиш натижалари	
Deshui, Difang Huang, Chen	Қимматли қоғозлар бозори молиявий активлар бозори ҳисобланиб, юқори даражада ташкиллаштирилган институционал тузилмаларнинг яхлит механизмидир.
Anna Rutkowska- Ziarko	Энг йирик NYSE компанияларида рентабеллик коэффициентлари (ROA ва ROE) ва даромад ставкалари ўртасидаги ижобий корреляция аниқланди. Шунингдек, у корхона рентабеллигининг капитал бозоридаги рентабеллик даражасига таъсирини таҳлил қилди.
Morgan Stanley	Ривожланаётган бозорлар индексига А-акцияларни киритиш учун қисқа ва узоқ муддатли бозор реакциясини баҳолайди. Узоқ муддатда индексдаги А-акцияларни киритиш фонд бозорининг синхронлашувига, ликвидлилик ва айланма тезлигига таъсир кўрсатиш орқали бозор сифатини яхшилаши мумкин. Шунинг учун, ривожланаётган мамлакатлар капитал бозорларини фаол равишда халқаролаштириш, хорижий инвесторларни кенг жалб этиш, инвесторларнинг хабардорлигини ошириш ва капитал бозори тузилмаларини яхшилашни таклиф қилган.
Chaoyi Chen, Nikolay Gospodinov, Aleks Maynard, Elena Pesavento	Қимматли қоғозлар бозорида демографик кўрсаткичлар ҳам акцияларни баҳолашнинг муҳим омили эканлиги таъкидланган. Узоқ муддатли демографик прогнозларнинг мавжудлиги қимматли қоғозлар бозори баҳоси ва даромадларининг узоқ муддатли прогнозларини тақдим этишга имкон бериши ҳамда акциялар нархининг пасайиши натижасида дивиденд-нарх нисбатининг ошиши автоматик равишда салбий даромад келтиришига амин бўлганлар.
Konstantin Kuck, Karsten Schweikert	Молиявий активларнинг нархини аниқлаш жараёнида spot ва fuchers бозорларининг вақт бўйича ўзгарувчан аҳамиятини ўрганади. Улар танлаб олиш даврида вақт бўйича ўзгарувчан динамика ва инновацион ковариация матрицаларини таъминлайди.
Kempbell va Shiller	Қимматли қоғозлар бозори, аввало фонд биржалари. Мазкур бозорлар молиявий активларнинг талаб ва таклифини акс эттиради. Тадқиқотчилар томонидан таклиф этилган "no bubble present value" моделига кўра, дивиденд-нарх нисбатидаги ўзгариш келажакдаги акцияларнинг даромадлари, дивидендларнинг ўсиши ёки ҳар иккаласининг ўзгаришидан келиб чиқади.

1-расм. Қимматли қоғозлар бозорининг илмий-назарий асосларини тадқиқ этиш натижалари

Манба: Муаллиф томонидан тадқиқот натижалари асосида тузилган. Тадқиқотчиларнинг илмий ишлари номлари фойдаланилган адабиётлар рўйхатида келтирилган

Тадқиқот методологияси. Мақолада тизимлаштириш, статистик кузатув, абстракциялаш, илмий шарҳлаш каби усуллардан кенг фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Юқоридаги саволларга жавоб топиш мақсадида қуйидаги таҳлилларни амалга оширамиз.

ҚҚБ иштирокчилари ҳудудлар бўйича тақсимланган тармоқ корхоналари ва маҳаллий

хокимликлар бўлганлиги учун уларнинг ривожланиши ва ҚҚБ тенденциялари ўзаро боғлиқликда кечади. Худудлар кесимидаги статистик маълумотлар асосида таҳлилий тузилган 1-жадвал кўрсаткичларини келтириш мумкин. Ушбу маълумот ва кўрсаткичлар таҳлили куйидагиларни кўрсатади.

Худудлар бўйича ҚҚБнинг институционал таркибида институтлар концентрацияси энг юқори бўлган Тошкент шаҳри биринчи ўринни эгаллаб турибди – 37,9%. Ундан кейинги ўринларни 5-10 фоиз оралиғидаги ҳиссага эга бўлган вилоятлар гуруҳи – мос равишда Андижон – 9,01%, Тошкент – 7,82%, Фарғона – 6,62%, Қашқадарё – 5,47% ва Бухоро – 5,38% – вилоятлари эгаллаган. Кейинги гуруҳга 3-5 фоиз улушгача эга бўлган худудлар – Самарқанд – 4,98%, Наманган – 4,93%, Қорақалпоғистон Республикаси– 4,28% – киради. Қолган вилоятларни охириги – институтлар концентрацияси ва фаоллиги суёт бўлган гуруҳга киритиш мумкин. Зеро, шаҳар худудида энг йирик компанияларнинг (жумладан банк ва суғурта ташкилотларининг 98%) 85 фоизи жойлашган бўлиб, уларнинг барчаси Марказий аппарат томонидан назорат қилинади ва текширилади. Шунинг учун акциялар эмиссияси салмоғи асосан Тошкент шаҳрига тўғри келади – 88,97%. ҚҚБ орқали жалб қилинган инвестицияларнинг салмоқли улуши Тошкент шаҳрига – 34,6%, Тошкент вилояти – 14,6%, Фарғона вилояти – 11,7%, Хоразм вилояти – 11,6%, Самарқанд вилояти – 10,9%, Наманган вилояти – 6,09%, Сурхондарё вилояти – 3,4%, Андижон – 2,93% вилоятларига тўғри келади. Қолган худудларда инвестицион фаоллик даражаси суёт, айниқса Жиззах вилоятида – 0,03% ташкил этган. ҚҚБ айланмаси ҳажмининг 85,5 фоизи Тошкент шаҳрига ва Тошкент вилоятига 9,5% тўғри келади. Қолган худудларнинг улуши 0-1,2 фоиз атрофида.

Статистик маълумотлари асосида таҳлил қилинган 2-жадвал кўрсаткичларини келтириш мумкин. Ушбу маълумотлар ва кўрсаткичлар таҳлили куйидагиларни кўрсатади.

2-жадвал

Қимматли қоғозлар бозори фаоллигининг тармоқлар тақсими%

2023 ҳолатига

Тармоқлар	Савдо айланмаси (СА) таркиби	Иккиламчи СА таркиби	Жисмоний шахслар фаоллиги	Юридик шахслар фаоллиги	Хорижий инвестициялар
Банк соҳаси	43,8	30,7	53,6	42,1	-
Қурилиш	6,0	7,2	15,0	4,4	4,4
Агросаноат	7,3	8,7	14,5	6,0	4,3
Суғурта соҳаси	8,2	10,2	8,8	8,1	-
Саноат	27,1	33,5	1,5	31,4	57,3
Алоқа	0,2	0,4	0,1	0,2	12,6
Ижтимоий соҳа	2,0	2,0	2,1	1,9	0,5
Транспорт	0,5	0,7	2,1	0,2	13,4
Лизинг	2,0	2,3	0,0	2,1	-
Бошқалар	3,3	4,1	2,4	3,4	6,3
Жами:	100	100	100	100	100

Манба: Ўзбекистон Республикаси Истикболли лойиҳалар миллий агентлиги, Ўзбекистон Қимматли қоғозларнинг Марказий депозитарийси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

ҚҚБ савдо айланмасининг энг катта улуши (2-жадвал) молиявий хизмат кўрсатувчи соҳага тегишли бўлиб, уларнинг умумий салмоғи - 54% (48,4 млрд.сўм) ташкил этди. Ушбу сумманинг асосий қисми банклар ҳиссасига 43,8% (39,4 млрд.сўм) тўғри келади. Биржа савдоси амалиётига кўра банкларнинг етакчилиги биржа листингига киритилган, қимматли қоғозларнинг ликвидлилиги юқори бўлган компаниялардан 18 таси банклар эканлиги билан асосланади. Шунингдек, қимматли қоғозлар савдо тизими акциялари айланмаси бўйича амалга оширилган умумий битимларнинг 27,1% (24,4 млрд.сўм) га тенг бўлган қисми саноат корхоналари (тармоғи) ҳиссасига тўғри келади. Етакчи учликка биржавий қимматли қоғозлар савдо айланмасининг 7,3% ни ташкил қилувчи агросаноат комплекси корхоналари ҳам киради. Ушбу кўрсаткич бўйича энг кам улуш транспорт – 0,5% ва алоқа – 0,2% тармоқлари ҳиссасига тегишлидир. Қимматли қоғозлар иккиламчи савдосининг энг катта улуши саноат тармоғига – 33,5% тегишли бўлса, кейинги ўринларда банклар – 30,7%, суғурта – 10,2%, агросаноат – 8,7% ва қурилиш – 7,2% эгаллаб туришибди. Ушбу кўрсаткич бўйича энг кам улуш аввалгидек

транспорт – 0,7% ва алоқа – 0,4% тармоқларига тегишлидир. Агарда банклар, суғурта ва лизингни барчасини молиявий хизмат соҳалари деб оладиган бўлсак, ушбу соҳа – 43,2% билан етакчиликни ўз қўлида тутиб турибди. Бу эса қимматли қоғозларнинг иккиламчи савдоси умумий айланмасининг деярли ярми молия-кредит соҳасига тегишли ташкилотлар орқали амалга оширилганлигини билдиради.

ҚҚБда фаолият юритаётган инвесторлар тоифалари (жисмоний ва юридик шахслар)га тегишли кўрсаткичлардан шуни кўришимиз мумкинки, иқтисодиёт тармоқларидаги корхоналарнинг қимматли қоғозларига салмоқли инвестиция киритган юридик шахс сифатида иштирок этувчи инвесторларнинг асосий қисмини кичик бизнес фаолияти билан шуғулланувчи субъектлар ташкил этади. Бунда киритилган инвестицияларнинг умумий ҳажмига нисбатан уларнинг инвестициялари йўналтирилган асосий тармоқлар банклар – 42,1% ва саноат – 31,4% ташкил этмоқда (“Тошкент” республика фонд биржаси маълумотлари).

Тармоқлар бўйича инвестицияларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, жисмоний шахслар томонидан амалга оширилган умумий инвестицияларнинг 62,4 % ташкил қилган молиявий соҳадаги акциядорлик жамиятларининг қимматли қоғозларига жисмоний шахслар сифатидаги инвесторларнинг қизиқиши юқори бўлмоқда. Бундан ташқари, қурилиш соҳасидаги - 15% ва агросаноат комплексидаги – 14,5% корхоналар жисмоний шахс сифатидаги инвесторларни жалб қилишга сазовор бўлдилар. Лизинг корхоналари эса бирорта ҳам жисмоний шахс сифатидаги инвесторларни жалб қила олмадилар. Хусусийлаштирилган тармоқ корхоналарига жалб қилинган чет эл инвестицияларининг охириги беш йил ичида сезиларли ортгани давлатнинг ушбу соҳадаги саъй-ҳаракатлари самараси деб ҳисоблаш мумкин. 2-жадвалнинг охириги устуни маълумотларидан кўришиб турибдики, ҚҚБ орқали иқтисодиёт реал секторининг хусусийлаштирилган корхоналарига тармоқлар кесимида энг кўп саноатга – 57,3%, транспорт соҳасига – 13,4% ва алоқа соҳасига – 12,6% инвестиция киритилган. Кўришиб турибдики, хорижий инвестицияларнинг асосий қисми реал секторга йўналтирилган.


Таъкидлаш жоизки, 2023 йилда битимлар сони бўйича ТОП-10 рейтингдаги акциялар эмитентлари қуйидагилар бўлди:

SQBN	49 140
НМКВ	19 509
KASU	13 157
KVTS	8 644
IPTB	8 491
IPTB1	8 306
URTS	8 037
UZMK	7 188
CBSK	7 174
НМКВ1	6 385

2-расм. Қимматли қоғозлар бозорида тузилган савдо битимлари сони бўйича ТОП-10 рейтингдаги акциялар эмитентлари, 2023 йил

Манба: (“Тошкент” республика фонд биржаси маълумотлари)

2023 йилда битимлар сони бўйича ТОП-10 рейтингдаги акциялар эмитентлари таҳлиллари шуни кўрсатадики, фонд биржасининг акциялар бозори G1- “Main Board” майдонида энг кўп “O‘zsanoatqurilishbank” АТБнинг /SQBN/ оддий акциялари билан савдо битимлари тузилган бўлиб, 2023 йилда уларнинг сони 50 мингтага яқинлашган. Шунингдек, жами битимлар таркибида 19 509 та тузилган битим билан “Hamkorbank” АТБнинг /НМКВ / акциялари юқоридаги Топ 10 рейтингда иккинчи ўринни эгаллаган. Бундан ташқари, тузилган савдо битимлари сони бўйича ТОП-10 рейтингдан ўрин эгалланган “Chilonzor buyum savdo kompleksi” АЖнинг /CBSK/ оддий акциялари (7174 та) ҳамда “Hamkorbank” АТБнинг /НМКВ1/ имтиёзли акциялари (6 385 та) эгаллаганлигини кўриш мумкин.



3-расм. Қимматли қоғозлар бозорида тузилган савдо битимлари ҳажми бўйича ТОП-10 рейтингдаги акциялар эмитентлари, 2023 йил


Манба: (“Тошкент” республика фонд биржаси маълумотлари)

Қимматли қоғозлар бозорида тузилган савдо битимлари ҳажми бўйича ТОП-10 рейтингдаги акциялар эмитентлари бўйича, рейтингда биринчиликни “Ravnaq-Bank” АТБ эгаллаб, таҳлилий йилда фонд биржаси савдоларида тузилган битимлар ҳажми борасида оддий акциялари билан қайд этилганлигини кўрамиз. Ушбу оддий акцияларнинг савдо ҳажми 157,34 млрд сўмдан иборат бўлган. Рейтингниг ундан кейинги ўринларини “Perfect Insurance” АЖнинг /PFIS/ ҳамда “UzAuto Motors” АЖнинг /UZMT/ акциялари банд этган. Эмитентлар ушбу акциялар билан мос равишда 51,60 млрд ҳамда 23,30 млрд сўмлик савдо битимларини тузишган. Биринчи ўнталикини эмитентлар ҳисобланган “Toshkent Yog’-Moy Kombinati” АЖнинг /TUMK/ ҳамда “Ohangaronement” АЖнинг /OHSM/ оддий акциялари яқунлаган. Ушбу эмитентлар мос равишда фонд биржаси савдо яқунларига кўра, 4,51 млрд ҳамда 4,35 млрд сўм оддий акциялар савдосига оид битимлар тузилган.


17. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. –Т., 2005.–244 б.;
18. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Высшие учебные заведения в формировании национальной инновационной системы страны // Иқтисодий ва инновацион технологиялар. – 2012. – 4.;
19. Бекмуродов А.Ш. Интерактивное обучение и информатизация образования – важнейшее условие для выпуска профессиональных и компетентных кадров // Иқтисодий ва инновацион технологиялар. – 2011. – 1.;

20. Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Т., 2004. – 170 с.;
21. Зайнутдинов Ш.Н., Очилов А.О. Олий таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим. – 2010. – 2. – 83-87-б.;
22. Икрамов М.А. Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан // Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития. Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С.167–171.;
23. Касымова Д. Пути взаимодействия субъектов рынка труда: работник–работодатель // Иқтисодиёт ва таълим. – 2011. – 6. – С. 22–25.;
24. Рахимова Д.Н. Управление процессами развития и использования трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ. – Т., 2000. – 225 с.;
25. Рахманбаева Р.А. Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Автореф.дисс. ... д-ра эконом. наук. – Т., 2012. – 50 с.;
26. Саидов М.Х., Исманов М.А. Менеджмент и инновации современного профессионального образования. – Т., 2002. – 79 с.;
27. Очилов А.О., Самадов А.Н. Модель управления трудоустройством выпускников высших образовательных учреждений в Узбекистане // «Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития». Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С. 276–283.;
28. Юсупов А.Т. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар давлат аттестацияси: методологик-услубий, норматив-ҳуқуқий ва илмий-ташқилий йўналишлари / А.Т. Юсупов. – Т., 2013. – 648 б.;
29. Қаюмова Н.О. Ўзбекистонда иқтисодий ривожланишнинг янги сифат босқичи жараёнларини эконометрик тадқиқоти. Иқт. фанл. докт. ... дисс. – Т., 2012. – 317 б. ил.;
30. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. – Т., 2006. – 592 б.; Қуролов Қ.Қ. Бозор муносабатлари шароитида иқтисодий таълим тизимининг такомиллашуви қонуниятлари. Иқт. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 91 б.

УЎК: 338.24(575.1)

**ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК ЛОЙИҲАЛАРИНИ
АМАЛГА ОШИРИРИШ ВА БОШҚАРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ТАҲЛИЛИ**
*А.М. Маткаримов, директор ўринбосари, ТТА Урганч филиали қошидаги
Академик лицейи, Урганч*

Аннотация. Мазкур мақолада хорижий давлатларда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш ва бошқариш тенденциялари таҳлили, мавжуд тенденцияларини статистик кузатувчи усулларининг натижалари асосида кўриб чиқилади.

Калим сўзлар: давлат, бизнес, давлат-хусусий шерикчилиги, бошқарув, шерикчилик шартномаси, тенденция..

Аннотация. В данной статье рассмотрен анализ тенденций реализации и управления проектами государственно-частного партнерства в зарубежных странах на основе результатов методов статистического наблюдения существующих тенденций.

Ключевые слова: государство, бизнес, государственно-частное партнерство, управление, договор о партнерстве, тенденция.

Abstract. This article examines the analysis of trends in the implementation and management of public-private partnership projects in foreign countries based on the results of methods of statistical observation of existing trends.

Key words: state, business, public-private partnership, management, partnership agreement, trend.

Кириш. Мамлакат иқтисодиётида кичик бизнес ҳамда хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши ва мулк улушида хусусий мулкнинг устуворлиги аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг айрим соҳаларида, инновацион фаолиятни ривожлантиришда давлат ва хусусий мулкнинг ҳамкорлигини талаб этади. Шу жараёнда давлат-хусусий шериклиги юзага келади. Бугунги кунда бу борада жаҳондаги ривожланган ва кўпгина ривожланаётган давлатларда етарлича тажрибага эга. Иқтисодиётнинг турли соҳа ва тармоқларида ДХШ бўйича фаолият юритаётган олим ва амалиётчи мутахассисларнинг қайд этишича, ДХШ механизми давлат ва

хусусий сектор ҳамкорлиги натижасида турли иқтисодий-ижтимоий муаммолар ўз ечимини топмоқда.

Давлат-хусусий шерикчилик механизми – давлат инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишдаги хусусий инвестицияларни жалб этиш усулларида бири бўлиб, ушбу механизмда давлат ва хусусий шерик ҳисобланган томонлар келишилган шартнома бўйича узоқ муддатли ёки қисқа муддатли ўзаро ҳамкорлик олиб борган ҳолда лойиҳани амалга оширади. Бу орқали нафақат инфратузилма объектини барпо этишда шартнома томонлари шериклик қилади, балки уни кейинчалик фойдаланиш ҳамда бошқа ҳуқуқларда ҳам ўзаро ҳамкорликни давом эттиришни мақсад қилади.

Мавзунинг долзарблиги. Давлат-хусусий шериклик (ДХШ) бугунги кунга келиб муҳокама марказидаги мавзулардан бири ҳисобланади. Жаҳон тажрибасининг кўрсатишича, кўпгина ижтимоий-иқтисодий аҳамиятга молик муаммолар ДХШ механизмидан фойдаланган ҳолда самарали ҳал этилмоқда. Давлат-хусусий шерикчилик механизми – давлат инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишдаги хусусий инвестицияларни жалб этиш усулларида бири бўлиб, ушбу механизмда давлат ва хусусий шерик ҳисобланган томонлар келишилган шартнома бўйича узоқ муддатли ёки қисқа муддатли ўзаро ҳамкорлик олиб борган ҳолда лойиҳани амалга оширади. Бу орқали нафақат инфратузилма объектини барпо этишда шартнома томонлари шериклик қилади, балки уни кейинчалик фойдаланиш ҳамда бошқа ҳуқуқларда ҳам ўзаро ҳамкорликни давом эттиришни мақсад қилади.

Ўрганилганлик даражаси. ДХШ лойиҳалари орқали хўжалик юритувчи субъектларни қўллаб-қувватлаш, давлат ва хусусий сектор ўртасидаги иқтисодий муносабатлар тизимини шакллантириш, ДХШ механизми орқали инвестиция лойиҳаларини бошқариш тизимини такомиллаштириш масалалари J.M. Keynes [1], Y.A.Shumpeter [2], S.P.Kukura [3], O.A.Романова [4], B.A.Кабашкин [5], B.Г.Варнавский, A.B.Клименко, B.A.Королева [6], B.П.Д.Ходжаева [7], У.И.Джуманиязовларнинг [8] илмий тадқиқотларида ўрганилган.

Мазкур тадқиқотда давлат-хусусий шериклик асосида лойиҳаларни амалга ошириш ва бошқариш таҳлили, мавжуд тенденцияларини статистик кузатувчи усулларидаги натижалари асосида кўриб чиқилади. Амалга оширилган тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатмоқдаки, давлат-хусусий шериклик асосида лойиҳалар узоқ муддатли шартнома ёки битим ҳисобланиб, унинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд:

1-хусусият: лойиҳа билан боғлиқ рисклилик даражаси, унинг ортидаги молиявий йўқотишлар ҳамда молиявий манбалар шериклик томони – “хусусий сектор” зиммасига олади;

2-хусусият: Лойиҳага молиявий ресурслар давлатнинг талаби мавжуд соҳаларга киритилади: инфратузилма тармоқларини ривожлантиришга қаратилган соҳалар, яъни аэропортлар, йўллар (автомобил ва темир йўллар), тиббиёт ва таълим, энергетика каби соҳалар бўлиши мумкин;


3-хусусият: давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳалар, одатда уларнинг муддати 3 йилдан 49 йилгача. Мазкур тоифадаги лойиҳалар мураккаб бўлади. Сабаби, вақт ўтиши билан асосий омиллар: нарх, истеъмолчи, мамлакат демографияси каби кўрсаткичлар ўзгаришга учраши, табиий ҳолат. Шу сабабдан ҳам мазкур йўналишдаги лойиҳалар пухта ҳисоб-китобларга талаб этади;

4-хусусият: давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳаларни тайёрлашда “ғоя”дан тортиб, тайёр “шартнома”ларни имзолашга учун узоқ вақт, масалан 18 ойгача вақт кетади. Давлат-хусусий шериклик механизминини бошқариш тизимида замонавий усуллари жорий этиш долзарбдир.

5-хусусият: Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг асосан ижтимоий характерга эга эканлиги.

Таҳлил ва натижалар. Жаҳон бакининг маълумотларига кўра, дунё COVID-19 “самараси”дан сўнг ҳам паст ҳамда ўрта даромадли давлатларда ялпи ишлаб чиқариш 2022 йил якунида ўсиш кўрсаткичларини қайд этган. Худди шу сабабдан ушбу йилда инфратузилма тармоқларини яхшилаш ва ривожлантириш учун хусусий сектор томонидан инвестиция мажбуриятларини бажаришда бирқанча ютуқларга эришилди. Жумладан, пандемиядан кейин

инфратузилма тармоқларини ривожлантириш ва уларни олдинги ҳолатига тиклашда давлат-хусусий шериклик лойиҳалари орқали 263 та лойиҳа асосида умумий қиймати 91,7 млрд АҚШ доллари миқдоридagi инвестициялар киритилди. Ушбу лойиҳаларнинг умумий қиймати паст ҳамда ўрта даромадли мамлакатлардаги ЯИМнинг ўртача 0,25 фоизини ташкил қилган [9].



1-расм. Паст ва ўрта даромадли давлатларда давлат-хусусий шериклик асосида амалга оширилган лойиҳалар [10]

Шунингдек, глобал миқёсда кузатилаётган иқлим ўзгариши натижасида прогноз қилинаётган салбий таъсирлар сабаб яқин муддат давомида инвестициялар, жумладан давлат-хусусий шериклик лойиҳалари учун молиявий ресурслар оқимини ҳам шубҳа остига қўймоқда.

Паст ва ўрта даромадли давлатларда 2021 йилда давлат-хусусий шериклик асосида жами 235 та лойиҳа амалга оширилиб, ушбу лойиҳаларнинг умумий қиймати 74,5 млрд АҚШ долларини ташкил этган. Ушбу таҳлилий маълумот коронавирус пандемиясигача бўлган даражагача тикланиш давом этаётганлиги кўрсатмоқда. Шунингдек, 2022 йилда ушбу кўрсаткич ўртача кўрсаткичдан (2017-2021 йиллар) 4 фоизга ошган. Бироқ, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг умумий сони COVID-19дан олдинги 380 та лойиҳага нисбатан 263 тага камайганлигини кўрамиз. Юқоридаги расм маълумотларидан кўрамизки, 2022 йилда давлат-хусусий шериклик лойиҳалари бўйича инвестиция мажбуриятлари бўлган мамлакатлар сони 56 тага кўпайди. Ушбу кўрсаткич 2021 йилдаги 48 та, қолаверса, олдинги беш йилликдаги ўртача 51 тадан юқори ҳисобланади. Бу шунингдек, давлат-хусусий шериклик лойиҳалари бўйича инвестиция мажбуриятларини олган мамлакатлар сонидан коронавирус пандемиясидан олдинги даражага сезиларли даражада ўсиш кузатилган, деб хулоса чиқаришимиз ўринлидир. Шунингдек, Бенин, Лесото, Мальдив ороллари, Палау ва Тожикистон ўн йилдан кўпроқ вақт давомида биринчи марта давлат-хусусий шериклик лойиҳалари бўйича инвестиция операцияларини амалга оширди.

1-жадвал

2023 йилда дунё минтақалари бўйича давлат-хусусий шериклик лойиҳалари тенденциялари [9]


Минтақа номи	Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари ва иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари		
	Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари умумий қиймати (млрд АҚШ долл.)	Минтақа мамлакатлари ЯИМ ҳажми (млрд АҚШ долл.)	Минтақа мамлакатлари ЯИМдаги улуши, %
Шарқий Осиё ва Тинч океани	43,374	20 751,7	0,21
Европа ва Марказий Осиё	3,321	3 517,3	0,09
Лотин Америкаси ва Кариб денгизи	24,328	4 585,1	0,53
Яқин Шарқ ва Шимолий Африка	1,969	1 490,4	0,13
Жанубий Осиё	13,869	4 088,7	0,34
Саҳрои Кабир Африкаси	4,864	1 919,4	0,25

Аммо, шунга қарамасдан, узоқ давом этган иқтисодий ўсишнинг “секинлашув” тенденциялари эришилган ютуқларга соя солди, дейиш мумкин. Бунда, энг муҳим жиҳатлардан бири – Шарқий Осиё ҳамда Тинч океани, Лотин Америкаси, шунингдек Кариб ҳавзаси, Жанубий Осиёда коронавирус пандемиясидан олдинги даврда кузатилган давлат-хусусий шериклик лойиҳаларига жалб этилган инвестициялар оқимининг тикланганлигидир. Аммо, пандемиядан сўнг дунёда рўй бераётган сиёсий-ижтимоий вазият, минтақада давлатларидаги энергетика инқирозининг кузатилганлиги сабабли Европа ҳамда Марказий Осиёда давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳаларни амалга ошириш, ушбу лойиҳаларга инвестицияларни киритишда сезиларли камайиш тенденцияси ҳам кузатилган.

Юқорида келтирилган жадвал маълумотларидан кўринадики, Европа ва Марказий Осиё, Саҳрои Кабир Африкасидан ташқари деярли барча минтақаларда ўтган йилга нисбатан давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳаларида сезиларли даражада ижобий ўзгаришларни кўриш мумкин. Шарқий Осиё ва Тинч океани, Лотин Америкаси ҳамда Кариб ҳавзаси давлатларида давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳалар бўйича инвестициялар 2023 йилда коронавирус пандемиясидан олдинги даражага етиб олганлиги аҳамиятлидир. Бундан ташқари, Яқин Шарқ ва Шимолий Африкада таҳлил этилаётган – 2023 йилда олдинги йилга нисбатан давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳалар бўйича инвестициялар ҳажми сезиларли даражада ошган. Аммо, Бироқ, Саҳрои Кабир Африкаси минтақаси 2023 йилда давлат-хусусий шериклик лойиҳалари бўйича 2022 йилда киритилган инвестициялар даражасига эришди ҳамда биринчи бор давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳаларни амалга оширган давлатлари сони 19 тага етди. Амалга оширилган давлат-хусусий шериклик лойиҳаларнинг минтақалар ЯИМдаги улуши бўйича Лотин Америкаси ва Кариб денгизи мамлакатлари энг юқори кўрсаткичга эга бўлган, яъни ушбу минтақа давлатларида амалга оширилган давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг умумий ҳажми минтақа мамлакатлари ЯИМда 0,53 фоизни ташкил этган. Шунингдек, ушбу кўрсаткич Жанубий Осиё давлатларида 0,34 фоиз, Саҳрои Кабир Африкаси давлатларида 0,25 фоиз ва Шарқий Осиё ва Тинч океани давлатларида 0,21 фоиз, Яқин Шарқ ва Шимолий Африка ва Европа ва Марказий Осиё минтақаси давлатларида эса ушбу кўрсаткичлар қолган минтақа давлатларига нисбатан энг паст даражада.

Юқоридаги таҳлилларнинг давоми сифатида айтиш мумкинки, давлатлар миқёсида 2023 йилда давлат-хусусий шериклик лойиҳалари бўйича киритилган инвестициялар ҳажмида энг муваффақиятга эришган давлатлар – Хитой, Бразилия, Ҳиндистон, Индонезия ҳамда Вьетнамдир.

Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларининг асосий хусусиятлари бўлган инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишга қаратилганлигидир.



2-расм. Паст ва ўрта даромадли давлатларида инфратузилмани ривожлантиришга қаратилган давлат-хусусий шериклик лойиҳаларига киритилган инвестициялар таҳлили [9]

2023 йилда Шарқий Осиё ва Тинч океани минтақасига давлат-хусусий шериклик асосида амалга оширилган 78 та лойиха бўйича умумий қиймати 43,4 млрд АҚШ доллари миқдоридagi инвестициялар жалб этилган. Бу борда, энг юқори кўрсаткич, яъни минтақада амалга оширилган давлат-хусусий шериклик асосидаги инфратузилма лойиҳалари бўйича жалб этилган инвестицияларнинг 30 фоизидан ортиғи Хитой ҳиссасига тўғри келган. Ушбу давлатдаги давлат-хусусий шериклик асосидаги лойиҳалар асосан инфратузилма тармоқларининг автомобил йўллар соҳасига тўғри келган.

Хулоса. Юқоридагилар асосида айтиш мумкинки, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга оширишда давлат хусусий сектор вакилларининг молиявий ресурсларини аҳоли турмуш фаровонлигини ва ижтимоий соҳа ривожлантиришнинг устувор соҳаларига жалб этади. Мазкур лойиҳаларни амалга ошириш ва бошқаришнинг аниқ механизмлари ва усуллари ҳар бир давлатнинг иқтисодий ривожланиш шарт-шароитлари ва хусусий шерик билан келишув шартномаларини ишлаб чиқишига боғлиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Keynes J.M. General theory of employment, interest and money / Per. English prof. N.N. Lyubimova, under. ed. Doctor of Economics, prof. L.P. Kurakova. - Moscow: MIEMF, 2010.
2. Schumpeter J.A. History of economic analysis in 3 vols. - St. Petersburg: School of Economics, 2004.
3. Kukura S P. Theory of corporate governance / S P. Kukura - M.: Economics, 2004. - P. 105.
4. Романова О.А. Теория и практика развития государственно-частного партнерства. Вестник Уральского государственного технического университета. - 2007. - № 3. - С. 41.
5. Кабашкин В.А. Формирование и развитие партнерства государства и бизнеса в Российской Федерации: автореферат диссертации. док. экономические науки : 08.00.05 / В.А. Кабашкин. - М., 2007. - С. 23.
6. Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. М.: ГУ-ВШЭ, 2010
7. Ходжаев П.Д. Зарубежный опыт формирования и развития партнерства государства и региональных бизнес-структур. Вестник Российско-Таджикского (Славянского) университета. - Душанбе: РТСУ, 2014. - № 3 (46). - С. 102.
8. Джуманиёзов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий асослари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 3. 2017 йил. б. 9.
9. Жаҳон Банкнинг маълумотлари: Private Participation in Infrastructure (PPI) 2022 Annual Report. <https://ppi.worldbank.org>

УЎК 37.02

МАМЛАКАТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Ш.С. Сафаров, таянч докторант, Қарши давлат университети, Қарши.

Аннотация. Ушбу мақолада мамлакат миқёсидаги олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини тўғри ташкил этишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари, ўқув-услубий фаолиятни ташкил этиши ва бошқариши жараёнларининг иқтисодий таҳлили ҳақида фикр-мулоҳазалар, керакли таклиф ва тавсиялар келтирилган.

Калим сўзлар. Олий таълим, олий таълим тизими, ўқув жараёни, бошқарув, стратегия, олий таълим муассасалари, таълим сифати, таълим стандартлари

Аннотация. В данной статье содержатся комментарии, необходимые предложения и рекомендации по нормативно-правовой основе правильной организации образовательного процесса в высших учебных заведениях страны, экономический анализ организации и управления учебно-методической деятельностью.

Ключевые слова. Высшее образование, система высшего образования, образовательный процесс, менеджмент, стратегия, высшие учебные заведения, качество образования, образовательные стандарты.

Abstract. This article contains comments, necessary proposals and recommendations on the legal framework for the proper organization of the educational process in higher educational institutions of the country, an economic analysis of the organization and management of educational and methodological activities.

Keywords. Higher education, higher education system, educational process, management, strategy, higher education institutions, quality of education, educational standards

Кириш. Илмий манбалар ва амалий тажрибалардан маълумки, ҳар бир олий таълим тизимида ўқув-услубий фаолиятни жорий этиш ва уни такомиллаштиришда меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар муҳим аҳамиятга эга. Бош Қомусимиз ҳисобланган Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси мамлакатнинг мустақил давлат сифатида фаолият олиб бориши учун ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади. Бундан ташқари “Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-60-сон Фармони билан ишлаб чиқилган 2022 — 2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”да инсон қадри учун 100 мақсад белгиланган. Унга кўра, “46-мақсад: Олий таълим билан қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини ошириш”, 47-мақсадда эса, “2026-йилга қадар 10 та салоҳиятли олий таълим муассасасини QS ва TNE халқаро рейтингларига киришга мақсадли тайёрлаш”[1] долзарб масала ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-158-сон 11-сентябр 2023-йилдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисидаги Фармонига мувофиқ, “Олий таълим муассасалари ташкилий-бошқарув фаолиятини такомиллаштириш, уларнинг моддий-техник таъминотини мустаҳкамлаш”[2] белгиланган мақсадлардан бири саналади. Ушбу мақсад йўлида “5 та олий таълим муассасасини миллий тадқиқот олийгоҳларига айлантириш, қўшимча 120 минг ўринли ўқув бинолари ҳамда 150 минг ўринли талабалар турар жойларини куриш, кутубхоналарни камида 1 миллионта замонавий адабиётлар билан тўлдириш ва кутубхона фондиди тўлиқ рақамлаштириш”[2] каби вазифалар қўйилган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Таълим тизими, жумладан, олий таълим муассасаларида сифатли таълим бериш масалалари кўплаб хорижлик олимлар томонидан ўрганилган. Хусусан, Ш.В.Тагилова, Е.С.Коновалова, А.А.Егоров, М.А.Сухомлинова, Е.Ю.Шибановаларнинг илмий ишларида таълим соҳасини бошқаришни ва ахборотлар базасини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Бу борада Ўзбекистонда олий таълимда самарали бошқарув тизимини иқтисодий ривожлантириш ва тузилмавий-таркибий ўзгаришларни ўрганишда иқтисодчи олимлардан А.О.Очилов, Ш.Дж.Эргашходжаева, Ж.Хамрақулов, Х.У.Умарова, А.Махмудов, Ф.У.Назарова, Э.Абдусатторов ва бошқаларнинг илмий изланишларида тадқиқ этилган.

Тадқиқот методологияси. Мавзу юзасидан илмий-тадқиқот ишларини олиб боришда кузатиш, солиштириш, суҳбат, анкета сўровлари каби тадқиқот усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги “Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ тизимни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”га 824-сон Қарорига асосан, олий таълим муассасаларининг академик мустақиллигини янада кенгайтириш асосий мақсад ҳисобланади. Унга кўра, “Олий таълим муассасаларида ўқув жараёнига кредит-модуль тизимини жорий этиш тартиби тўғрисида”ги Низом ишлаб чиқилган. Ушбу Низомда олий таълим тизимида ўқув жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ тушунчалар қўлланилади (1-расм).

GPA (Grade Point Average) — таълим олувчининг дастур бўйича ўзлаштирган баллари ўртача қиймати;

академик мобиллик — олий таълим муассасаси талабаларининг муайян вақт мобайнида республика ҳудудидаги ёки чет элдаги бошқа бир олий таълим муассасасига ўқиш мақсадида бориши;

мобиллик дастури — икки ёки ундан ортиқ олий таълим муассасаси ўртасида ўзаро таълим тўғрисидаги келишув асосида ташкил этилган академик мобиллик дастури;

кредит — таълим олиш натижаларига кўра талаба томонидан муайян фан бўйича ўзлаштирилган ўқув юкларининг ўлчов бирлиги. Кредитлар қоидага мувофиқ бутун, қаср сонларда ифодаланиши мумкин;

олий таълим муассасаси — белгиланган миқдордаги кредитларни тан олишни ҳисобга олган ҳолда таълим ва малака тўғрисидаги ҳужжат берувчи муассаса;

кредитларни бериш — малака ёки унинг алоҳида қисмларига қўйилган талабларга мувофиқ эришилган таълим олиш натижаларига кўра талаба ёки бошқа таълим олувчиларга кредитларни расмий тақдим этиш жараёни;

кредитларни кўчириш — талабаларнинг академик мобиллигини таъминлаш мақсадида бир олий таълим муассасаси таълим дастури бўйича олинган кредитларни бошқа олий таълим муассасасига кўчириш ва тан олиш;

кредит тўплаш — таълим элементларини ўзлаштириш ва бошқа ютуқларга эришиш натижасида тақдим этиладиган кредит birlikларини тўплаш;



1-расм. Олий таълим тизимида ўқув жараёнини ташкил этиш индикаторлари
Манба: Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси

талабанинг шахсий таълим траекторияси — талаба томонидан танланган ҳамда унга кетма-кетликда билимлар тўплаш ва хоҳлаган компетенциялар йиғиндисига эга бўлиш имкониятини берадиган йўналиш (маршрут). Таълим траекторияси институционал ҳужжатлар ва йўриқномалар ёрдамида тузилиши ҳамда турли таълим траекториялари натижада бир хил малака олишга олиб келиши мумкин;

таълим дастури — бакалаврият таълим йўналиши ёки магистратура мутахассислиги бўйича ўқув жараёнини амалга оширишга мўлжалланган таълимнинг асосий хусусиятлари (ҳажми, мазмуни, режалаштирилган натижалар), ташкилий-педагогик шарт-шароитлар, фан дастурларига қўйилган умумий талаблар, шунингдек, таълимни ташкил этиш ва амалга ошириш учун зарур бўлган ахборот-ресурс ва ўқув-методик кўрсатмалар мажмуи;

таълим дастури каталоги — олий таълим муассасаси тавсифи, кредит-модуль тизимига кириш, мавжуд бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари, хизматлар ва ресурслар, ўқув фанлари дастурлари, аниқ таълим дастурлари элементлари тавсифи тўғрисидаги ахборот;

таълим натижалари — талаба томонидан ўзлаштирилган ва баҳо билан тасдиқланган малака даражасини акс эттирадиган, таълим жараёнини муваффақиятли тугаллагач талаба ўзлаштирган кўникмалар ва уларни амалда бажариш қобилиятининг тавсифи;

ўқиш юкламаси — талаба томонидан ўқув фаолиятининг барча турлари — маъруза, амалий машғулот, семинар, лаборатория иши, курс лойиҳаси (иши), амалиёт ва мустақил ишни амалга ошириш асосида кутилган ўқув натижаларига эришиш учун зарур бўлган соатлар ҳажми;

рўйхатга олиш хизмати — таълим жараёнини бошқариш ахборот тизимлари ва дастурий маҳсулотлардан фойдаланиб профессор-ўқитувчилар, ходимлар ва талабалар бўйича таълим жараёнига оид маълумотлар базасини шакллантиришни, шунингдек, талабаларнинг

барча ўқув натижаларини рўйхатга олиш, билимини назорат қилиш ҳамда уларнинг академик рейтингини ҳисоблашнинг барча турларини ташкил этишни назарда тутувчи хизматлар;

таълим элементлари — таълим дастурининг бир қисми бўлиб, таълим олиш натижаларига эришиш ва таълим дастурида кўрсатилган билимларни ўзлаштиришга қўмаклашувчи ўқитиш тури;

транскрипт — таълим олишнинг тегишли даврида ўзлаштирилган кредитлар ва баҳоларнинг ҳарф ва рақамлардаги ифодаси кўрсатиб ўтилган фанлар рўйхатини ўз ичига олган белгиланган шаклдаги ҳужжат ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, олий таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишнинг аҳамияти Ўзбекистон мустақил давлат деб эълон қилиниши билан вужудга келди. Сабаби, аввалги йилларда олий таълим тизими талабга жавоб бермас эди. Шунингдек олий таълимнинг моддий-техник базасининг эскирганлиги, инновацион таълим технологияларининг мавжуд эмаслиги самарадорликка, қолаверса бошқарув тизимига салбий таъсир кўрсатади. Олий таълим тизими ва юқори малакали кадрларни тайёрлаш ривожланган хорижий давлатлар тажрибаларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бугунги кунда мамлакатимизда ўтказилаётган демократик ва ҳуқуқий ислоҳотлар, фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг юксак талаблари ва замонавий халқаро стандартларига жавоб берадиган юқори малакали кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш ва модернизация жараёнларини чуқурлаштириш, илғор педагогик технологиялар, инновацияларни таълим-тарбия жараёнларига татбиқ этишни тақозо этмоқда. Жаҳон тажрибаси, юксак даражада тараққий этган мамлакатлар тажрибаси бу ҳақиқатни қайта-қайта исботламоқда. Масалан, ривожланган мамлакатлардан АҚШ, Англия, Германия, Франция, Хитой, Корея, Япония каби давлатлар таълим сифатини таъминлаш ва уларни баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш ва илғор тажрибаларни жорий этиш бўйича дунёда етакчи давлатлар ҳисобланади. Ана шу биргина мисолнинг ўзи ҳам олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг зарурияти, ҳамиша янгиликка интилган давлатлар тараққиётнинг энг юқори чўққисиди бўлиши, олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг меъёрий-ҳуқуқий таъминотининг ишлаб чиқилиши, амалга киритилиши, олий таълим муассасалари тегишли тузилмаларининг меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан таъминланишини ҳамда уларни такомиллаштириш масалаларини назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил этишни кун тартибига қўймоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони 28.01.2022 йил
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “«Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони 11.09.2023 йил
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21-феврал 2024-йилдаги ПФ-37-сон “Ўзбекистон — 2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони
4. Ochilov, A. O. (2017). The Higher Education Dynamics and Economic Growth: The Case of Uzbekistan. *Journal of Management Value & Ethics*, 7(2), 46-53.
5. Ochilov, A. O., Ostonov, E., Shodiev, B. T., Ergashev, T. S., & Khakkulov, F. F. (2022). Modern Approaches To Management Of Training Of Highly Qualified Personnel In The New Uzbekistan Higher Education System. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2432-2442.
6. Nabiev, D. X., Ochilov, A. O., Raimova MJ, O. M., & Normurodova, Z. E. Features of the impact of higher education on the economic growth of the Republic of Uzbekistan. *Central European Management Journal*. Poland, ISSN, 2336-2693.
7. Ochilov, A. O. Higher education is an important factor in stimulating economic growth. *Gwalior management academy*, 23, 133.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

А.К. Толипов, соискатель, Ташкентский архитектурно-строительный университет, Ташкент

Аннотация. Ушбу мақолада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш бўйича айрим ривожланган ва ривожланаётган давлатларнинг илгор тажрибалари қараб чиқилади.

Калим сўзлар: кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик, инфратузилма, давлат томонидан қўллаб-қувватлаш

Аннотация. В данной статье рассматривается передовой опыт некоторых развитых и развивающихся стран мира по государственной поддержке малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, инфраструктура, государственная поддержка

Abstract. This article examines the best practices of some developed and developing countries in the world in government support for small businesses and private entrepreneurship.

Key words: small business, private entrepreneurship, infrastructure, government support

Как нам известно, малый бизнес и частное предпринимательства (МБЧП) является локомотивом экономики развитых странах мира, который создает основную долю новых рабочих мест, отличается значительным вкладом в ВВП, инновационной активностью. Например, доля малого и среднего бизнеса в ВВП развитых стран обычно находится в пределах 50–60%. Так, в США это 50%, Великобритании - 51%, в Германии — 53%, в Финляндии — 60%, в Нидерландах — 63% [1]. В Японии в 2021 году функционировало более 5,16 негосударственных субъектов МБЧП и эти предприятия в отраслях оптовой и розничной торговли, обрабатывающей промышленности, медицины, здравоохранения и социального обеспечения обеспечили около 61 % общей выручки от продаж предприятий [2]. Предприятия мелкого и среднего бизнеса – это сердцевина германской экономики. Многие из этих предприятий стали настоящими лидерами рынка в своих областях и дает почти 60 % ВВП страны [3], в Сингапуре – 53 % и 69,3%, в Италии – 55 % и 71% [4], в Китае доля МБЧП в ВВП доходит до 60-70% [5]. Доля МП в количестве всех предприятий в этих странах составляет более 90%.

Микро, малые и средние предприятия (ММСП) являются основой развития экономики в рамках Ассоциации государств Юго-Восточной Азии (АСЕАН): на их долю приходится от 89 до 99% всех предприятий, они дают от 30 до 53% национального ВВП и от 19 до 31% экспорта [6].

Эффективная государственная политика в отношении МБЧП достигается благодаря деятельности специальных созданных государственных институтов: в Соединенных штатах Америки эффективно функционирует Small Business Administration, поддерживает развитие МП в Сингапуре агентство «Spring», в Японии - Small and medium enterprise agency, в Великобритании при Министерстве торговли и промышленности в 2000 г. создано агентство Small Business Servis, Генеральный Директорат малого и среднего бизнеса, ремесленничества, услуг и свободных профессий осуществляет поддержку МСП в Германии и т.п.

Часть функционала по работе с МСП делегируется соответствующим министерствам, департаментам, контрольно-ревизионным службам, банкам, созданным фондам и другим институтам [7].

Во многом задачи институтов поддержки МБЧП во всех странах схожи, есть определенные отличия в организации работы, во взаимодействии с другими институтами и ведомствами, а также с общественностью и бизнесом.

Основными функциями институтов поддержки МБЧП в развитых странах являются: поддержка МБЧП, разрабатывающих инновационные производства и высокотехнологичную продукцию; осуществление инвестирования и долгосрочного кредитования субъектов МБЧП для приобретения и реконструкции оборудования, производящего инновационные и конкурентоспособные продукты и услуги; поддержка в сфере формирования конкурентоспособности продукции МБЧП в сравнении с импортным продуктом; экспортная поддержка малого бизнеса, правовое обеспечение и сопровождение экспортных операций; обучение, подготовка и переподготовка персонала. Наиболее интересным является опыт работы Small Business Administration (далее -SBA) в США, созданной в 1953 г., который подтверждается масштабом развития МСП в Америке. Данный опыт успешно был применен в Японии и Великобритании, в странах ЕС [8].

Small Business Administration считается наиболее масштабной правительственной структурой по поддержке МП, она подчиняется Президенту США и Конгрессу и не аффилирована с другими структурами. В организационную структуру Small Business Administration входит четыре департамента, которые непосредственно осуществляют функции по поддержке МП в промышленности и в сфере услуг, а также реализуют государственные и региональные программы поддержки. В состав администрации входит административный департамент, осуществляющий задачи информационного, трудового обеспечения, планирования и девять специальных отделов, и служб. По решению Конгресса США введены два независимых управления: Адвокатура и Генеральная инспекция, которые не подчиняются Управляющему SBA, что позволяет им предлагать решения по совершенствованию мер и форм поддержки МП, оценивать деятельность Администрации и передавать эту информацию Федеральному правительству [9].

Small Business Administration организовала целую сеть консультационных бюро, бизнес-центров, отделений, представительств и уполномоченных компаний, разместившихся во всех штатах и крупных городах, финансируемых за счет бюджета в полном объеме или частично. Весьма полезным для России может оказаться создание Service Corps of Retired Executives (далее - SCORE), объединившего руководящих специалистов в отставке, готовых консультировать предпринимателей в сфере бизнеса, управления, права, финансов. Подобная структура также создана в ЕС (European Senior Service Network) [12].

Для финансовой поддержки МБЧП реализуется программа «Микрокредиты», по которой средства предоставляются на пополнение оборотных активов, приобретение инвентаря, мебели и не могут быть использованы на текущие цели [8].

Активно поддерживается и развивается в США малый инновационный бизнес, в котором на 1 доллар затрат на НИОКР число нововведений превышает в 24 раза крупный бизнес. Финансирование инновационных разработок в сфере промышленности и сервисном секторе осуществляется на конкурсной основе за счет реализации на федеральном уровне специальных программ: «Программа инновационного исследования в малом бизнесе», «Программа трансфера технологий малого бизнеса». Обеспечение МБЧП рисковым и инвестиционным капиталом по приемлемым ставкам под гарантийные обязательства Small Business Administration на всех стадиях проекта осуществляется по программе «Инвестиционные компании малого бизнеса». Достаточно эффективным механизмом поддержки малых предприятий является реализация программы «Деловые информационные центры», позволяющая обеспечить работу малого бизнеса с применением современных программных средств, коммуникационных технологий [13].

Заслуживает внимания опыт таких стран как Германия, США, Япония, где существуют специализированные организации, диагностические центры, осуществляющие оценку финансового, имущественного и иного состояния предприятия, обратившегося за инвестиционными средствами, что обеспечивает снижение риска финансирования предприятий [14].

Интересным, является опыт создания мощной системы государственных гарантий для МБЧП в таких странах как США, Япония, которая позволяет расширить возможности

финансирования деятельности малого бизнеса. Необходимо заметить, что в Узбекистане функционирует Торгово-промышленная палата, страховые фонды обеспечивающие гарантийное обслуживание кредитов субъектов МБЧП.

Привлекает внимание в контексте проблем исследования опыт зарубежных стран по созданию сети частных инвестиционных фондов -Small Business Investment Companies -цель создания которых, аккумулируя собственные средства и привлекая гарантии SBA, финансировать МБЧП. Подобные компании предоставляют акционерный капитал, облигации, долгосрочные займы, оказывают консультации в сфере финансового менеджмента.

С инновациями и научно-техническими разработками связаны проблемы защиты интеллектуальных прав. В Японии по аналогии с США создано ряд организационных и законодательных мер по регистрации, защите и распространению научных разработок, инновационных решений.

Правительство Японии ориентируется на косвенную поддержку субъектов МБЧП, создавая развитую инфраструктуру поддержки, фонды. Основная часть финансовой поддержки малого бизнеса осуществляется через региональные, муниципальные организации поддержки МБЧП и венчурные фонды.

Поддержка компаний осуществляется также посредством покупки префектурой акций и стимулированием других компаний в покупке облигаций МБЧП, путем гарантированной покупки товаров и услуг [8]. Развитие инфраструктуры поддержки малого бизнеса осуществляется государственным агентством малого и среднего бизнеса, которое также реализует стратегию правительства по инновационной поддержке МБЧП.

Существенную роль в развитии инноваций играет агентство «Организация поддержки МСП и инновационного развития регионов Японии», в структуре которого находится развитая сеть организаций инфраструктуры, оказывающих поддержку малому бизнесу.

Агентство для поддержки МСП активно взаимодействует с ТПП, с венчурными, региональными и муниципальными центрами поддержки. В Японии действует национальная программа «Инновационные исследования малого бизнеса» способствующая поддержке в разработке технологических новаций. Реализация данной программы позволила значительно увеличить вовлечение МБЧП в инновационную деятельность [15].

В Канаде государственная поддержка направлена на развитие научных знаний, высоких технологий и информатизацию в недостаточно развитых или новых сегментах рынка, на повышение конкурентоспособности на мировом рынке продуктов и товаров МБЧП. При Министерстве промышленности Канады создан Координационный совет по взаимодействию с государственными и партнерскими организациями по реализации программ поддержки МБЧП, создана сеть региональных отделений для предоставления бизнес-услуг [4].

Интересен опыт Германии по вовлечению старшеклассников и студентов в предпринимательскую деятельность. При поддержке Deutsche Ausgleichs bank в вузах создаются кафедры предпринимательства, реализуются программа финансовой поддержки EXIST и программа JUNIOR по вовлечению молодежи в предпринимательство. Германское правительство активно развивает венчурный рынок, при его поддержке разработана программа «Венчурный капитал для малых технологических компаний» и «Программа инновационной поддержки МСП», позволяющие финансировать научно-технические разработки, создавать команды разработчиков, привлекая работников высших учебных заведений [12].

В Великобритании агентство «Обслуживания малого бизнеса» определяет стратегию развития МБЧП, обеспечивает взаимодействие субъектов малого и среднего бизнеса с государством, общественными организациями. Технические программы Великобритании направлены на финансовую и инновационную поддержку, на консультирование и обучение, на помощь в размещении контрактов. В целом поддержка малого предпринимательства активизировалась в Великобритании с 1970-х годов. В стране осуществляется ограниченная финансовая поддержка по программам «Схема грантов», «Схема содействия в создании предпринимателей», «Гарантирование кредитов» и т.д. [16].

Опыт поддержки МБЧП во Франции ориентирован прежде всего на повышение инновационной деятельности, на развитие электронного бизнеса, на создание новых предприятий, на развитие региональной активности бизнеса, на повышение конкурентоспособности МБЧП на мировом рынке. Для решения финансовых вопросов во Франции успешно осуществляет свою деятельность Департамент по делам МБЧП, ремесленничества, индивидуального предпринимательства и связям с потребителями, созданный при Министерстве финансов, учрежден Банк развития МБЧП, созданы консультационные центры, промышленные ассоциации и ассоциации потребителей, бизнес-инкубаторы, технопарки, экспортные агентства и т.д. Крупный бизнес Франции активно взаимодействует с малыми предприятиями, что повышает устойчивость последних. Развивается малый бизнес в сервисном секторе, действуют кафе, закусочные, табачные лавки и магазинчики. Практикуется комбинирование предприятия, где одному владельцу принадлежит, например, кафе и табачная лавка. Правительственные программы направлены на льготное финансирование и налогообложение МБЧП. Во Франции малые предприятия на два года освобождаются от налога на акционерные капиталы от местных налогов, платят подоходный налог и налог на часть прибыли по льготным ставкам, в отдельных регионах они освобождаются от выплат в социальные фонды. Особые налоговые льготы предоставляются малым инновационным предприятиям. Организация OSEO оказывает финансовую помощь инновационным МБЧП, через партнёрство с инвесторами и банками, выдает гарантии и поручительства. Французская компания Sofase страхует кредиты и покрывает неплатежи экспортеров. Национальное агентство по созданию предприятий (АНСЕ) поощряет создание МБЧП и препятствует их банкротству. Дополнительные льготы предоставляются правительством при открытии МБЧП в депрессивных регионах [17].

Опыт Италии демонстрирует работу программы поддержки МБЧП, созданную по инициативе Европейского Союза, совместно с проектами федерального, регионального и местного уровней, направленные в первую очередь на инновационную, экспортную и финансовую поддержку субъектов малого бизнеса. Поддержка МБЧП выведена из-под непосредственного контроля министерства [8]. В Италии создаются при поддержке ассоциации работодателей и ремесленников общества взаимного кредитования, самое крупное из них Confidi. Целью создания которых является взаимная поддержка членов и повышение доступности кредитных средств [18].

В Китае активно функционируют государственные фонды по поддержке сектора МСБ. В 2001г. создана информационная служба CSMEО, которая распространяет информацию о программах поддержки МБ, консультирует бизнес и население в сфере бизнеса через Интернет-сайт. Именно в Китае значительное число рабочих мест создается в секторе малого предпринимательства. Стремительный рост экономики во многом обусловлен быстрым ростом сектора малого бизнеса, создающего большую часть новинок, инновационных изобретений. Государство повсеместно поддерживает развитие малого инновационного сектора, создавая комфортную систему налогообложения, кредитования и гарантий. В Китае созданы государственные фонды по поддержке МБ, основной целью которых является обеспечение гарантий по кредитам [19].

Отдельно заслуживает внимание опыт поддержки МБЧП в Сингапуре, одной из стран с высоким качеством жизни, занимающей по условиям создания для бизнеса 5-е место. Поддерживает развитие МБЧП в Сингапуре агентство «Spring», осуществляющее комплекс всех инфраструктурных услуг от финансовой поддержки до обучения кадров. В стране действует значительное число программ по льготному кредитованию: специальные займы, страхование, финансовое обучение. Существует льготное налогообложение для привлечения иностранных инвестиций, осуществляются гарантии по денежным вложениям для иностранных компаний [20,21].

В Индии развивается система поддержки МБЧП, для малого бизнеса вводятся льготы по налогам и кредитам, предоставляется консультационная поддержка, помощь в подготовке кадров, защита от конкуренции крупного бизнеса [4]. Особую роль в поддержке бизнеса

играет защита государства от внешней конкуренции, что обеспечивает устойчивость малого бизнеса, ориентированного на предоставление услуг бедным слоям населения. В некотором смысле может быть интересен опыт Индии, где проводится резервирование государством отдельных видов производства продукции и услуг за мелким бизнесом, что позволяет защищать его от конкуренции. Существует также программа закупки государству малых предприятий отдельных товаров и услуг по гарантированным ценам, что также способствует обеспечению рынка сбыта [8].

Координацию деятельности по поддержке МБЧП осуществляет Национальная корпорация малого предпринимательства, созданная при министерстве микро-, малого и среднего предпринимательства, которая имеет развернутую сеть региональных представительств, технологических, сервисных центров по разработке программных продуктов с представительствами во всех штатах. Министерство микро-, малого и среднего предпринимательства по поддержке МБЧП реализует несколько программ: «*Финансовая помощь при освоении новых технологий*», «*Повышение конкурентоспособности предприятий*», «*Обеспечение перехода предприятий на стандарты ISO9000*». Правительство оказывает всяческую поддержку разработчикам программных продуктов на экспорт через ассоциацию «*Технологические парки программного обеспечения Индии*». В состав ассоциации включены технологические парки, оснащенные новейшим оборудованием, средствами связи, коммуникационной техникой. В целях ускорения процесса выхода на рынок программных средств упрощены процедуры оформления авторских прав. Кластеризация малых предприятий в Индии обеспечивает более 60% экспортной продукции, в силу чего правительство нацелено на стимулирование роста экспортных возможностей кластеров [15].

Развитие МБЧП в Индии сдерживается рядом социально-экономическими факторами: *низким уровнем капиталовложений, недостаточностью финансовых средств, отсутствием разделения труда, неадекватностью предпринимательских навыков, отсутствием эффективных методов управления и доступа к таким ресурсам как земля, инфраструктура и новейшие технологии*. Программы правительства направлены на создание благоприятных условий для развития МБЧП, создание инфраструктурных объектов для эффективной деятельности предприятий.

Результаты проведенного анализа позволяют сделать некоторые частные выводы, представляющие интерес в применении опыта зарубежных стран в отечественной практике для развития МБЧП, для создания зрелой инфраструктуры поддержки:

- создание мощного национального органа на примере SBA, выведенного из подчинения министерства и наделенного достаточными полномочиями и ресурсами, способного оказывать результативную поддержку МБЧП;
- создание консультационных бюро с привлечением высококвалифицированных специалистов, вышедших на пенсию, способных вести активный образ жизни, осуществлять менторство и консультационную помощь предпринимателям, по принципам реализации программы «Корпус консультантов из числа бывших топ-менеджеров» в США;
- создание бюро помощи по поиску и оформлению документации для осуществления закупок МБЧП в каждом министерстве, по аналогии со специальными бюро (OSDBU) в США;
- расширение системы гарантий и поручительств для малого бизнеса и объектов инфраструктурной поддержки;
